

Bir *muhabbat* tarixi



tikoyalar / Toplantılar

•JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN•

Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--



821.436

R-78

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

BIR MUHABBAT TARIXI

Hikoyalar



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UO'K: 821(436)-32
KBK 84(4Yuga)-445
R 79

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad,
Suvon Meliyev, Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov,
Nurboy Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:
Dildora ARZIKULOVA va b.

Yozef Rotning „Bir muhabbat tarixi“ nomli hikoyasi asosida nomlangan ushbu to'plamda jahon adabiyotiga munosib hissa qo'shgan adiblarning hikoyalari jamlangan. Ushbu kitobga kiritilgan hikoyalardagi turli xil insonlarning taqdiri sizni o'ylashga, mulohaza yuritishga undaydi.

PEN TAKM

ISBN 978-9943-8520-8-2

Inv: 2023/1-91

© D. Arzikulova va b. (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

NASHRIYOTTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imam al-Buxoriy, Imam at-Termizi, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Korazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yughnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrat bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nighoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasi izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishhasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O.de Balzak, A. P. Chekov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandr, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonalarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyl, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinn olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimmi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalarini yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdag'i juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonalarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar, degan umiddamiz.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, joyajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

Dino BUTSSATI

MAOSHGA QO'SHIMCHA

Jovanni Batistella kuni kecha ishga olingan yosh hamkasabasi unga nisbatan 20 ming lira ko'p maosh olishidan xabar topdi-yu, halovatini yo'qotdi. Shunchalar g'azablandiki, xotirjam paytida hech qachon qilmaydigan ishga jur'at qildi, barcha alamini to'kib solish uchun bosh direktor huzuriga otlandi.

Ulug'vor xonaning eshigini ochishi bilan uning to'rida o'tirgan boshliqqa ko'zi tushdi.

- Kiravering, kiravering, marhamat...
- Kechirasiz, janobi boshliq, biroq...
- Muhtaram Batistella, sira tortinmay kiravering. Nihoyat, meni yo'qlab kelganingizdan juda minnatdorman....
- Minnatdormisiz?
- Bo'lmasam-chi! Sizni ko'rGANIMdan boshim osmonga yetdi. Marhamat, bemalol joylashib olavereng. Juda qimmatli va qadrdon kishilarimizga kam e'tibor beramiz. Afsuski, bu achchiq haqiqat. Muhtaram Batistella, tez-tez ko'rishib, xotirjam dardlashganga nima yetsin. Lekin haftalab ko'rishmaymiz. Hattoki oylab... Balki, ko'rishGANIMdan buyon bir necha yil o'tgandir.
- Rappa-raso ikki yarim yil oldin ko'rishgandik.

– Ikki yarim yil! Aytsam ishonmaysiz, muhtaram Batistella. Mana shu ikki yarim yil mobaynida har oqshom, uyquga yotishdan oldin, ya’ni o’z vijdonim bilan yuzma-yuz qolganda, o’zimga o’zim dakki berib keldim: „Batistella! Bebaho Batistella! Men uni tamomila unutib qo’ydim. Uni xolisona xizmatiga munosib lavozimga o’tkazishim kerak. Juda jonkuyar xizmatchi. Axir, firmanizning ishongan bog’i-yu suyangan tog“i“. Sizga yolg‘on, Xudoga chin: har kecha shunday fikrlar sira tinchlik bermaydi, o’zimni oqlay olmay vijdonim oldida qiynalaman.

– Demak, janob boshliq, siz...
– Albatta, albatta! Sizning niyatizingizni sezib turibman. Nima demoqchi ekaningizni ham bila-man. Haqiqatan ham tirnog‘ingizga ham arzimaydigan ayrim no‘noq xodimlar sizdan ko‘p maosh oladi. Bu adolatsizlik! Sizning sabr-toqatingiz tugadi. Shunday demoqchimisiz?

– Ha, haqiqatan ham...
– Bunday ahvol, muhtaram Batistella, sizning hafsalangizni haqli ravishda pir qilgan. O‘rinli e’tiroz. Fikringizga men ham qo’shilaman. Adolatsizlik shunday illatki, eng muloyim odamni ham yirtqichga aylantiradi. Yo gapim noto‘g‘rimi?

– Umuman, to‘g‘ri...
– Mana ko‘rdingizmi. Siz bolsa meni sal bo‘lmasa hech vaqoni tushunmaydigan, hech kimning qismati bilan qiziqmaydigan bag‘ritoshga chiqarib qo‘yardingiz. Odam degan bunaqa shuhagar bo‘lishi kerak emas. Mayli, loaqal bugungi kun siz uchun omadli bo‘lsin. Bugun ikkalamiz ham bir-birimizdan rozi bo‘lishimiz kerak. Sizga 150 ming oylik maosh tayinlasam, nima deysiz?

- Nima dedingiz?
- Yanglishmasam, hozir 95 yoki 98 ming lira olasiz?
- 97 ming.
- Juda soz, nihoyat, oldinga dadil qadam tashlaymiz. 150 ming lira maosh sizga yetadimi?
- Kechirasiz-u, biroq bu hatto xayolimga ham kelmagandi.
- Mana, o'zingiz guvoh bo'ldingiz. Men kim-lardir orqamdan g'iybat qilgandek, ayyor tulki ham, qonxo'r ham, odamxo'r ham emasman.
- Rahmat, janob boshliq.
- Arzimaydi. Xolisona xizmatingiz uchun men sizga rahmat aytishim kerak. Chekasizmi?
- Rahmat, men chekmayman.
- Otangizga balli! Bamisolari farishtasiz, farishta! Men esa qarg'ish urganday chekkanim-chekkan... Shunday... shunday... Nihoyat, masala hal bo'ldi.
- Vaqtinuzni olganim uchun meni...
- Bemalol, bemalol, muhtaram Batistella. Omad yor bo'ssin! – Bosh direktor chuqur entikdi: – Af-sus...
- Nimaga pushaymon bo'lyapsiz?
- O'zim, shunchaki... Sizning masalangizda boshqa rejalarim bor edi, endi gapirgandan nima foyda...
- Gapiravering, jon deb eshitaman.
- Siz yoshlarni juda yaxshi bilaman. Hamisha hovliqasiz, yaxshilikni bilmaysiz.
- Juda unchalik emas.
- Men siz bilan yaqin birodar kabi gaplashib olsam degandim. Lekin siz boshqacha tushuni-shingiz hech gap emas.
- Nima uchun?

- Gap shundaki, bu juda nozik masala...
- Nahotki menga ishonmasangiz?

Bosh direktor asta o'rnidan turdi, xona bo'ylab o'g'rincha qadam tashlab eshik oldiga keldi-da, uni qulfladi, yo'lak bo'ylab hech kim kelmayotgan-mikan, deganday biroz quloq soldi va barmog'ini lablariga bosib, shivirlab dedi:

– Batistella, gaplarimga yaxshilab quloq soling.
Mening to'rimdan go'rim yaqin...

– Qo'rqitmang, janob boshliq...
– Qaridim... qarib qoldim... O'qtin-o'qtin yura-gim pand berayotir. Bu ketishda...

– Janob boshliq, yaxshi niyat qiling.
– Menden keyin bu mansabni kim egallaydi?..
Eshityapsizmi, Batistella?

– Albatta, albatta.
– Hech kimga churq etmang, bu gaplarni sizga ishonganimdan aytyapman. Anchadan buyon jid-diy o'zgarishlar bo'lishini bashorat qilishmoqda.

– Nahotki?
– Gapimga ishonavering. Yangi xo'jayinlar, boshqa moliyaviy guruh keladi. Keyin nima bo'ladi?
– Nahotki hozirgi boshliqlar o'rnini yangilari egallaydi?

– Buning oqibatida nimalar bo'lishini bilasizmi?
– Biron narsa deyishim qiyin.
– Birinchi galda tejamkorlikka zo'r berishadi.
Nazarimda, sanoqli kunlardan keyin rahbarlar o'zgaradi, chunki inqiroz bizlarni ham chetlab o't-gani yo'q. Ishlar ko'ngildagidek emas, Batistella. Men ishdan ketamanmi, qolamanmi, bundan qat'i nazar, mening o'rnimga keladigan odam mablag'-larni tejash choralarini qidira boshlaydi. Qanday

choralar deysizmi? Juda oddiy... Bilasizmi, odatda, bunday holatlarda nima qilinadi?

– Yo‘q.

– Ish qayta tashkil qilinadi. Qaytadan tashkil qilish! Ajoyib ibora-a?! Bu nima degani? Ortiqcha daxmazadan xalos bo‘lish degani. Saralash boshlanadi. Yirik maosh oladigan barcha xodimlar elakdan o‘tkaziladi. Kamina ham. Ularning pattasini qo‘liga tutqazishadi. Qayta-qayta elakdan o‘tkazishadi. Kim omon qoladi? Bunday holatda, odatda, hech kim nazarga ilmaydigan oddiy xodimlarga jin ham urmaydi.

– Demak?..

– Sizday sadoqatli xodimni ishdan bo‘shatish men uchun azob! Vijdonan, odam sifatida, muhtaram Batistella, sizni ogohlantirishim ham qarz, ham farz. Qolaversa, sizni bu balodan saqlab qolishim kerak.

– Qanday qilib?

– Sizni maoshingiz keskin ortishidan asrashim, niqoblab, ishonarli joyga berkitishim zarur. Biroq har qancha jon kuydirganid dan nima naf? Siz yoshlari, buni hech qachon qadriga...

– Yo‘q, yo‘q, janob boshliq, gapingizni davom ettiravering...

– Sizga o‘z o‘g‘limday hammasini ochiq aytaymi? Yaxshi. Bunday vaziyatda sizning o‘rningizda bo‘lsam bilasizmi nima qillardim?

– Nima qillardingiz?

– Mana nima qillardim, jon bolam! Boshimni ikki yelkamning orasiga olib, faqir kishi panada deganlariday, boshliqlarning ko‘ziga tashlanmaslikka, qancha berishsa ham...

- Qancha maosh olsam ham?
- Albatta. Shunday xulosa kelib chiqayotir: sizning moddiy ahvolingizni yaxshilash maqsadida, aslida, do'stning emas, dushmanning ishini qila-yotirman. Xolisona aytganda, sizni boshi berk ko-chaga kiritib qo'ymoqdaman.
- Demak, sizning fikringizcha?..
- Muhtaram Batistella, bir kun kelib mendan norozi bo'lishingizni sira ham istamayman. Gaplarimga xo'p deyavering. O'z vaqtida meni ogohlan-tirmagan ekansiz, deb gina qilishingiz aniq. Vaqt esa, azizim, biz bilan hisoblashmaydi. Xo'jayinlar o'zgaradami, o'zgarmaydimi, baribir jiddiy choralar talab qiladigan fursat keladi. Shuni bilgan holda, nima uchun o'zingizni baloga giriftor qili-shingiz kerak?
- Hech narsani tushuna olmayapman... Bularning hammasiga maoshim ortgani sabab bo'ladimi? Hozircha sabr qilganing ma'qul demoqchimisiz?
- Shunchaki sabr qilish emas? Oldini olish kerak! G'anim to'xtovsiz o'qqa tutganda askarlar nima qilishini bilasizmi? Yerga yuztuban yotib oladi. Siz ham o'zingizni chetga oling, Batistella.
- Qanday chetga olaman?
- Ko'chma ma'noda aytyapman. Uzoq maqsadni ko'zlagan holda zARBALARGA chap berish kerak. Bu borada har qancha g'ayrat qilsangiz ham oz. Tushundingizmi, Batistella?
- Unchalik emas...
- Maoshingiz biroz kamaysa, sizday bo'ydoq odam nima ham zarar ko'rardi? Deylik, 97 ming o'rniga 80 ming lira olasiz. Ochingizdan o'lib qol-

maysiz-ku. 90 ming liradan ortiq maosh oladigan xodimlar esa yaqqol ko'zga tashlanadi. Siz esa hech narsa bo'limganday xotirjam ishlayverasiz.

– Demak, maoshim kamaygani ma'qul?

– Mana, sizga nima degandim, yaxshisi bu haqda gap ochmasligim kerak edi. Mening so'zlarimni noto'g'ri talqin qila boshladingiz.

– Menga oyiga 80 ming lira taklif qilyapsizmi?..

– 70 mingga qanoat qilsangiz yana ham yaxshi bo'lardi, lekin o'ylashimcha, 80 ming lira maosh ham bo'laveradi.

– Janob boshliq...

– Yaxshi otga bir qamchi deb bilib aytishgan. Sizday tushungan odamning sadag'asi ketsang arziydi. Bir tasavvur qiling-a: sizning maoshingizni ko'paytirishdi! Oyiga 150 ming lira? Keyin-chi? Dastlabki qisqartirish paytidayoq kovushingizni to'g'irlab qo'yishardi. Sizni o'z bolamday ko'rganim uchun Xudoga shukr qiling.

– Sizningcha, qo'shimcha maosh...

– Hech shubhasiz, bolaginam. Hozirgi paytda maoshni oshirish – o'z boshingni dorga tutib berishday gap.

– Nima ham derdim, janob boshliq. Meni bir balodan asrab qoldingiz, katta rahmat.

– Rahmat aytishning sira ham hojati yo'q. Eng muhimi ko'nglingiz tinchidi, xotirjam ishlayvering. Menga ishonavering: siz uchun jonimni ham ayamayman, qimmatli Batistella!

Dildora ARZIKULOVA tarjimasi

Ulf MALMGREN

OLMA HAQIDA ERTAK

Bu yozda mevalar yaxshi bo'lmadi. Olmalar ham odatdagidan mayda, rangpar bo'ldi. Bog'bonlar har xil zaharli va komyoviy moddalar bilan gullagan daraxtlarga ishlov berishdi, o'shandayoq daraxtlarning po'stloqlari orasiga bekinib olgan qurtlar mevalar yetilmasdan ularni ilma-teshik qilib tashladi. Olma qurtlarining ham nafsi bor, biroq bog'bonlarning ham o'z hisob-kitobi bor, binobarin yozning oxirida olmalarni terib bozorga otlanishdi – hosilni sotish kerak.

– Bugun olmalar necha puldan? – bozor pesh-taxtalari oldida qo'llarida hamyonlarini ushlagancha savol berishardi ayollar.

– Juda a'llo navli olmalar. Olganlar darmonda, olmaganlar armonda. Sizga necha kilo tortay? – keksa sotuvchilar shunday olmalarni solish uchun qog'oz paketlar tayyorlay boshlardi.

– Ikki kilogramm yetar, nevaram olmani joni-dan ham yaxshi ko'radi!

Mayda, qasmoqday qora dog' tushgan quruq-shagan olmalar darhol qog'oz xaltadan joy olardi. Tangalar jaranglab, u qo'ldan bu qo'nga o'tardi. Savdo shu asno davom etardi.

Ba'zida erkaklar ham qiziqsinib kelib qolar, hamyon to'la puli bo'lmasa ham mevalarni ko'r-ganda ko'zlari o'ynab ketardi.

— Menga ikki dona olma bersangiz bas. Shirinmi?

— Albatta, shirin. Ayniqsa, manavi navi. Olasizmi?

Shu asno ikki dona sersuv olma — bu yil olmalarning hammasi sersuv va bemaza edi — taroziga qo'yiladi. Savdo shu asno davom etardi.

„O'zingga shukr, — xotirjam tin olardi sotuvchi, — savdo chakki emas, hamma olmalarni sotib, kun botmay uyga yetib olishim hech gap emas“.

Savdo ancha jonlandi, barcha ishbilarmon kishilar kabi olma sotuvchi ham imkoniyatni qo'ldan boy bermay ularning narxini biroz oshirdi. Shunday qilmasa badavlat ishbilarmon bo'lmas edi, badavlat ishbilarmon bo'lmasa, hech kim uni odam qatoriga qo'shmaydi. Soat 11 dan keyin bir kilogramm olmaning narxi yaxlit bir kronaga qimmatlashdi, savdo esa yana ham qizg'in tus oldi, zotan, bu paytga kelib bozor xaridorlar bilan yana ham gavjumlashdi.

Meva rastalaridan birida qariya ham joylashib olib, savdo-sotiqni unsiz kuzatardi.

Uning uyi yonida yolg'iz olma daraxti o'sardi. Otam zamonida ekilgan bu eski olma daraxtining hosili yil sayin kamayib bordi. Qariya daraxtni kesib tashlashni allaqachon ko'ngliga tugib qo'ygan, biroq o'sib turgan daraxtni kesib tashlashga sira ko'zi qiymasdi. Bolalik paytida, ota-onalari tirik bo'lgan kezlarda ham olma uyning yonida qad rostlab turar, har yili mo'l hosil berar, qip-qizil olmalarning marjonday terilgan shoxlari yerga tekkuday egilib qolardi. Maktabga ketayotganda ham sumkasiga olmalardan solib berishar, olma yeyaver ganidan tishlari ham qamashib ketardi.

Lekin zamonlar o'zgardi, otasi ham, onasi ham dunyodan bosh olib ketdi, ularning diydori qiyomatgacha armon bo'lib qoldi, olma daraxti ham qarib, kichrayib qoldi, shoxlarini patak soqol bo'laklariday is bosib ketdi. Daraxt ortiq mo'l hosil bermas, biroq qariyaning ko'zi unga tushganda olis bolaligini eslab entikib qo'yardi.

Bu yil olma daraxti bir dona meva qildi. „Adoyi tamom bo'libdi, qurigan daraxtning xosiyati yo'q, kesib tashlash kerak“, degan fikr o'tdi qariyaning ko'nglidan.

Lekin olma daraxti kutilmagan hunarlar ko'r-satdi. Uning mevasi yetilmasdan turib shu darajada katta bo'lib ketdiki, olma daraxti yosh bo'lgan kezlarda mana shunday yirik-yirik mevalar berardi. Qariya o'z ko'zlariga ishonmasdi. U qurigan deb taxmin qilgan daraxt shoxlarida shuncha hayotiy kuch borligiga aql bovar qilmasdi. „Mayli, – deya qo'l siltadi u, – kuzgacha tura tursin, lekin kuzda, albatta, kesib tashlayman“.

Olma mevasi kun sayin to'lishib borardi, butun chor-atrofdagi olma mevalariga yetishmayotgan fazilat uning bag'rida to'lib-toshayotganday. Nihoyat, rangi ham o'zgardi. Sarg'imtil-qizg'ish tus olib, yarqirab tovlanar, bitta ham dog'i yo'q, ko'zguday tiniq edi. U yetilib pishdi, qariya umri davomida bu qadar katta olmani ko'rmagandi.

„Bu olmani bozorga olib boraman, – o'yladi qariya. – Ko'rib odamlarning ham ko'zi yayrasin, go'zalligini men singari anglagan odamga bera-man, shunday odamga bergenim bo'lsin, bu olma bilan kimningdir ko'nglini shod qilaman. Savob ham kerak, axir“.

U shu maqsadda bozorga keldi, biroq hamon ikkilanar, shu bois yonidagi olmani peshtaxtaga qo'ygani botinmasdi.

- Yaxshi olmalar bormi? – so'rashardi xotinlar.
- A'llo navli, asalday shirin olmalar, – javob berardi sotuvchilar.
- Bir kilogramm torting, – derdi xotinlar.

Tangalar jaranglar, tarozi pallalari lopillar, qo'g'oz paketlar esa shitirlardi. Xullas, olma sotila-yotgan joyda nimaiki ro'y bersa, hammasi sodir bolardi. Qariya esa hamon ikkilanardi. Nima uchun? Nihoyat, nimadir deya ming'irladi-da, shoyi qog'ozga o'ralgan olmani peshtaxtaga qo'ydi.

Olmani peshtaxtaga qo'yib, uning yoniga qizil siyoh bilan narxi yozilgan yorliqni ham joy-lashtirdi.

Qariya kuta boshladi. Hech qancha o'tmay yagona olma ro'parasida bir xotin to'xtadi. Nimadir demoqchi bo'lib og'iz juftlaganda ko'zi olma narxi qayd etilgan yorliqqa tushdi. Og'zini asta yoparkan, boshini norozi ravishda chayqaganacha yorliqqa yana bir karra nazar soldi va nari ketdi.

Besh ere – yorliqda olmaning narxi shunday edi. Bu – aytishga ham arzimaydigan narx. Qariya daromad qilishni emas, faqat olmani o'ylardi, shu bois bozor talabidan kelib chiqib olmani ramziy narxlab qo'ya qolgandi. U odamlarga biron qimmatbaho ashyo emas, yetilib pishgan chiroyli olmani taklif qilayotgandi.

Yana biroz vaqt o'tdi. Navbatdagi xaridor keldi. Ko'zoynagi va sumkasini qidirib oldingi aylonga nisbatan peshtaxta qarshisida ancha turib qoldi.

„Olmani ko'rib ko'zları chaqnab ketadi“, – o'yładi qariya. Biroq olmaning narxiga ko'zi tushgani hamon bu xotin ham – ha, ha, – birinchi ayol kabi juftakni rostlab qoldi.

Xotinlar ketma-ket kelib, ketma-ket nari ketardi. Qariya parvo ham qilmasdi. Yolg'iz olma peshtaxta ustida tovlanar, hamon o'zining chinakam xaridorini kutardi.

Yon peshtaxtalardagi olma uyumlari asta-sekin kamaya boshladi. Tushdan keyin xaridorlar ham kamaydi. Sotuvchilar bor-budini yig'ishtirib uy-uylariga jo'nab qolishlari ham mumkin edi, chunki olmaga talabgor odamlar buguncha keragini g'amlab olishganini bilib turishardi, biroq ishchanliklarini namoyish qilib, idishlar tagida qolgan olmalarni ham sotib tugatishga umid qilishardi.

Shu bois yana qo'lga qalam oldilar. Eski narxni shosha-pisha o'chirib, yangi narxni kattaroq sonlar bilan yozib qo'yishdi. Har bir kilogramm olmaning narxini yana rappa-raso bir kronaga arzonlashtirishdi, qolaversa, alohida yorliqqa o'qlovday-o'qlovday harflar bilan: „ARZON“ va „SUVTEKIN“, deb yozib qo'yishdi. Bu o'z samarasini berdi – savdo yana jonlandi.

Chiroyli olmaning ro'parasida yosh yigit to'xtadi. Narxiga nazar soldi. Lekin ketmadi.

– Nahotki! – dedi kinoya bilan. – Atigi besh ere – arzon. Lekin uch erega bersangiz olaman.

Javob kutib qariyaga kibr bilan tikildi. „Siz shoxida yursangiz, men bargida yuraman“, – demoqchiday bo'ldi.

Qariya jilmaydi.

– Sira ham yo‘q demayman. Uch erega olmoq-chimisan – marhamat.

„Bu yog‘i necha puldan tushdi! – ajablandi yigit. – Voy qari tullag-ey! Boshqacha usul qo‘l-laymiz“.

– To‘g‘risini ayting, bu olmaning qanday kam-chiligi bor?

– Kamchiligi deysanmi? Unda kamchilik nima qilsin, tong shabnamiday beg‘ubor.

Yigit kalovlanib qoldi, sarosimaga tushganidan achchig‘i chiqib, asabiylashdi.

– Bor baraka, otaxon, bir ere beraman.

Biroq qariya angladiki, yigit u kutgan xaridor emas, shu bois lom-lim demay olmani oldi-da, yomg‘irpo‘sining tagiga yashirdi.

– Qari to‘nka, – to‘ng‘illadi yigit. Uning ko‘ngli olmaga sust ketgan, biroq zo‘ravonlik qilib ham uni qo‘lga kirta olmasligi alam qilganidan kayfi-yati tamomila buzildi.

Oradan hech qancha o‘tmay ikkita qo‘g‘irchoq-day qizaloq peshtaxta yonidan o‘tishdi. Ular narx yozilgan yorliqqa qaraganlari ham yo‘q, lekin qariyani ko‘rganlari hamono polapon qaldirg‘ochlar-day chug‘urlashdi:

– Juda g‘alati buva ekan-a, bir o‘zi bittagina olmani sotyapti. Hi-hi-hi!

Kun o‘tar, quyosh ufq sari enib borardi.

Qariya narxnomani olib, o‘rniga boshqa yorliq qo‘ydi. Unga shunday yozilgandi: „Bu olmani ko‘ngli tusagan odamga beraman. Juda yomon olma“.

Olma juda yaxshi ekaniga hech kim ishon-masdi. Qariya odamlarni yana bir bor sinovdan o‘tkazishga qaror qildi.

Xotinlar, erkaklar, bolalar ketma-ket peshtaxtaga yaqinlashardi.

– Tushunarli, – dedi bir xotin. – Bu olmaning ichi chirigan. Kim olsa olsin, men esa tekinga ham olmayman.

– Juda chiroyli olmamikan? – dedi boshqa bir ayol. – Lekin zaharday achchiq bo'lsa kerak.

– Albatta yomon olma, – dedi boshqa bittasi. – Shundoq ko'rinish turibdi-ku. Shunaqa bemaza olmani ham bozorga olib chiqishganini qarang!

Xaridorlar olmaga turli tomonlardan nazar solisharkan, jirkanganday burunlarini jiyirishardi.

Xullas, chirigan olma sotilayotganidan politsiyachi ham xabar topib, jiddiy qiyofada peshtaxtaga yaqinlashdi.

– Aytishlaricha, kimdir bu yerda chirigan olma sotib, cho'ntagini qappaytirishni mo'ljallayotganimish, – dedi politsiyachi. – Olma sotishga ruxsatnomangiz bormi?

– Yo'q, – dedi qariya, – ruxsatnomam yo'q, lekin menda bittagina olma bor, xolos...

– Shunaqami, – dedi o'smoqchilab politsiyachi. Qariya aytganday, peshtaxtada haqiqatan ham bitta olma turardi. – Bitta bo'lsa ham sotyapsiz-ku!

– Sotayotganim yo'q, uni xayr-u ehsunday berib yubormoqchiman.

Vaziyat politsiyachiga tushunarsiz va g'ayriod-diy tuyuldi.

– Men bilan mahkamaga yuring, hammasini oydinlashtiramiz, – dedi u.

Qariya uning ortidan ergashdi. Politsiya mahkamasida qariya rosmana so'roq qilindi, hammasi hujjatlashtirildi, biroq ma'lum bo'lganidan ortiq

hech vaqoni oydinlashtirib bo'lindi. Qariyani qo'yib yuborishdi, ammo bozorga ortiq kelmang, xaridorlarning asabini buzmang, deb tayinlashdi, qolaversa bunday bema'nilik yana takrorlansa, javobgarlikka tortamiz, deb ogohlantirishdi.

Savdo tugadi, so'nggi peshtaxtani ham mashinaga yuklashdi, sotuvchilarning gap-so'zlaridan ayon bo'ldiki, bu kun ular uchun omadli bo'ldi. Barcha mevalar sotildi, faqat yirik, chiroyli, shishaday tovlanayotgan, shoxidan yangi uzilgan sarxil olma sotilmay qoldi.

Qariya ketib borarkan, o'zi bilan o'zi gaplashardi. „Nima ham derdim, – o'ylardi u. – Tartib-qoidaga amal qilish kerak, lekin bugun bozorni ham, xaridorlarni ham jin urgan ko'rindan. Men seni yemayman, olmajon. Seni ko'rib rosmana quvonadigan odam, albatta, topiladi. Bugun ro'y bergen voqealar esa nainki qarib kuchdan qolganimni, shuningdek, eldan begonalashib qolganimni ham ko'rsatdi. Afsuski, bugun meni hech kimsa tu-shunmadi“.

Qariya uyga kelgach, olmani keksa olma daraxtining tagini qoplagan maysazorga qo'ydi.

– Mana, ey olma daraxti, – dedi qariya, – jigarbanding bag'ringga qaytib keldi.

Bahorda qor erigach, butun borliq yashil libosga burkandi, faqat olma daraxtining tarvaqaylagan shoxlari qip-yalang'och edi – daraxt batamom qurib qolgandi. Lekin olma yotgan joyda kichikdan ham kichik bir juft rangpar yashil niholcha quyosh nurlariga talpinib o'sa boshlagandi.

Abduhamid PARDAYEV tarjimasi

QIYOMAT-QOYIM

Ba'zi-ba'zida jinim qo'zib qoladi – rosmana qiyomat-qoyim sodir etaman, bu hunarimni qaqshtaqchich momaqaldirog‘-u ketidan yarqiragan chaqmoqqa o'xshataman.

Xoh ishoning xoh yo'q, biroq haftalab, oylab, hatto yillab ko'nglimda nafrat yig'ilib boradi. Sababini bilmayman, lekin ochiq yoz kunida ufqda paydo bo'lgan bulutlar lashkariday tobora keng quloch yoyib, tobora qudratli kuchga aylanadi. Keyin arzimagan bahona bois nafratim daf'atan portlaydi. Faqat shunday kezlarda aynan kimdan nafratlanayotganimni anglab yetaman; qahrli, ammoadolatli va aniq malomatlarni do'lday yog'diraman, zikr qilayotgan qalandarday jazavaga tushib, butun qahr-u g'azabimni to'kib solaman-u, nihoyat yengil tortaman. Bu go'yo to'fonga o'xshaydi, unga hech kim, eng avvalo, o'zim sira ham bas kela olmayman. Bunday jazavali holatlarning qaysi biri esingda qolgan, deysizmi? Albatta, o'n sakkiz yoshimda otam bechorani esankiratib qo'yganim. Darvoqe, otam g'aflatuzada chekka shaharchalardan birida butun umr mol do'xtiri bo'lib ishlagan. O'shanda dovdirab qolgan onam-u toshday qotib qolgan singillarim va

ukalarimning ko'z oldida salkam uch soat ayyuhannos solib tomosha ko'rsatganman. O, o'shanda nimalar demaganman-a!

Ko'nglimga kelgan gaplarning hammasini to'kib solganman. Otamni ham, oilamizni ham, shaharchamizni ham, hatto butun yorug' olamni ham malomatga ko'mib tashlaganman. Ovloq shaharchada siqilib yashash jonimga tegib ketgannini, sassiq shaharchada gulday hayotim xazon bo'lishiga yo'l qo'ymasligimni aytib, bundan buyon ham shu ahvol davom etadigan bo'lsa, duch kelgan mashinaga o'tirib qochib ketaman yoki suyug'oyoq qizlar safiga qo'shilaman, deb dag'dag'a qilganman. Ularning zerikarli bag'rikengligi-yu meshchanlarga xos sipoligidan bezor bo'lganimni baralla aytib, bularning barchasi menga begona, men sho'x-shaddod hayot kechirishni istayman, deb qichqirganman. Afsuski, andishani tamomila unutib, otamning ham, onamning ham yuziga tik qarab, ularning nainki axloqiy, hatto jismoniy nuqsonlarini ham ko'rishga ko'zim yo'q ekanni ovoza qilganman. Aytmagan gapim qolmagan! Quyunday qaynab-toshganman, desam ishona-vering. Zotan, quyun ham yo'lida uchragan jamiiki xas-xashaklar-u jirkanch latta-puttalarni uchirib, olis-olislarga uloqtiradi. O'n sakkiz yoshimda jazavaga tushishim nima bilan tugadi? Albatta, boshimga balo orttirdim. Ota-onamning ko'ziga tik qaray olmay, qolaversa, oldingiday hayot kechirish uchun sabr-toqatim yetmasdan erga tegdim. Dastlabki duch kelgan kimsaga. Sezib turibman: men jazavaga tushadigan soniya tobora yaqinlashardi, zero, cherkovda nikohdan

o‘tayotganimizda ruhoniyning savoliga yuragim orziqib „ha“ deya javob bergan lahzadan e’tiboran bulutlar quyuqlasha boshlagandi.

Mana, mening manglayimga bitilgan kuyov-to‘ra! Nihoyatda did bilan bezatilgan shohona xonadonimizga zamonaviy o‘rindiqlar-u divanlar oralab kirib kelayotir, ayanchli, ko‘rimsiz, dardi bedavo; tayini yo‘q idoraning yugurdagi yoki madonna oqlovchiday to‘q kulrang kostyum kiyib olgan; to‘rtko‘z, yaltirbosh, albatta, chekkalarini qirtishlamagan, navbatdagi uzoqdan uzoq qarindoshiga motam tutib, bilagiga qora tasma bog‘lab olgan; bo‘yinbog‘i ham qora, hatto dastro‘molini hoshiyasi ham qora.

Lapanglab odimlayotir – balki, oyoqlari qiyshiq bo‘lgani uchun ayiqday maymoqlanib yurayotgandir! Qo‘lida bir dasta gazetalarni g‘ijimlab olgan. Gazetalarga ko‘zim tushgani hamono jinim qo‘zidi. Yuragimda ko‘pdan buyon yig‘ilib qolgan zahrimni to‘kib solish fursati yetdi. Ilonday bor zahrimni sochdim.

– Yana la’nati gazetalarga yopishdingmi?! O‘qiyverib ko‘zlarining teshilib ketmadimi! Ularning soni bor, sanog‘i yo‘q. Rim gazetalari; Milan gazetalari, kamiga Xudo urgan mana shu shaharda chiqadigan gazetalar! Bu jirkanch gazeta sahifalaridan nimani axtarasan o‘zil! Ko‘ngling xotirjam bo‘lsin, gazetalarda sen haqingda ham, men haqimda ham hech qachon hech vaqo yozishmaydi! Men tekingga berishsa ham qo‘limga olmayman. Gazetalarni rosmana hayot kechirayotganlar, hayot qozonida chinakamiga qaynayotganlar o‘qiydi, sen bilan bizning turmushimizni esa hayot deb bo‘lmaydi.

Shu ham hayot bo'ldimi? Biz yashayotganimiz yo'q, shunchaki kun kechiryapmiz, xolos. Binobarin, bizlarga gazetalarning nima keragi bor?!

Xunukdan xunuk erim ro'paramda aftoda ahvolda turgancha kattadan katta ko'zoynagi osha menga tikiladi. E'tiroz bildirish uchun og'iz juftlaydi, men esa og'zini ochgani ham qo'ymayman.

– Umuman, hammasini oydinlashtirish fursati yetdi: jonimga tegib ketding, bunday turmushdan bezor bo'ldim, ortiq zarracha ham sabr-u toqatim qolmadi. Inkor etmayman, qiymati yarim milliard turadigan xonadonimiz bor, har birining vazni yuz kilogrammdan ortiq tosh bosadigan, narxi ham milliondan kam bo'lмаган jihozlarimiz ham bisyor! Biroq bu hashamatli xonadonda nima karomat ko'rsatyapmiz? Deyarli hech qanday. Faqat oilaviy turmush kechiryapmiz, xolos. Darvoqe, oila muqaddas, oila! Nihoyat, oila bilan bog'liq gaplarni ham aytishim shart! Oila desa joningni ham berasan, marhamat, biroq nima uchun meni ham shunday qilishga majburlaysan?! Yarim milliardlik mana shu xonadonda men sho'rpeshana faqat sening qavm-u qarindoshlarining xizmatini qilish bilan band ekanimni hech o'ylab ko'rganmisan? Meni kechirasan-u, lekin bor gapni aytishga majburman: yomon qovunning urug'i ko'p bo'lganday, qarindosh-urug'laringning son-sa-nog'i yo'q! Oila, oila emish. Ha, oilaning qadri ni men bilmayman, yetimxonada o'sganman! Aka-ukalar-u opa-singillar, kuyovlar-u qayinegachilar, amma-xolalar-u amaki-tog'alar, o'g'il-u qiz jiyan-u jiyanchalar shunchalar ham ko'p bo'ladimi axir! Ustiga ustak hamma-hammasini er-

ta-yu kech ovqatlantirish ham mening zimmamda! Bunday oilani yer yutsin, iloyim! Har kuni butun oqshom yalmog'izdan farq qilmaydigan qari onang-u alvastiday qariqiz singling bilan televizor ko'rishga mahkumman! Qaynanamning xizmatini qilganim kamday, qayinegachim bilan muzeylarda kartinalarni tomosha qilishim, biron narsa ham xarid qilmasdan do'konma-do'kon kun bo'yи sang'ishim kerak. Darvoqe, qimmatba-ho kiyim-kechaklar-u mo'ynalarning menga nima keragi bor, sening urug'-aymog'ing oldida o'zimni ko'z-ko'z qilishim uchunmi?

Erimga ham jin tegdimi? Qo'lidagi gazetalar tushib ketdi, cho'ntagini paypaslab, qo'li qaltiragancha sigareta cheka boshladi. Yaqinlaridan birontasi ham u bilan bunday ohangda gaplashmasligini yaxshi bilaman, lekin men quyushqondan chiqib bo'lgandim, shu bois oshkora ranjigani nainki jahlimni tiydi, balki yana ham alanga oldirdi:

— Ha, mening sha'niga tirnoqcha ham dog' tushmagan ajoyib oilam bor. Dindorlik bobida ham sizlarga hech kim bas kela olmaydi. Tangriga jon-jahdingiz bilan sig'inasiz; Tangrini ham, Iso Masihni ham, Bibi Maryamni ham, aziz-avliyolarning hamma-hamma-sini ham o'zlashtirib olgansiz. Muqaddas qadamjolar ziyoratini ham kanda qilmaysiz. Ertadan kechgacha tilovat qilib zerikmaysiz, shohona xonadon emas, ibodatxonaning o'zginasi! Bu g'ayrioddiy ibodatxonada yo'q narsaning o'zi yo'q: aziz-avliyolarning suratlari-yu haykalchalari ham, Lurdadan keltirilgan tasbehlar ham, Quddusi Sharifdagi muqaddas buloq

suvi bilan to'latilgan shisha idishlar ham istagan-chaga topiladi. Ruhoniyarlarning dastxatlari-yu duolari bitilgan fotosuratlarini aytmay qo'ya qolay. Men xudojo'y emasman, bildingmi, dahriyman, dahriy! O'z uyimda faqat ota-onamning hurmati uchungina cherkovga qatnardim, qolaversa, biz u yerga faqat yakshanba kunlari borardik. Bu yerdada esa uzzukun kallayi sahardan ibodat boshlanadi!

Erim sigaretani bosib-bosib tortadi-da, menga tikiladi, menga tikilgancha bosib-bosib sigareta tutatadi. Men uni bunday qiyofada hech ko'rma-gandim, vajohatidan biroz qo'rqa boshladim, bi-roq bulutlar quyuqlashib bo'lgan, momaqaldiroq hamon qarsillar, so'nggi chaqmoq esa hali yarqiramagandi:

– Benuqson oilaviy turmushimizda, bilasanmi, ayniqsa, nima jonimga teggan? Sizlarning xufiyona pichir-pichir qilishlar! Men italyan qiziman, ona tilim – italyan tili, biroq sizlarning gaplaringizni sira ham tushuna olmayman. Nimalar haqida shivir-shivir qilasizlar, o'lay agar bilmayman. Sar-moya sarflash haqidami? Italiya va Shveytsariya banklaridagi jamg'armalaringiz to'g'risidami? Ak-siyalar, obligatsiyalar, qimmatli qog'ozlar, quyma va tanga oltinlar haqidami yoki? Ishbilarmon ekaningni bilaman, ko'p daromad qilishing ham ehtimoldan xoli emas, biroq bular oldimda menga tushunarsiz tilda gaplashish uchun bahona bo'la olmaydi. Nimadan qo'rqsizlar? Chet ellardagi sarmoyalaringiz bilan bog'liq sirni fosh etishimdanmi? Yoki seyfning kalitini o'g'irlaydi, deb mendan xavfsiraysizmi? Bu sirli pichirlashlarning, men

tushunmaydigan shevada gapishtning nima keragi bor? Ha, men kambag' al oiladanman, biroq o'zimga yarasha oriyatim bor, sening sariq chaqangga zor emasman. Tupurdim hamma pulingga! Binobarin, mening oldimda istagancha italyan tilida suhbatlashib, qo'lga kiritilgan daromad-u foizlar haqida istagancha safsata sotaveringlar, sizlarning gaplaringizga parvo ham qilmayman, eshitmayman ham!

U xonaning adog'idagi stolga yaqinlashdi, endi cheka boshlagan sigaretasini kuldonga bosib o'chirdi, shoshilmay men tomon qaytdi va qo'llarini kamzulining cho'ntaklariga tiqqancha ro'paramda to'xtadi. Ayni pallada butun kuchimni to'plab oxirgi zARBANI berishga chog'landim:

– Nihoyat, betga aytganning zahri yo'q: sen mening didimdag'i odam emassan, boylik desa tomdan tashlaysan, urf-odatlarga yopishib olgansan, bundan tashqari, o'ta jiddiysan. Hatto odamga o'xshab kiyinishni ham bilmaysan. Seni ko'rghan odam motam mahkamasida ishlaydi, deb o'ylaydi! Nahotki ko'cha-ko'yda yoshlari qanday kiyinishinga e'tibor bermasang? Jinsilar, ohori ketmagan ko'ylaklar, bejirim shippaklar! Soqollari o'zlariga yarashadi, yelkalarida uzun sochlari to'lqinlanadi, qo'llarida hamisha gitara! Anqov opa-singillaring dan boshlab dumbul aka-ukalaringgacha butun urug'-aymog'ing ham, o'zing ham yumshoq supurgidan farq qilmaysiz. Gap kelganda otangni ham ayama deyishadi, nihoyat, hech kimga aymagan sirimni senga oshkor qilaman: bilasanmi menga qanday erkak yoqadi? Ha, ha, juda to'g'ri topding: aynan Alen Delonga o'xshagan erkaklar.

Ayniqsa, qaroqchi, o'g'ri, talonchi, xullas, jinoyat-chi rolini ijro etganda. O'shanday erkakni orzu qilaman: kelishgan, jasur, hech kimdan hech qachon qo'rqlmaydi, biron xavf tug'ilgani hamono – to'pponchasiga yopishadi; hayoti bamisoli afsona.

Oh, Alen Delon! Oqshomlarni qahvaxonalarda, shohona mehmonxonalarda aysh-ishrat bilan o't-kazadi, Parijdan Nyu-Yorkka, Nyu-Yorkdan Rio-de-Janeyroga, Riodan esa Parijga parvoz qiladi. Oilaga tish-tirnog'ing bilan yopishib olib, xudojo'ylig-u zerikarli xulqing bilan nimaga erishding: sening jufti haloling qaroqchining xotini bo'lishni orzu qilayotir.

Nihoyat, butun qahrimni sochib bo'ldim. Lekin nimagadir qo'rqa boshladim. Gap shundaki, erim ham tamomila boshqacha, teshib yuborguday, hatto vahshiyona tikilardi. U shoshilmasdan ya-qinlashib, cho'ntagidan bir qo'lini chiqarib, yuzimga shunday ketma-ket tarsaki tushirdiki, hatto oyog'ining ostiga olib tepkilaganda ham bunchalik alam qilmagan bolardi. Uning zarbalaridan keyin qanday yiqlilib tushmaganimga hayronman, men undan ko'z uzmay jon-jahdim bilan chinqirdim – nazarimda, uni birinchi marta ko'rib turganday edim, – dahlizga qarab otildim, keyin zinadan pastga uchib tushdim. Ko'chaga chiqqanimdan so'ng qadamimni sekinlatib uyimizga yaqin xiyo-bon tomon odimladim.

Maysazorda bolakaylar o'ynardi, uning atrofiga o'rindiqlar qo'yilgan. Bo'sh o'rindiqqa joylashib, fikrlarimni jamlashga urindim. Lekin hamon ikkala yuzim ham lovullar, hech o'zimni bosa olmasdim. Yonimda odamlar sayr qilib yu-

ribdi, ularning oldida ko'zyoshi qilish uyat. Kimdir o'rindiqda gazeta qoldirib ketibdi, uni qo'nga oldim-da, o'zimni zo'r berib o'qiyotganday tuta boshladim. Ko'z yoshlaram nigohimni to'sar, gazeta sahifasiga tomardi.

Keyin tuman asta-sekin tarqadi, nazarimda, o'zimga kelgandim. Kutilmaganda, gazetaning birinchi sahifasidagi tanish chehra e'tiborimni tortdi... Bu axir erim-ku! Men nazarga ilmagan shovozning xuddi o'zi!

Gazetani ochdim – unga ikki ustunni bag'ishlashibdi – sen bilan biz haqimizda gazetalarda hech qachon hech vaqo yozishmaydi, degan gapim beixtiyor yodimga tushdi.

Gazetani o'qir ekanman, sira ishongim kelmasdi. Maqolada zikr etilganlarning hech birini bilmasdim, bularning barchasini u mendan sir tutgan ekan. Maqolada o'g'irliliklar, qotilliklar, jinoiy fitnalar, giyohvand moddalar-u fohishabozlik haqidagi yozilgandi. Ha, ha, fohishabozlik ham tilga olingandi. Erimning qandaydir jurnalist bilan suhbati ham bosilgandi. Erim barcha ayblovlarni, albatta, rad etgandi. Gapining oxirida esa men tanish ohangda shunday degandi: „Gaplarimni hazilga yo'y mang. Men hech vaqoni bilmayman. Kamina risoladagidek oilaparvar odamman“.

Bugun ertalab bir to'da gazetani g'ijimlab olgancha nima uchun shu darajada xafa-yu chorasiz ahvolda bo'lganini endi tushundim. Uni hayotida birinchi marta gazetada urib chiqishgan, butun el-u yurt, qolaversa, mening qarshimda barcha qilmishlari fosh bo'lganidan alamzada edi. Men laqma esa qaroqchi erkaklarni yaxshi

ko'raman, deb yuziga aytib o'tiribman. Holbuki, niyatimga yetgan ekanman-ku.

Momaqaldiroq ham gumburladi, ketidan chaqmoq ham yarqiradi. Biroq bu chaqmoq aynan o'zimni kunpayakun qildi!

Keling, hammasini oydinlashtirib olaylik. Men risoladagidek odamga turmushga chiqqandim, uni qo'y og'zidan cho'p olmagan, musichaday beozor deb o'ylasam, jinoyatchi bo'lib chiqdi. Nima qilishim kerak edi? Jinoyatchiga turmushga chiqib, aslida, jinoyatchi emas, go'dakday ma'sum ekaniga iqror bo'lishim kerakmidi? Yoki keyinchalik afsus qilmaslik uchun tamomila boshqacha yo'l tanlashim kerakmidi?

Afsuski, xato qildim, biroq aynan qanday xatoga yo'l qo'yganimni bilolmay xunobman!

Dildora ARZIKULOVA tarjimasi

BIR MUHABBAT TARIXI

Badqovoq bulutlar qoplagan qop-qorong'i aprel tunida shaharga yetib keldim. Shaharning nafis, biroq musiqaday sobit kumushtan ko'lankasi harir tuman pardasi ichra samoga bo'y cho'zgandi. Cherkovning qubbalari bulutlar og'ushida tebranardi. Shahar hokimligi binosidagi sarg'ish nurlanayotgan soat go'yo ipga ilib qo'yilganday havoda suzardi. Vokzalni tutib ketgan yasmin va barra maysalarning hidi odamni mast qilardi.

Vokzalning oldida shahardagi yagona – loqayd va chang bosgan fayton turardi. Chamasi, shahar mo'jazgina edi. Faqat cherkov, shahar hokimligi, favvora, burgomistr va aravakashdan iborat.

Faytonga joylashib olganimdan keyin hayal o'tmay turli jomadonlari-yu qutichalarni ko'tarib olgan yo'lovchilarni quvib o'ta boshladim. Ularning gap-so'zлari qulog'imga chalinar, g'aribona turmuishi, alamli qismati, zerikarli turmushlari-yu g'us-salari va tashvishlarining qashshoqligini tobora ravshan his etardim.

Yo'l bo'ylab tasodify odamlar duch kelardi. Sodda va laqma bu kimsalarning nima bilan shug'ullanayotganiga guvoh bolardim. Bir ayol tog'orada bolasini cho'miltirardi. Tog'oraning yaltiroq jez tutqichi e'tiborimni tortdi. Bolakay yig'lar-

di. Bir erkak karavotda kerilib o'tirar, bir o'smir esa uning etigini tortardi. Zo'riqidan bolaning yuzi bo'g'riqib ketgan, etik esa loyga botgandi. Bir kampir uyini supurardi. Mening itday talaydigan buvim ham har doim kechasi uyni supurardi. Mushtdayligimdan buviming ham, supurgisini ham ko'rgani ko'zim yo'q edi, qasdma-qasdiga qog'oz parchalari, sigareta qoldiqlari, xullas, har qanday chiqindilarni xush ko'rardim. Nimaki qo'-limga tushsa, buvim va supurgidan berkitishga urinib, cho'ntaklarimga joylardim. Poxol parchalar, ayniqsa, jon-u dilim edi – ko'zimga olovday ko'rinardi.

Yarim tunga yaqinlashib qolganiga qaramay, yo'l-yo'lakay talay odamlarga duch keldim. Bu yerda shunchalik kech yotisharmikan? Yoki avji bahor pallasida butun tabiat uyqudan uyg'onayotgani odamlarni bezovta qilayotganmikan? Kichik shaharchalarda kechasi ko'chada tasodify odamlar bo'lmaydi. Faqat oshig'-u ma'shuqlar yoki fo'hishalar, yoki telbalar, yoki shoirtabiat kimsalar tentiraydi. Tasodify noshudlar-u loqaydlar shom tushmasdan pinakka ketadi.

Bozor maydonining qoq o'rtasida shaharga asos solgan ruhoni y haykali qad rostlagan, shu qadar jiddiy va xo'mraygan qiyofadaki, baayni nozir yoki mirshab deysiz. Nazarimda, odamlar uning haykaliga parvo ham qilishmasdi. Yonidan ko'z qirini ham tashlamay o'tishar, hatto uning guvohligida gunoh ishlardan ham tap tortishmasdi.

Sho'rlik ruhoniya ichim achidi, shaharga asos solaman deb hazilakam ter to'kmagan axir. Noshukr, dunyodan alamzada odamday istehzo

bilan boqardi. O'sha tunning o'zidayoq tarixiy kitoblardan unga oid ma'lumotlar olishni ko'nglimga tugib qo'ydim. Lekin bunga qo'llim tegmadi. Zotan, chog'roq bu shaharcha odamlari o'ziga xos tarix og'ushida yashardi. Qolaversa, atrofda baho fasli hukmron, bunday pallada allaqanday ruhoniylar-u shahar asoschilari kimning ham xayoliga kelardi.

Ertasigayoq bir necha qiziqarli voqealardan xabar topdim.

Pochtalyon tug'ma cho'loq emas, faqat bir necha kundan buyon oqsayapti ekan. U kamdan kam ichar, yilda ikki marta: tug'ilgan kuni – o'n beshinchchi aprelda hamda yirik shaharlardan birida o'zini osib qo'ygan o'g'li o'lgan kundagina ichkilikka zo'r berarkan. Shu darajada icharkanki, uch kungacha yo'l chetidagi panjaralarni ushlagancha arang odimlarkan. U ichkilikka zo'r bergen uch kun mobaynida shahar ahlidan hech kim na xat, na xabar olarkan.

Bir hafta muqaddam, o'n beshinchchi aprelda molday ichib olgan pochtalyon yiqilib tushib oyog'i lat yebdi. O'shandan buyon oqsayotganmish.

Bu shaharchadagi yolg'iz hodisa emas.

Men qo'nim topgan mehmonxonada naftalin, mushk va eski supurgilar hidi anqirdi. Pastak gumbazsimon shiftli katta oshxonada peshtaxta bo'lardi. Istarasi issiq Anna deraza raxiga suyangancha xo'randalarning pivo grafinlaridan sira ko'zini uzmasdi. Grafinlarda hamisha pivo bo'lardi. Odamlar bu yerda juda ko'p pivo ichar, Anna nimagadir chalg'ib e'tibor bermasa, qopqog'ini grafininga urib, uni hushyorlikka chaqirardi.

Anna o'shanda yigirma yetti yoshda edi. U malasoch juvon bo'lib, nur yog'ilib turgan chehrasi olmaday tarang, bir tutam zarg'aldoq kokili peshonasiga tushib turar, miriqib cho'milib, hozirgina hammomdan chiqqanga o'xshardi.

Chiroyli, baquvvat qo'llari tortinchoq edi. Nazarimda, uning qo'li har doim nimadandir iymangan-day tuyulardi.

Anna asli Bogemindan bo'lib, bir muhandisni sevardi. Muhandis esa Annaning otasi ishlaydig'an fabrikada boshqaruvchi edi. Anna muhandisdan bolali bo'lgandi. Muhandis esa boshqasiga uylanib, Annaga bolani parvarishlash va yo'lkira uchun pul bergen. U shu asno shaharda ofisiantka bo'lib ishlay boshlagan.

Men ba'zida Anna yashaydigan xonada bo'lganimda o'g'ilchasining suratiga ko'zim tushardi. Farishtaday bola. Do'mboq qo'lchasi bilan havoni paypaslar, katta-katta ko'zlari bilan olamga tashna boqardi.

Anna kamgap bo'lgani uchun qismatini qisqa-cha so'zlab bergen.

Annani yo'ldan urgan muhandisday kimsalarni ko'rgani ko'zim yo'q, bu juvonga ishqim tushib qoldi.

– Siz uni haliyam sevasizmi? – so'radim Annadan.

– Ha! – javob berdi u. U bu so'zni go'yo amaliy ma'lumotnomaga berayotganday rasmiy va qat'iy aytdi.

Shaharda kinoteatr ham bor edi. U gazlamarlar savdosi bilan shug'ullanadigan savdogarga tegishli edi. Juda ham serg'ayrat va tadbirkor bu

odam yakshanba kunlari o'zini qo'ygani joy to-polmasdi. Endilikda begin kunlari savdo bilan shug'ullansa, yakshanba kunlari kino qo'yardi.

Anna bilan kinoga bordik.

Annaning mehridaryo ekanini ba'zan sezib qol-lardim. Men mehr-u muhabbat ko'zi yumilib qol-gan buloqday ayollarni yaxshi ko'raman: ularning mehri ham ana shunday buloq singari ohista, sezilarsiz, biroq muttasil yuqoriga siza boradi – biroq yuzaga chiqa olmasdan – yana ortga qay-tadi, teranlikka singa-singa batamom barham topadi. Men Annani sevardim. U o'z mehri bilan meni rom qilgandi. Biroq u oldinda o'zini judolik kutib turganini bilmasdi.

Shahar ahlining mehri bilan munavvar xiyo-bon haqida hali to'xtalmadim. Oltin bahor yom-g'iri kashtanlar-u jo'kalarning yaproqlaridagi bor g'uborlarni yuvardi. O'rindiqlar gulzorlardan narida, shundoq maysazor ustiga o'rnatilgandi. O'ylashimcha, ruhoniy o'z qo'llari bilan o'rnatgan bu o'rindiqlar endilikda kashtanlar-u jo'kalar bilan birga o'sardi.

Yakshanba kuni Anna bilan kinodan chiqib xi-yobonga bordik.

Bir-biridan bo'sa olayotgan sevishganlarga ko'-zimiz tushdi va Anna beixtiyor kulib yubordi.

– Yaxshi emas, Anna, – tanbeh berdim men, – muhabbatni masxaralab bo'lmaydi.

Anna darhol o'zini o'nglab oldi.

Mehmonxonaga qaytganimizda xo'jayin Annani axtarayotgan ekan – yangi mijoz kelibdi. Qanday-dir korxonanining vakili – kommivoyajer. Uning yashil va qizil suratlar yopishtirilgan yap-yangi

charm jomadoni bor edi. Sochlari to'sday qop-qora, ko'zları yulduzday chaqnaydi. Mandolinani qo'yillatib chalar, albatta, qizlarning boshini aylan-tirardi. Uning jomadoniga nazar solish imkonim bo'limganida, qizlar hadya qilgan bir dasta dast-ro'molchalar-u ishqiy xatlarni ko'rgan bo'lardim.

Tunda oxirgi sham yonib tugadi. Yo'lakka chi-qib, Annaning xonasiga kirdim. Anna egnida ko'ylak bilan karavotda yig'lab o'tirardi. Daf'atan kirib borganimdan cho'chimadi ham, e'tibor ham bergani yo'q – hamon ko'zyoshi qilardi.

Birpasdan keyin o'pkasini bosib, dedi:

– Quyib qo'yganday o'xshaydi-ya!

Yangi mijoz Annaning muhandisiga o'xsharkan.

– Sho'rim qursin! – diydiyo qildi Anna.

Shu-shu bir-birimizni sevib qoldik va buni ya-shirmsasdik. Anna mehridaryo bo'lishi barobarida tuzukkina rashk ham qilardi. Lekin men begona ayollarga qayrilib ham qaramasdim. Bu shaharning qiz-juvonlarini yoqtirmasdim. Faqat ko'klamning oltin oqshom paytlari daladan qayti-shayotganda birrov nazar tashlab qo'yardim. Ayollar olamni yangilash uchun yaratilgan axir. Ular balog'atga yetadi, kimgadir mehr qo'yadi, farzand ko'radi. Avji bahorda qiz-juvonlar qalbida onalik mehri to'lib-toshadi va bu butun yilga tatiydi.

Men har kuni barvaqt turardim. Bu paytda Anna ham, xo'jayin-u yangi mijoz ham hali uxlayotgan bo'lardi. Ostonada hamon tozalanmagan moyabzallar beixtiyor o'tgan kunni yodga solardi.

Dastlabki chorrahada Keyt o'z darchasini ochib, quyiga, shaharga nazar tashlaydi. Men Keyt bilan har doim salomlashaman, lekin u bi-

lan biron marta ham gapplashmaganman. Nima-ni ham gaplashardik? U derazadan termilib tur-gani hamda ertalab olam o'ziga xos va beg'ubor bo'lgani uchun salomlashardim. Zotan, olam ya-ralgan dastlabki pallalarda beg'ubor bo'lgan, atigi yigirma chog'li odam yashagan va barchasi bir-biri bilan tug'ishganlarday ahil kun kechirgan. Peshinga yaqin ortga qaytardim, bu paytga ke-lib olam ming yoshga keksayib qolganday tuyu-lar, shu bois hech kim bilan salomlashmasdim. Bunday olag'ovur dunyoda umrida bir og'iz ham gapplashmagan odam bilan faqat savdoyi kimsa salomlashadi.

Xiyobonda yirik tarvuzday sug'orish bochka-si yumalab yurar, maysazorlar va gulzorlarni su-g'orardi. O'rindiqlar atrofidagi maysalar ezilgan, kechasi kimlar uchundir ishrat to'shami bo'lgani sezilib turardi. Ro'paramdan vokzal navbatchisi kelardi.

Bu temir yo'l xizmatchisini yomon ko'rardim. Uning yuzini tamomila sepkil bosib ketgan, ter-rakday uzun bo'lib, tarashadek qotib qolgandi. Unga ko'zim tushgani hamono Temir yo'llar vazir-ligiga maktub yo'llash fikri tug'ildi. Agar u yerga maktub yozsam, men nafratlanadigan bu man-sabdordan ikki kichik stansiya oralig'ida telegraf ustuni sifatida foydalanishni taklif qilgan bo'-lardim.

Bu Temiryo'Ichini nima uchun yomon ko'ri-shimni bilmayman. Uning bo'yisi favqulodda uzun edi, lekin hamma favqulodda narsalarga ham yomon ko'z bilan qaraydiganlar xilidan emasman. Nazarimda, uning bo'yisi qasddan o'sib ketgan-u,

ayni shu narsa mening g'ashimga tegardi. Qolaversa uning yana ham daroz bo'lish-u sepkillarni bittalab terishdan bo'lak tashvishi yo'qday edi. Boz ustiga sochi ham zarpechakday qizg'ish edi.

U egnidan xizmat kiyimini yechmas, boshidan esa qizil shapka tushmasdi. Uzun oyoqlari bilan bemalol tez yurishi mumkin bo'lsa ham shoshilmasdan, ehtiyotkorlik bilan odimlardi. Ohista qadam tashlaganiga qaramay, bo'yи tobora o'sib borayotganday tuyulardi.

Bu Temiryo'lchini hozir ham yaxshi bilmayman. Lekin imonim komilki, g'arazli niyatları istagancha topiladi. G'animi ketib borayotgan poyezd-ni halokatga uchratib, hamma aybni strelkachiga to'nkashdan ham toymaydi. Bunday kimsalar bor ekan, poyezdda yurish xatarli.

Temiryo'lchiga o'xshagan tasqara yaxshi ko'rgan ayolining hurmati uchun ham boshidagi qizil shapkasini yechmaydi.

Uni Anna ham yoqtirmasdi. Nima uchun undan nafratlanishimni so'ragan.

Annaga qanday javob berishni bilmasdan, do'stim Avel va u ko'ngil qo'ygan ayol haqida gapirib berdim.

Do'stim Avel Nyu-Yorkka borishni orzu qildi. Avel karikaturachi rassom edi. U yurishni o'r-ganmasdan oldin karikatura chiza boshlagan. Go'zallikning qadriga yetmas, aksincha, bema'ni manzaralarga mahliyo edi. Rostini aytsam, umrida biron to'g'ri chiziq tortmagan.

Avel xotinlarni yoqtirmasdi. Erkaklar ayollar timsolidagi barkamollikka shaydo bo'ladi. Avel esa komillikni rad etardi.

Uning o'zi ham yo'nilmagan tayoqday dag'al bo'lib, ayollar ayni shu bois uni sevardi. Xotinlar erkaklarning dag'al va qo'polligi ortida komillik yoki ulug'vorlik yashiringan bo'ladi, deb o'ylaydi.

Avel kunlarning birida Nyu-Yorkka yo'l oladi. Kemada umrida birinchi marta go'zal ayolni uch-ratadi.

Manzilga yetib borishlari bilan o'sha farishta ko'zdan g'oyib bo'ladi. Bu Avelga shunchalik alam qiladiki, navbatdagi kema bilan Yevropaga qaytadi.

Anna esa do'stim Avel boshidan kechirganlar-ning Temiryo'lchiga nima aloqasi borligini bila olmay garang edi.

— Nima uchun Avel haqida gapirib berding? — so'radi u.

— Anna, — dedim men. — Dunyodagi hamma voqealar bir-biriga bog'liq. Ular mohiyatan yoki bir-biriga o'xshash, yoki qarama-qarshi bo'ladi. Temiryo'lchi bilan do'stim Avelning farqi bor. Juda katta farqi bor. Do'stim Avel halokatga yuz tutadi, vokzal navbatchisi esa nainki sassiq alafday o'saveradi, hatto stansiya boshlig'i ham bo'ladi. Do'stim Avelning orzusi bor. Vokzal navbatchisi ning esa stansiya boshlig'i bo'lishdan bo'lak hech qanday orzu-umidi yo'q, bo'lmaydi ham. Avel ilk bora mehri tushgan ayolni qo'ldan chiqargach, bir umr talpingan Nyu-Yorkdan ham voz kechdi. Temiryo'lchi esa bir ayol sababli Nyu-Yorkni hech qachon tashlab ketmaydi.

Men Anna hammasini tushundi, deb o'yladim. U esa meni bag'riga bosib, erkalandi:

— Sen ayni men tufayli Nyu-Yorkning bahridan kecharmiding?

O'sha kecha Annaga bor mehrimni baxshida etdim, chunki uni deya Nyu-Yorkdan bosh olib ketmagan bo'lardim. Bunga iqror bo'lishdan cho'chidim, shu bois uni qayta-qayta qattiq bag'rimga bosdim. Men qo'rqoqlarcha ish tutganim holda o'zimni mardonavor ko'rsatishga urindim. Anna esa ko'nglimdagini sezib qolib, yig'i-sig'i qila boshladi. Uni bolasi bilan rad etgan muhandidsan qanday farqim qoldi, degan fikrdan xijolat tortdim.

Ertalab, odatdagidek, barvaqt chiqib ketdim – Anna uxbab yotardi. U chiqib ketganimni payqab, ko'zini ochmasdan mening o'rnimni paypaslagan bo'lsa ajab emas.

Yomg'irdan qochib qahvaxonaga kirdim.

Qahvaxona devorida katta taqvim ilig'lik turardi. Har kuni ertalab yetti yarimda oppoq bakenbardli Pochtmeyster kelardi. Pochtmeyster zobilarday adil qaddini raso tutar, shimi juda uzun, poyabzalining – balki, shiminining baloqlari hilplamasligi uchun – temir tepkisi bo'lardi.

Pochtmeysterning ko'zlarini dengiz kabi moviy edi – juda ham moviy mehr to'la ko'zlar. Nazarimda, ko'zoynak ustalari yasab berganday tuyulardi. Bakenbardlari esa qor kabi beg'ubor edi. Ehtimol, har kuni ertalab yoki uyquga yotishdan oldin bakenbardlariga upa separdi.

Har kuni ertalab Pochtmeyster qahvaxonadagi taqvimning yangi varag'ini ochardi. Qahvaxona egasi Ignatsga qolsa, taqvimda hamon birinchi yanvar varag'i ilinib turaverган bo'lardi. Lekin Pochtmeyster har bir sananing o'z raqami va nomi bo'lishi uchun qayg'urardi.

Pochtmeyster ko'zimga otamday issiq ko'rinardi. Muhabbat gulshani bo'lgan xiyobon shahar markazida emas, bir chetda joylashgandi. Xiyobondan keyin yaylovlar boshlanardi.

Xiyobonga kiraverishda qahvaxona bo'lib, men shu yerda nonushta qilardim.

Ro'parada pochta joylashgandi. Bu, shahardagi yagona ikki qavatli bino edi. Ikkinci qavatda janob Pochtmeyster istiqomat qilardi.

Ikkinci qavatdagи bitta deraza hamisha ochiq turardi. Bu Pochtmeysterning xonasi bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Ko'zлari hamisha moviy bo'lishi uchun zangori osmonga uzoq vaqt tikilishi kerak, axir. Qolaversa, Pochtmeysterning farzandlari bo'lmasa kerak, oppoq sochini ixlos bilan turmaklab olgan keksa xotini bo'lsa kerag-u, ular ikkalasi, ehtimol, kechki paytlar dardlashar, deb taxmin ham qilardim.

Men qahvaxonada shunday joylashardimki, ro'paradagi uyning ochiq derazasi har doim ko'rinib turardi. Men derazada Pochtmeyster paydo bo'lishini poylardim. Lekin u kamdan kam ko'rinish berardi.

Bir safar derazada farishtaday go'zal qizni ko'rib qoldim. U osmonni kuzatardi.

Qizning go'zalligi yuragimga g'alayon soldi. Kiprik qoqmay tikilib turganimni, nihoyat, payqab men tomonga qaradi. Xijolatga botib salomlashdim. Salomimga alik olganday shirin imo qildi. Shu-shu uzzukun derazada paydo bo'ladigan bo'ldi.

Men o'z kechinmalarimni yovvoyi uzumday duch kelgan joyga o'tqazaman-da, shiddat bilan g'ovlab o'sishini kuzata boshlayman. Men kabi

qahvaxona eshigi oldida borib-kela boshladim. Bo'zchining mokisiday u yoqdan bu yoqqa qatnayverib kulgili holatda qoldim. Paltomning yoqasini ko'tarib, salmoqlab odimlardim. Paltom birpasda shalabbo bo'lib ketdi. Pochta va restoran yo'lagida odamlar yomg'ir tinishini kutardi.

Odamlar ustidan kulardi. Ularga qaraganimda xijolatga tushib yuzlarini o'girishdi; nazarimda, meni telba deb o'ylashdi.

Aslida ham bu qizning ishqini bilan bir hafta savdoysi bo'lib yurdim. O'sha qiz haqida Annaga gapirib berdim, Anna esa mayna qilib ustidan kula boshladni.

– Nega kulasan? – so'radim men. – Uni sevib qoldim.

– Yaxshi ko'rsang, nega o'ziga aytmaysan?

– Aytaman ham!

– Aytmaganing ma'qul! – o'tindi Anna. – Balki, rostdan ham uni sevib qolgandirsan.

Hech qachon yodimdan chiqmaydi, bir gal derazada qizning yonida Pochtmeyster ham ko'rinish berdi. Men salomlashdim, Pochtmeyster ham eski qadrdonim kabi salomlashdi.

– Qiz uning jiyani ekan, – dedi Anna.

Pochtmeyster bilan gaplashib olishga ahd qildim.

Lekin ikki hafta o'tsa ham unga ro'para bo'lishga jur'atim yetmadi. Men unga aytadigan gaplarimni ham pishitib qo'ygandim: „Muhtaram janob Pochtmeyster! Sizning ko'zlariningiz ham, temir tepkilaringiz ham, hatto uzun shimingiz ham menga yoqadi. Lekin jiyaningizni sevaman. Manglayimga bitilgan farishta ayni sizning jiyaningiz ekaniga

imonim komil. Do'stim Avel kabi men ham o'z sevganimni qo'ldan chiqarishni istamayman". Shunday deb do'stim Avel boshdan kechirganlarni gapirib beraman.

Pochtmeyster tabassumdan yuzi yorishgancha o'rnidan qo'zg'aladi va uning temir tepkilari tajribasiz o'quvchining qo'lidagi kumush cholg'u asbobiday jiringlab ketadi.

Uning jiyani esa mening muhabbatimni rad etmaydi va Anna kabi bema'ni savollar bilan bo'shimni qotirmaydi.

U juda ham ajoyib. Ko'nglini eritadigan so'zlarни, albatta, topaman.

O'zimga pul jo'natish uchun qo'shni shaharga otlandim. Ism-sharifimni ataylab xato yozdim. Qaytib kelib kuta boshladim.

Pochtachi hayajonlangancha meni yo'qlab kiriб keldi, chunki ikki yildan buyon pochta orqali hech kim pul olmagan ekan.

Pulni qo'shqo'llab tutqazmoqchi bo'ldi, lekin men uni shashtidan tushirdim:

– Ism-sharifim noto'g'ri yozilibdi.

– Hechqisi yo'q, – dedi pochtachi.

– Har holda tekshirgan ma'qul, – dedim men ikkilanganday. – Pochtmeyster bilan maslahatlashib ko'ring, shu ahvolda ham pulni olaversam bo'larmikan?

Shundan keyin janob Pochtmeysterning huzurida o'n yoki o'n besh daqiqa qolib ketdim. Lekin faqat nomimga kelgan pul haqida gaplashdik. U pul aynan menga kelganiga sira ham shubha qilmasligini aytdi. Bu shaharchada bunday ism-sharifli boshqa odam yo'q, dedi.

– Shahrimiz haqiqatan ham mo'jaz qo'rg'on-chaday, – dedi Pochtmeyster menga iltifot ko'rsat-ganday. Nazarimda, ko'nglimni ovlash uchun: „Bu yerda ism-sharifi siznikiday chiroyli boshqa odam yo'q“, deganday bo'ldi.

Uning temir tepkilari kumush cholg'u kabi ohista jiringladi, hammasi aynan men taxmin qil-ganday bo'ldi. Faqat derazadagi qiz haqida gap ochilmadi.

Ko'chaga chiqibоq derazaga nazar tashladim. Derazadan Pochtmeyster qarab turardi. Unga yana bir bor imo qildim, u ham xayrixohlik bilan javob berdi. O'ylashimcha, bu ortga qaytib, qiz haqida gaplashib olish uchun juda qulay fursat edi. Biroq men qulay imkoniyatlardan hech qachon foydalana olmaganman.

Hayotda hammasi – so'zlar ham, voqealar ham eskiradi. Qancha qulay imkoniyatlar bo'lmasdi deysiz. Zarur barcha so'zlar ham aytildi. So'zlar ning takrorlanishiga ham, voqea qaytalanishiga ham sira tob-u toqatim yo'q. Shunday kezlarda allaqachon urfdan qolgan kamzulni kiyganday o'zimni noqulay sezaveraman.

O'sha kuni kechqurun qiz d'erasada ko'rinnadi. Shaharni tark etishga ahd qildim.

Mehmonxonaga qaytib, narsalarimni jomadonga joyladim. Anna kirib so'radi:

– Necha kunga ketyapsan?

Butunlay ketayotganimni u xayoliga ham kel-tirgani yo'q.

– Ikki kunga, – dedim men va yolg'on gapirganim uchun biron tukim qilt ham etmadi. Annaga yolg'on gapirganimning nima ahamiyati bor? De-

razadagi qiz g'oyib bo'ldi, men esa qulay fursatni boy berdim.

– Pochtmeyster bilan gaplashdingmi? – so'radi Anna.

– Gaplashganimdan nima foyda, – dedim hasratimdan chang chiqib. – Anavi qiz ortiq qorasini ham ko'rsatmayapti.

– U, chamasi, betob! – dedi Anna.

– Betob? Nega bunday deyapsan?

– Chunki rostakamiga xasta! Bilmasmideng? U kasal! Sil kasaliga chalingani kamday shol bo'lib qolgan. Shu bois ko'chaga chiqmaydi. Yaqinda o'ladi!

Hamma gapni bir yo'la aytgani uchun nafasi tigilib qoldi. Biroq har bir kalima yuragimga ketma-ket zarba bo'ldi. Hijjalab aytilganday har bir bo'g'in go'yo nashtar kabi bag'rimni tildi.

Annaga qaradim. U sochlari silliq turmaklangan, rang-ro'yi hozirgina hammomdan chiqqanday ko'pchigan holda ro'paramda turardi. „Anna o'lmaydi!“ – degan fikr ko'nglimdan kechdi.

Derazadagi qiz o'ladi! O'ladi! O'ladi!

U bilan hech qachon gaplasha olmayman. Ayni shu bois imkoniyatni boy berdim. Landavur bo'lganim uchun emas, qiz betob bo'lgani uchun imkoniyatni qo'ldan chiqardim.

– Anna, – dedim. – Butunlay ketyapman.

– O'sha qiz betob bo'lgani uchunmi? – so'radi Anna.

– Ha!

– Biroq men sog'lomman-ku! – dedi Anna.

Menga g'olibona nigoh tashladi. Rangi o'chib ketgan, sovuqdan sovuq edi.

– Seni vokzalga kuzatib qo'yaman! – dedi Anna.

Birga vokzalga yo'l oldik.

Poyezd keldi, men chiptalar sotiladigan darcha tomon yo'naldim.

Anna titragancha qo'limga yopishdi. Beixtiyor to'xtadim.

– Ketma! – yolvordi Anna.

Qiyofasida g'olibona kayfiyatdan asar ham qolmagandi. Vahimaga tushgan baxtsiz jonivorga, biyday dalada dildiragan sho'rlik olmaxonga o'xshardi.

Temiryo'ichi yaqin kelib dedi: „Muhtaram janob! Xayrli kech! Siz ham hozir keldingizmi? Yoki jo'nab ketyapsizmi?“

– Yo'q! – keskin javob berdim men. – Hozirgina keldim! Va Anna bilan birga shaharga qaytdim.

Kechasi u xlabel olmay betob qizni o'ylab chiqdim. Yaqinda o'lishidan xabar topgandan keyin uning fikr-u zikriga hukmron bo'lib olganimga shubha qilmasdim. Men xayolan uni mahkam tutib turardim, hatto qo'ltiqlab olardim. U qalbim malikasiga aylangandi.

Ko'pdan buyon kasal ekanini qayoqdan ham bilardim. Bundan kuni kecha xabar topdim. U o'ladi, degan fikr ko'nglimdan kechardi, ko'p o'tmasdan o'ladi. Men eng qimmatli narsasidan bugun bo'lmasa ertaga judo bo'ladigan odamga o'xshardim.

Ertasiga ertalabdan pochta derazasi ostida odimlay boshladim. Pochtmeyster har soatda de raza oldiga kelar, menga ko'zi tushib ajablanardi. Peshinda u uydan chiqdi, men u bilan salomlashdim, u ham ajablangancha salomlashdi. Ke-

yin soat uchda qaytib keldi, men esa hamon derazaning tagida borib kelardim.

Oqshom payti oyna oldidagi o'z joyimni egaladim. Ro'paradagi bino derazasi ochilib, nihoyat, o'sha qiz paydo bo'ldi.

Yanglishmasam, uning o'zi birinchi bo'lib salomlashdi. Bugun meni ko'raman deb o'ylamagan ko'rindi, chunki kecha u betob bo'lgan. Men unga uzoq vaqt intiqlik bilan termildim, dilimda to'lib-toshgan barcha dardlarimni nigohlarim bilan izhor etdim.

Basharti, uch kun to'xtovsiz gapirganimda ham bunchalik ko'p gaplarni ayta olmagan bo'lardim.

Men o'zimni ahmoqday his qildim, ustiga ustak yosh boladay hayajonlanardim. Nazarimda, ko'ngil izhorimni u uqib oldi. Qorong'i tushgach, derazani berkitdi; xona ichi chiroq nurlaridan yorishdi, parda tortildi. Yorqin parda ortidan daroz bir odamning siyog'i ko'zga tashlandi. (Bu Pochtmeyster emasdi, chunki uning bakenbardi yo'q edi. Bu odamning umuman soqoli ko'zga chalimasdi. Balki, uning ukasidir.)

Xiyobonda uzoq sayr qildim. Sochlarini yelkasi uzra shaloladay yoyib olgan ayollar menga peshvoz chiqardi. Ular yo'laklar bo'ylab hafsalasizlik bilan sanqib yurishardi.

Ular sog'lom, o'yladim men. Ular o'lmaydi.

Anna o'zining xonasida ekan. U karavotda yig'lab o'tirardi. Uning qo'llari shalvirab tushgan, holbuki yig'layotgan odam yuzini qo'llari bilan to'sib oladi. Uning yig'isi ezib yog'ayotgan yomg'irni eslatardi, qizig'i, yurakdan yig'lamasdi, aksincha, uning qayg'uli holatida allaqanday begona

bir jihat bor ediki, bu hasratni yashirib ham, ovutib ham bo'lmasdi.

O'sha kechani Anna bilan birga go'yo birinchi visol oqshomiday o'tkazdim. Odam yangi sotib olgan narsasini, odatda, mana shunday avaylaydi, unga bor mehrini baxshida etadi.

Ertasiga mazkur shaharda qismatimga bitilgan so'nggi voqeani boshdan kechirdim.

Ertalabdan qahvaxonada kommivoyajer shirinlik yeb o'tirardi. Juda nazokatli bo'lgani uchun shirinlikni pichog'-u qoshiq bilan shoshilmay tanoval qilardi. Keyin o'rnidan qo'zg'alib, taqvim oldiga keldi va bugun yangi sanani bunyodga keltirayotgan qudratli Parvardigorday qat'iy va mag'rurona kechagi kun varag'ini yirtib oldi.

Men Pochtmeystering kelishini hayajon bilan kutardim.

Pochtmeyster o'nlab yillar mobaynida o'tgan kun varag'ini yirtib, yangi kunni boshlab berardi. U bu ishni Tangri kabi emas, balki uning mo'min bandasiday ehtiyotkorona va itoatkorona ado etardi. Bugun u taqvimga ajablanib tikiladi, kunlar-u sanalarda yanglishib, olamni anglay olmay qoladi.

Shu bois yirtib olingan varaqni qo'llimga olib tekisladim va yana taqvimga qistirib qo'ydim.

Kommivoyajer menga yuzlandi:

– Meni afv etasiz, biroq bugun yigirma sakkizinch may!

U sanani shu qadar qichqirib aytdiki, qo'rqib ketdim. Albatta, bu hammaga ayon edi, biroq men kommivoyajer allaqanday sir-u asrorni surbetlik va qo'pollik bilan fosh qilganday seskanib ketdim.

Yigirma sakkizinch may!

Ayni shu pallada minoradagi soat yetti yarimga zang urdi, va Pochtmeyster temir tepkilari ohista jiringlagancha kirib keldi. Janob Pochtmeyster tantanavor ravishda taqvim oldiga bordi va yangi kunni ochdi. Faqat shu lahzadan yigirma sakkizinch may boshlandi!

Yigirma sakkizinch may mening hayotimdag muhim sanalardan biri bo'ldi. Gap shundaki, men jo'nab ketishga ahd qildim.

Bu shaharda qolib nima ham qilardim? Derazada ko'rinish beradigan qizning sanoqli kunlari qolgan. Annaga achinardim, ko'ziga tik qarashga ham yuragim dov bermasdi, biroq uning ko'nglini ovlash ham qo'lidan kelmasdi. Pochtachini ham, Pochtmeyster etiklarining temir tepkisining kumushday jiringlashini ham allaqachon yaxshi bilib olgandim. Keyt har kuni ertalab derazasini odatdagiday ochaveradi, uning yonidan o'tib, salomlashmasam osmon uzilib yerga tushmaydi. Buning ustiga yigirma sakkizinch may kelgandi. Yigirma sakkizinch may! Bunday sanada odam qiladigan ishini juda yaxshi bilishi kerak.

Tez orada vafot etadigan va men biron marta ham bo'sa olmaydigan qizning derazasi ostida har kuni telbaday sanqishim kulgili emasmi axir, deb o'ylardim. Axir, ortiq hovliqma o'smir emasman, har bir kunning qadriga yetishim kerak, vaqtini behuda sarflash – gunohi azim.

Ba'zan yirik shahar tushimga kirardi. Bu yanglishmasam, Nyu-York edi.

Uyqudan uyg'onib, men bu shaharning tarkibiy qismi emas, balki bor-yo'g'i kulgili shaharchaning kulgili odami ekanimni his etib ajablan-

dim. Aslida ham kimman? Deraza ostidagi oshiqi sodiq. Birodar, dedim o'zimga o'zim, so'nggi kunlarini yashayotgan qizni unut, u shundoq ham o'lim to'shagida yotibdi, nihoyat, chinakam hayotga mardonavor yuz tut. Hayot – muqaddas. O'sha qizning uyiga qatnab, kunlarni uning to'shagi yonida o'tkazish, oqshomlari esa derazanining yoniga joylashib olgancha izhori dil qilish, balki, hikmatdan xoli emasdir.

Biroq hayot – muhim.

Men o'zimga shu asno tanbeh berarkanman, ko'nglimni chulg'ab olgan g'ussa nolasini nainki bo'g'ishga urindim, balki shafqatsizlarcha bo'g'izladim.

Men o'zim kelgan, shaharda yagona bo'lgan faytonda vokzalga yo'l oldim. Annaga indamay qo'ya qoldim. Choshgoh. Oftob olam uzra oltin yog'dular sochardi. Vokzal bahaybat sarg'imtir mushukday oftobda toblanib yotardi. Relslar olislarga uloqib ketgan, zaminni metin quchog'iga olgandi.

Pochtachi esini yo'qotguncha ichsa ichavermaydim! Pochtmeyster temir tepkilarini jiringlatib, kommivoyajer esa upa hidini anqitib yuraversin. Anna unga ma'shuqa bo'la qolsin.

Derazadagi qiz-chi?

„O'lmasa battar bo'lmaydimi!“ – shunday deya uyalmay to'rt mucham sog' ekanidan quvondim ham.

Keyingi haftada meni nima jin urdi? Do'stim Avel shunchalar ham ta'sirchanmi? U kabi qandaydir bir juvonning hajrida kuyib, o'zim orzu qilgan Nyu-Yorkni hech qachon, hech qachon tark etmagan bo'lardim.

Nihoyat, aynan Nyu-Yorkka otlanaman.

Hushtak ovozi xayolimni bo'ldi. Vokzal navbat-chisi qizil shapkasi bilan perronga chiqdi. Unga nihoyatda go'zal bir qiz ergashib kelardi. Bu o'sha, o'sha – derazada ko'rinish beradigan qiz!

– Biroz kutib tur, – dedi unga navbatchi. – Hozir kelaman.

Biroq qiz uning gaplarini eshitmadı. Biz bir-birimizga tikilib qoldik. Qomati sarvday ravon. Chappar urib gullagan olchaday oppoq ko'yakda. Na sil, na shol – soppa-sog'. Temiryo'lchining qaylig'i yoki xotini bo'lsa kerak.

Poyezd qo'zg'aldi va men ko'zlarimni qizning nigohidan uzmay qo'l silkidim. Ayni mana shu sir-sinoat to'la nigoh sharafiga shu hikoyani yozdim.

Kupeda yig'lab yuborguday, haykal kabi qotib o'tirardim. Chalg'ish uchun derazadan qaradim: cho'pon dalada itning ketidan quvib yurar, strel-kachi temir yo'l ko'tarmasi yonida uzala tushib yotar, xotini choyshablarni dorga ilar, qo'ng'izday mitti yuk mashinasi esa o'nqir-cho'nqir yo'l bo'y-lab silkina-silkina ketib borardi.

Dildora ARZIKULOVA tarjiması

— Bu voqeа sodir bo'lganda, o'zim o'sha yerda edim, — dedi Pimley o'zini befarq ko'rsatishga urinib.

Yana biroz undan bundan gap sotgach, Tompkins o'z katagiga kirib ketdi, Pimley esa katta muzlatkichxonaga kirib, shaxsiy bo'lmasini ochdi va go'sht solingan qog'oz paketlardan birini tanlab oldi.

Alvin Pimley toki garajga kirmaguncha pulni payqamadi. Mashinadan tushayotganda orqa o'rindiqqa birrov nazar tashlab, gazeta qog'ozidan qilingan yarim ochiq paketni ko'rib qoldi. Qandaydir ko'kimtir qog'ozlar taxlami e'tiborini tortdi. Dollar-ku!

Hammasi qanday ro'y berganini darrov tasavvur qildi: o'g'ri bank binosidan qochib chiqar ekan, qo'lidagi pul to'la paketni yon tomonidagi oynasi tushirib qo'yilgan dastlabki duch kelgan mashina ichiga qarata uloqtirgan. Shunday bo'lishi mumkinligi politsiyachilarining esiga kelmaganini qarang-a.

Pimley darhol bir fikrga keldi. Muzlatilgan go'sht solingan paketlarni ochib, ichidagi go'sht bo'laklarini orqa o'rindiqqa qo'ydi. Pullarni esa shu paketga solib, yaxshilab o'radi. Paketni yomg'irpo-shining cho'ntagiga solib, garaj eshigini ochgandi, kutilmaganda uy bekasiga ro'para bo'ldi.

Eshik daf'atan ochilishini kutmagan beka ses-kanib ketdi.

— Voy, janob Pimley... Yo'lingizga qarab ko'zlarim to'rt bo'ldi, ijara haqini, balki, hozir olarman, deb o'yladim. Shu yerda bo'lsangiz kerak, deb garaj derazasidan qaramoqchi edim.

Pimley darhol o'zini qo'lga oldi.

– Juda soz, Braun xonim. Katta rahmat.

Hamyonidan kerakli pulni olib, ayolga uzatdi.

– Qahva olishni unutibman, yana shaharga tushib chiqmasam bo'lmaydi, – deb g'o'ldiradi Pimley.

Braun xonim yaxshi borib-keling, deganday imo qildi-da, bog'cha eshigi tomon yo'naldi.

„Bu jodugar ko'rib qolmadimikan?“ – degan fikr kechdi Pimleyning ko'nglidan.

Oradan o'n daqiqa ham o'tmay, yana Tompkinsning muzlatkichida hozir bo'ldi. Omadi keldi. Tompkins idorasida ko'rinasdi. Pimley qo'llari qaltiragancha pul solingan paketni bo'lmasingning eng ostiga joylashtirdi, ustidan esa boshqa paketlarni qalashtirib tashladi.

Yarim tunga yaqinlashganda politsiyachilar kelib, uning avtomobilini sinchiklab ko'zdan kechirishdi, ko'plab savollar berishdi. Alvin Pimley bundan ajablanmadi ham, o'zini yo'qotib ham qo'ymadni. Uy bekasini ham savolga tutishdi. Shaharga qahva xarid qilish uchun qaytib borganini aytib bergen bo'lishi shubhasiz. Lekin u, odatda, yeguliklar xarid qiladigan baqqollik do'konlaridan surishtirishganda, Pimley ko'rsatilgan vaqtida ularning yondan mashinada o'tib ketganini, do'konchalarning biridan yarim kilogramm donador qahva sotib olganini aytib berishgan bolardi.

Oradan bir necha kun o'tdi, Pimley muzlatkichiga bosh suqmaslikka harakat qilardi. Holbuki, Tompkins o'z joyida soatlab bo'lmas, mijozlar muzlatkichga o'zlarini kirib, zarur oziq-ovqatlarni olib chiqib ketishardi.

Mehnat ta'tili vaqtি keldi. Pimley shu paytga-cha ham muzlatkichga kirmadi. Ta'tildan qaytgan-dan keyin kirarman, degan qarorga keldi. Shun-day qilsam, six ham, kabob ham kuymaydi, deb o'yladi. U keyingi olti yil mobaynida dam olish uchun odad qilganidek, dengiz bo'yidagi arzon oromgohdan bitta xona buyurtirdi. Bu yil ham uch haftalik ta'tilni shu yerda o'tkazishni niyat qilgandi.

Biroq... Ta'tilning uchinchi kuni ertalab no-nushta chog'ida kutilmagan voqeа sodir bo'ldi.

– Siz Martin Kauntidanmisiz, janob Pimley? – deb so'radi tilla gardishli ko'zoynak taqqan ozg'in erkak.

– Ha, o'sha yerlikman.

Aksariyat dam oluvchilar bir soniya nonush-tani ham unutib, ular tomon qaradi.

– U yerda kecha kechasi kuchli suv toshqini bo'lganini xabar qilishdi. Rosmana to'fon. Bo'ron daraxtlarni ildizi bilan qo'porib ketibdi, butun shahar elektr chirog'isiz qolganmish.

Alvin Pimley tishlarini g'ijirlatdi, boshiga bir-dan og'riq kirdi. Shahar elektr tokisiz qolibdi! Uning muzlatkichdagi boksi nima bo'ldi ekan? O'n ming dollar-chi?

U dast o'rnidan turib, eshikka qarab yurdi.

Oradan olti soat o'tgach, uning eski avtomobili Martin Kauntiga kirib keldi. To'fon rostdan ham ancha zarar yetkazgandi. Majaqlangan, ag'darilib yotgan mashinalar ustida ildizi bilan qo'porilgan daraxtlar yotardi, hamma yoqda cherepitsa plitkali-ri yotar, e'lon qog'ozlarining parchalari uchib yurardi. Shamol tingan, lekin hamon yomg'ir yog'ardi.

Janob Tompkins o‘z idorasida o‘tirar, unga ko‘zi tushgan Pimley ostonada tosh qotdi. Sir boy bermaslikka har qancha harakat qilmasin, ovozi titrab chiqди:

– To‘fonni qarang-a, janob Tompkins. Elektr tokisiz qanday amallaganingizga sira ishongim kelmayapti. Bularning barchasiga qanday chida-dingiz? Muzlatkich jiddiy zarar ko‘rmadimi...

Pimley qo‘llari qaltirayotganini bildirib qo‘ymaslik uchun ularni cho‘ntagidan chiqarmasdi.

– Men kecha ertalab uyingizga qo‘ng‘iroq qil-gandim, – dedi Tompkins. – Barcha mijozlar bilan bog‘lanishga harakat qildim. Baxtimga, Golfport-dan ancha quruq muz topdim. Yo‘qsa, bo‘lmalar-dagi go‘shtlar aynib qolardi. Sizning bo‘lmangiz-dagi go‘sht solingan barcha paketlarni olib, muz bo‘laklari orasiga qo‘ydim. Qo‘limdan kelgani shu bo‘ldi. Buzoq go‘shtidan qilingan kotletlardan boshqa barchasini asrab qoldim. Buzoq go‘shtidan qilingan to‘rtta paketdagi kotletlar hidlanib qolib-di, ularni tashlab yubordim. Lekin ularning o‘rniga sarxil kotletlar olib beraman. Chunki mening idoram bunday tabiiy ofatlardan sug‘urta qilingan.

– Aynigan... aynigan go‘shtlarni nima qilasiz? – tutila-tutila so‘radi Pimley.

– Agar juda ko‘p yig‘ilib qolsa, chiqindixonaga olib borib ko‘mib tashlaymiz. Lekin bu gal arzi-magan miqdordagi go‘shtni boy berdik. Shu bois ularni uyimning o‘txonasida yondirib yubora qol-dim.

Pimleyning boshi chir aylanib ketdi. Oyoq-qo‘liga muz yugurdi.

Tompkins esa davom etardi:

— Ba’zida shunday voqealar ham bo’lib turadi, janob Pimley. Ha-ya, butun ishni bir necha oyga o’g’limga topshirishga qaror qildim. Xotnim bilan Janubiy Amerika bo’ylab safarga chiqishni mo’ljallayapmiz. Er-u xotin biron marta ham sa-yohat qilmaganmiz. Lekin yaqinda omadim kulib, mo’may sarmoyani meros qilib oldim. Hamyoning to’la bo’lsa changalda sho’rva, deb bejiz aytish-magan. Naqd pulga nima yetsin, nima deysiz, janob Pimley?

Abduhamid PARDADEV tarjimasi

NIMADIR SODIR BO'LISHI KERAK!

Alfred Vunzidelning fabrikasida xizmatchi sifatida o'tkazgan kunlarimni hayotimning, shubhassiz, muhim davri, deb bilaman. Tabiatan ancha-gina xayolparast va bekorchixo'ja bo'lsam ham, moliyaviy qiyinchilik – axir bekorchilik kabi xayolparastlik ham deyarli hech qanday naf keltirmaydi – ba'zi-ba'zida biron-bir lavozim egasi sifatida ishlashga majbur qilardi. Xullas, bir safar hamyonimda sariq chaqa ham qolmagach, inonixtiyorimni ish topib beradigan allaqanday idoraga topshirib, o'zim kabi kulfatzada kimsalar bilan birga Vunzidelning fabrikasiga yo'llanma oldim-da, shu yerda qattiq sinovdan o'tdim.

Fabrika binosining ko'rinishiyoy menda shubha uyg'otdi – uning tashqi devorlari yirik-yirik oynalar bilan qoplangandi, men esa ishlashga sira bo'ynim yor bermaganday yarqiraydigan binolar-u o'ta yorug' xonalarni yoqtirmasdim. Bizni to'g'ridan to'g'ri yop-yorug', yorqin ranglar bilan bo'yalgan fabrika oshxonasiga boshlab kirishganda esa yana ham hushyor tortdim – oshxonada biz uchun nonushta tayyorlab qo'yilgandi. Farishtaday ofitsiant qizlar tuxum, qahva va qovurilgan non bo'lakchalarini oldimizga keltirib qo'yishdi. Bejirim finjonlarga apelsin sharbati to'latib qo'yilgan, tilla baliqchalar

do'ng peshonalarini akvariumning yashil oynasiga xotirjam tiragancha dumlarini likillatishardi. Ofitsiant qizlarning og'zi qulog'ida, quvonchi ichiga sig'mayotganday, bor shodligini qo'shiq qilib kuylashdan o'zini arang tutib turganday tuyulardi. Serpusht tovuqlar singari ularning qalbida ham go'yo shavq-u zavq ummoni jo'sh urardi.

Bu nonushta ham imtihoning bir qismi ekani ni o'zim kabi ish izlab yurgan birodarlarim hatto xayoliga ham keltirmayotganini daf'atan payqadim. Shu bois go'yo omonat tanasini qanday foydali ozuqalar bilan ta'minlanayotganini teran anglaydigan kimsa kabi har bir luqmani shoshilmasdan chaynardim. Men, hatto odatiy holatda dunyodagi biron-bir kuch majburlay olmaydigan ishni ham qildim – och qoringa apelsin sharbatini ichdim, likopchadagi non bo'lakchalariga qo'l urmadim, tuxum bilan qahvaga esa qiyo ham boqmadim. So'ng o'rnimdan turib, darhol ishga kirishishga tashna odam singari oshxona bo'y lab oshkora odimlay boshladim.

Bu naf berdi – imtihon bo'ladigan xonaga dastlab meni taklif qilishdi. Did bilan bezatilgan stollar ustida oldindan tayyorlab qo'yilgan savlonmalar yotardi. Xona devorlari och moviy rangga bo'yalgan, uning ohanrabosi o'ta befarq kim-salarni ham hayratga solgan bo'lardi. Xonada hech kim yo'q, bundan qat'i nazar kimdir qaysidir tirqishdan meni kuzatayotganini sezib turardim. Darhol cho'ntagimdagi ruchkani oldim, ro'paramdagagi stolga o'tirib, uy egasidan hisob-kitob varaqasini olgan ijaradagi hovliqma kabi so'rovnomaga qo'l uzatdim.

Birinchi savol: odamzod faqat ikkita qo'l, ikkitaga oyoq, bir juft ko'z va qulogqa ega ekanini siz adolatli hol deb hisoblaysizmi?

Xayolparast, mulohazakor ekanimning samarasini birinchi bor tatib ko'rish nasib etadigan bo'ldi! O'ylab ham o'tirmay shunday deb yozdim: „Mening ishchanligimni qondirish uchun hatto to'rtta qo'l, to'rtta oyoq va to'rtta qulog ham kifoya qilmagan bo'lardi! Afsuski, odamzod nochor-u notavon yaratilgan!“

Ikkinci savol: bir vaqtning o'zida siz nechta telefonga xizmat ko'rsata olasiz?

Oddiy tenglamani yechish singari bu savol javobi ham oson edi: „Agar ro'paramda yettita telefon bo'lsa, – deb yozdim men, – o'zimni qo'ygani joy topa olmay qolaman, yonimda to'qqizta telefon bo'lsagina risoladagiday g'ayrat bilan ishlayman“.

Uchinchi savol: bo'sh vaqtingizda nima bilan shug'ullanasisiz?

So'nggi savolga javob quyidagicha bo'ldi: „Bo'sh vaqt nima ekani allaqachon yodimdan ko'tarilgan. O'n besh yoshga to'lganimda bu iborani o'z lug'at boyligimdan tamomila o'chirib tashlaganman, zotan, allomalar: „Mehnatning tagi – rohat“, deb bilib aytishgan“.

Ishga olishdi. Menday serg'ayrat odam uchun to'qqizta telefon ham kamlik qilardi. Go'shakni qo'lga olib qichqirardim: „Darhol kirishinglar! Bo'la qolinglar deyapman!“ yoki: „Biron chorasi ni topinglar!“, „Nimadir qilinglar axir!“, „Albatta, nimadir qilish kerak!“, „Albatta, nimadir qilamiz!“, „Allaqachon uddalab qo'yganmiz!“, „Haqiqatan ham nimadir qilish kerak!“ Lekin aksariyat holat-

larda korxonadagi umumiyligi muhitga ko'ra, buyruq ohangida hayqirardim.

Korxonada tushlik paytidagi tanaffus maroqli o'tardi, ishchi-xizmatchilar sassiz hamjihatlik og'ushida darmondorilar bilan to'yimli yeguliklarni ishtaha bilan tanovul qilardik. Vunzidelning fabrikasi qiyomat izdihomidan qolishmas, ishchi-xizmatchilarning har biri barcha buyuk zotlar singari o'z o'tmishi haqida to'lib-toshib, jon deb hikoya qilishni istardi. Ularning umr yo'llari hayotning o'zidan ham muhimroq ahamiyatga ega edi-da. Bir og'iz shama qilsangiz bas, ko'nglidagi barcha gaplarni oqizmay-tomizmay gapirib berar, kamiga, bularning barchasi haqiqat, deb qasam ichishdan ham toymasdi.

Broshek degan g'ayrioddiy zot Vunzidelning o'rribbosari vazifasini bajarardi. U talabalik kezlaridayoq yetti bola bilan shol bo'lib qolgan onasini ta'minlashdek vazifani uddalab, nom chiqargandi. Buning uchun tun bo'yi ishlar, to'rtta savdo firmasining vakili vazifasini qoyillatib ado etar, shunga qaramasdan ikki yil mobaynida ikkita davlat imtihonini ham „a'lo“ baholarga topshira olgandi. Reportyorlar bir gal undan: „Nahotki tunda ham uxlamasangiz?“ – deb so'rashganda, Broshek: „Uyqu – gunohi azim!“ – deb javob bergen.

Vunzidelning kotibasi esa Broshekdan ham oshib tushardi. Kotibalik qilish bilan bir paytning o'zida qo'li to'qishdan bo'shamas, shuning evaziga to'rt bola bilan to'shakka mixlanib qolgan erini ta'minlar, ayni paytda ruhshunos va tarixchi ilmiy unvoniga ega bo'lib, kamiga zotdor kuchuklar boqar hamda tungi qahvaxonada „Bamn 7“ nomi bilan mashhur xonanda ham edi.

Vunzidelning o'zi esa ertalab o'rnidan turib ul-gurmasdan nimadir qilishga oshiqadigan o'pkasi-ni qo'lтиqlaganlar toifasidan edi. Ular, hatto tungi pijamasining bog'ichini shoshilib bog'lash asno-sida ham: „Men g'ayrat qilishim kerak!“ – deya pishillarydi. Hattoki yonoqlarini qirtishlayotganda ham ustara tig'ida omonat turgan, bir lahzadan keyin dastjo'yak ichiga sho'ng'iydigan soqolining tuklariga g'olibona nazar solgancha: „Men hara-kat qilishim darkor!“ – deb o'ylaydi. Beshafqat qirib tashlangan soqol tuklari ularning tiyiqsiz ishchanliklarining dastlabki qurban bo'ladi. Ni-masini aytasiz, kichik va katta zaruriyat ham bunday kimsalarga huzur baxsh etadi – oq chinni o'tirg'ichdag'i suv shovullaydi, hojatxona qog'ozi mayin shitirlaydi... nimadir ro'y berayotir-da! Non ishtaha bilan chaynaladi, nonushta uchun qay-natilgan tuxum po'choqlari pachoqlanadi...

Har qanday mayda-chuyda ham, Vunzidelning nazdida, buyuk a'mol tusini olardi: shlyapa kiya-dimi, g'ayrati taniga sig'may paltosining tugma-sini qadaydimi, ishga otlanishdan oldin xotini-ning yuzidan bo'sa oladimi – hamma-hammasi buyuk faoliyat! Tengi yo'q g'alaba!

Vunzidel ishga keliboq kotibasi bilan salomla-shish o'rniga: „Nimadir sodir bo'lishi kerak!“ – deb qichqirar, kotiba ham, o'z navbatida, g'ayrati ichi-ga sig'may: „Albatta, sodir bo'ladi!“ – deya azbaroyi hayajon bilan sado berardi. Vunzidel shundan ke-yin bo'limlarga birma-bir bosh suqib chiqar, hamma joyda uning: „Nimadir sodir bo'lishi kerak!“ – degan xitobi yangrar, hamma xodimlar o'rnatilgan tartibga rioya qilgan holda bor ovozi bilan bara-

variga: „Albatta, nimadir sodir bo'ladi!“ – deya mardonavor javob berishardi. Xo'jayin xonamga kirib kelganda men ham o'rnimdan sapchib turgancha, quvonchim ichimga sig'masdan: „Albatta, nimadir sodir bo'ladi!“ – deb javob qaytarardim.

Men ish boshlagan dastlabki haftadayoq o'zim xizmat ko'rsatadigan telefonlar sonini o'n ikkita-ga yetkazdim, keyingi haftada telefonlar o'n uchta bo'ldi. Ertalab tramvayda ishga borarkanman, „sodir bo'ladi“ fe'lini buyruq ohangida yoki barcha zamonlar va fe'l bog'lanishlarida, shartli va aniqlik mayllarida xilma-xil tarzda tuslash-u ifoda qilishdan huzur topardim. Jumladan, bir safar menga juda-juda yoqib tushgan bitta iborani, ya'ni „Nimadir bo'lishi kerak edi-ku axir!“ – deya telefon go'shangiga qatorasiga ikki kun qichqirdim. Keyingi ikki kun mobaynida esa: „Hech narsa sodir bo'lmasligi kerak edi-ku!“ – degan xitobim yangradi.

Shu asno ishga sho'ng'ib ketdim, biroq kutilmaganda haqiqatan ham nimadir sodir bo'ldi. Se-shanba ertalab ishxonadagi oromkursiga joylashib ulgurmasimdan janob Vunzidel xonamga bostirib kirdi-da, odatdagidek: „Nimadir sodir bo'lishi kerak!“ – deya hayqirdi. Lekin uning qiyofasidagi g'alati ifodani ko'rganim hamono tilim kalimaga kelmay qoldi. Menden hadeganda javob chiqmaganidan g'azablangan Vunzidel janoblari kamdan kam holatlarda xodimlarga baqirishiga qaramasdan, o'shqira ketdi: „Javob bering! Belgilangan tartibda darhol javob bering!“ „Men – yaramas bolakayman!“ – deya tan olishga majbur qilingan norasida boladay astagina: „Albatta, sodir bo'ladi“, deb shivirla-

dim... Shunday deyishimni bilaman, ko'z o'ngimda rostdan ham kutilmagan voqea ro'y berdi: Vunzidel yuztuban quladi, yonboshiga o'girildi va ostona oldida ko'ndalang tushgancha tarashaday qotib qoldi. Stolni aylanib o'tib, yaqinlashmasdan oldinoq uning jon taslim qilganini payqadim.

Afsus bilan boshimni sarak-sarak qilgancha, uzala tushib yotgan jasad ustidan hatlab, keng bo'lmadan o'tib, eshigini taqillatib ham o'tirmay, Broshekning huzuriga kirdim. Broshek yozuv stoliga engashgancha o'tirardi. Ikkala qo'lida ikkitat telefon go'shagi, og'zida esa sharikli ruchka, u bilan daftarchaga nimalarnidir qayd qilardi, ayni paytda yalang oyoqlarining barmoqlari bilan stol ostidagi to'quv mashinasini ishlatardi – Broshek shu tariqa oilasining kiyim-kechaklari mo'l bo'lishiga o'z hissasini qo'shardi.

– Bugun kutilmagan voqea sodir bo'ldi! – sirli tarzda shivirladim men.

Broshekning og'zidan sharikli ruchka tushib ketdi, telefon go'shaklarini joyiga qo'ydi, to'quv mashinasining pedalidan oyoqlarini oldi.

- Yana nima balo sodir bo'ldi? – so'radi u.
- Janob Vunzidel omonatini topshirdi, – dedim men.
- Bo'lishi mumkin emas, – ishonmadi Broshek.
- Rostdan ham o'ldi, – e'tiroz bildirdim men. – Yuring, o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz.
- Yo'g'-e. Nahotki?! – dedi Broshek, lekin shunga qaramasdan uyda kiyadigan boshmog'ini kiydi va ortimdan ergashdi.
- Yo'q! – qichqirib yubordi Broshek marhumning jasadiga ko'zi tushgani hamono. – Yo'q! Yo'q! Yo'q!..

Unga qanday taskin berishni bilmasdim, engashib Vunzidelni chalqancha yotqizdim va ko'zlarini yopdim-da, marhumga o'ychan tikilib qoldim.

Ayni shu kezda unga nisbatan birinchi marta mehrim tovlanib ketdi, nihoyat rostini aytganda, unga hech qachon nafrat bilan qaramaganim ko'nglimdan kechdi. Uning qiyofasi shunday tusga ega ediki, odatda, o'rtoqlarining vaj-korsonlari qanchalar asosli bo'lmasin, Qorbobo borligiga oid ishonchidan voz kechishni sira istamayotgan bolaning yuzida shunday ifoda bo'ladi.

- Yo'q! – deya qat'iy baqirdi Broshek. – Yo'q!
- Nihoyat, mana endi nimadir sodir bo'ladi, – dedim sekingina unga.
- Ha, – deya fikrimga qo'shildi u ham, – endi rostdan ham nimadir bo'lishi kerak.

Haqiqatan ham antiqa voqeа ro'y berdi. Vunzidelni dafn qilish chog'ida menga uning tobuti ortidan sun'iy atirgullar gulchambarini ko'tarib borish topshirildi, chunki kamina nafaqat mulohazakorlik va bekorchilikka moyilman, shuningdek, qora kostyum-shim quyib qo'ygandek yarashadigan qaddi-qomat-u qiyofaga ham egaman. Sun'iy atirgullar gulchambarini, aftidan, o'zgacha vi-qor bilan ko'tarib bordim. Zotan, ko'p o'tmasdan qandaydir juda ham obro'li dafn idorasidan dafn marosimlarida malakali xodim sifatida ishtirok etishga oid taklif oldim.

„Siz ayni shu kasb uchun tug'ilgansiz, – dedi menga idora boshlig'i. – Zar-u kiyim-kechaklar tashvishini qilmang, hammasi bizning hisobimizdan. Sizning qiyofangiz – biz uchun ayni muddao!“

Men Broshekka ishdan bo'shash haqida ariza berdim. Bu korxonada, hatto o'n uchta telefon bilan ishlash ham meni qoniqtirmayotganini, qobiliyatlarimning talay qismi behuda sovrilayotganini bahona qilib ko'rsatdim. Dastlabki dafn marosimida mutaxassis sifatida ishtirok etganimdan keyinoq qat'iy ishonch hosil qildim: mana mening peshonamga bitilgan hunar, mana, aynan men uchun atalgan lavozim!

Motam orkestri Gendelning yurakni ezib yuboradigan ma'yus „Largo“ musiqasini ijro etar ekan, odmi guldastani mahkam ushlagancha tobut ortida chuqur o'ya tolib turaveraman. Qabriston yonidagi qahvaxona – doimiy qo'nimgohim. Xizmat vazifamni bajarish orasidagi tanaffuslarni ayni shu yerda o'tkazaman. Lekin ba'zida kuzatishim shart bo'lмаган tobutlar ortidan ham ergashaman. Bunday paytlarda o'zimning hisobimdan bir siqim gullarni xarid qilib, o'z kasbiy vazifasiga ko'ra yolg'iz ketib borayotgan mahkama xizmatchisi bilan birga biron-bir daydining tobuti ortidan ohista qadam tashlay boshlayman.

Vunzidelning qabrini o'qtin-o'qtin ziyorat qilaman – axir, manglayimga bitilgan kasbga aynan uning sharofati bilan ega bo'ldim, bunda xayolparastlik, ya'ni jiddiy o'ychanlik zaruriy xislat, bekorchilik esa xizmat burchi sanaladi. Vunzidelning fabrikasida aynan nima ishlab chiqarilishi bilan qiziqmaganim, nihoyat, bir kuni esimga tushib qoldi... Yanglishmasam,sovun ishlab chiqarilardi.

Abduhamid PARDAYEV tarjimasি

QIROL

Men Qirolni faqat uch marta ko'rganman.

Birinchi safar biz uni o'marmoqchi bo'lganda ko'rgandim. Yozning dastlabki kunlarida bozor bo'ladigan shaharchaga borardik. Har shanba bu yerga tuxum, parranda, tort va boshqa qo'liga ilingan narsa bilan dehqonlar turli tomonlardan oqib kelardi. Kamalakday rang-barang bozor juda gavjum bolardi. Qizil yubka va toshday og'ir poyabzallar kiygan, yelkasiga shoyi ro'mol tashlab olgan basavlat xotinlar ortidan ularning kanop ishton, paxtaliq nimcha va etik kiygan erlari ergashib yurardi. O'tkir qora bo'zaning, otlar-u xachirlarning, o'ralardan yangi qazib olingan kartoshka-yu tovuqlarning tagidan olingan issiqliqina tuxumlarning hamda karram bargiga o'ralgan tilladay xonaki sariyog'ning hidi hamma yoqni tutib ketardi. Oluvchilar ham, sotuvchilar ham bor ovozini qo'yib baqirar, yuk hayvonlari pishqirardi. Darbadar musiqachi alam bilan ashula aytar, uni eshitgan bag'ritosh odamlar ham ko'z yosolarini tiya olmas, qo'lini beixtiyor cho'ntagiga solib, hamyonini qidira boshlardi.

O'sha kuni Jojo, Danin va men bozorga odadagi vaqtida yetib keldik. Biz kamon va o'q yasash uchun zarur narsani qo'nga kiritish niyatida bu yerga kelgandik. Biz shumtol novdalari yuklan-

gan arava bozor maydonidan chiqishi bilan uning iziga tushib, toki egasi payqaguncha anchagina novdani o'marib olardik. Bu uzundan uzun ajoyib novdalar bo'lardi. Uning yo'g'onroq tomonidan kamon, ingichkaroq bosh qismidan esa o'q yasardik. Mana shunday qo'lbola kamon va o'q bilan ko'cha fonarlaridagi elektr lampochkalarni urib sindirardik. Lampochkalarning qattiq chirsillab sinishi bizga zavq bag'ishlardi.

Novdalarni keragicha o'marib, juftakni rostlar-dik, keyin irlandiyalik landavurlar ustidan shumlik bilan kulardik. Egnimizda yirtiq ko'ylag-u kalta ishtondan bo'lak hech vaqo yo'q, boz ustiga hammamiz yalangoyoq – aravakashlar hayt de-gan hamono tiraqaylab qochib qolardik.

Shumtol novdalari yuklangan aravani Jojo birinchi bo'lib payqadi.

– Hoy bolalar, kelyapti! – qichqirdi u eshak tortib borayotgan aravaga ishora qilib. Aravaga yuklangan shumtol novdalarining uchi sollanib borardi.

– Qani, bo'la qolinglar! – dedi Denin odatdagidek kaftlarini ishtiyoy bilan ishqalagancha.

Denin bunaqa ishga ustasi farang edi – juda uzun novdani sug'urib oldi, undan kamida bitta katta kamon va ikkita o'q yasasa bo'lardi. Bular bilan qancha lampochkani chilparchin qilsa bo'ladi! Jojo ham bitta novdani qo'nga kiritdi. Men ham bir novdaga yopishdim, shoshib aravaning gupchagi-ga chang solibman – arava qalqib ketdi, aravakash o'girildi-yu, bizlarga ko'zi tushib, qamchini o'y-natdi. Qamchi shunday zarb bilan tegdiki, yelkam achishib og'riganidan beixtiyor baqirib yubordim:

– Voy, la'natি qari ko'ppak!

Aravakash ham irland tilida bizlarni qalashtirib so'ka boshladi. Ko'zları olayib ketdi. G'azab bilan so'kinar ekan, uning bo'yin tomirlari o'qlovday yo'g'on tortib ketardi. Basavlat bu odamning bahaybat kelbati hamon ko'z oldimda. Ko'pdan buyon ustara tegmagan soqollari o'sib ketgan, shopmo'ylovli bu kimsaning qiyofasi qahrli bo'lib, tarix darsligidagi Chingizxonga o'xshab ketardi. Tishlari qorday oppoq, qalin qoshlari ko'zlariga soya solib turardi. Ajablanarlisi, ko'm-ko'k ko'zlarida qahrdan nishon ham yo'q edi. Umuman, uning qiyofasida o'ziga xos ulug'vorlik ko'zga tashlanardi.

U aravadan tushdi, qamchini o'ynatgancha biz tomon yurdi.

Birinchi bo'lib qochib qoldim. Daninning ovozini eshitib hushyor tortdim.

– Mana tomosha! – hurmat bilan xitob qildi u. – Bolalar, axir bu Samogon Qiroli-ku!

Hammamiz darrov to'xtadik. U chinakam qahramon edi! U bilan bog'liq hikoyalari shunchalik ko'p ediki, agar hammasi to'plansa, ikkita kitobdan ham ortib qolardi. O'sha hikoyalarni qayta-qayta tinglab suyagimiz qotgandi. Samogon Qiroli ayyorlikda pixini yorgan iskovuchlarga ham pand berardi. Butun boshli politsiya batalyoni oldidan ham samogonni sezdirmay olib o'ta olardi. Uning o'zini ham, aravasini ham, eshagini ham, aravaga yuklangan torfni ham har qancha titkilashmasin, samogonni aytilgan joyga bir tomchi ham yo'qotmay yetkazib borardi. Bir gal katta dasturxon yozib, motam marosimi uyushtirdi, o'shanda shuncha ko'p samogon yetkazib keldiki, Geluey grafligining barcha aholisini ham mast qila olar-

di. Uning nomi rostdan ham tillarda doston edi! Ingliz politsiyachilari o'rnini irlandiyalik politsiyachilar egallaganda, ularni ham chuv tushirgan. Biz esa surbet politsiyachilarini dog'da qoldira oладиган одамга hamisha Tangridan omad tilardik. Nazarimizda, u bu atrofdagi tengi yo'q odam edi. Shunday odamni ranjitishimizga sal qolibdi-ya!

– Bizni kechiring, Qirol! – dedim uning ko'zlariga tik qarashga botina olmay. – Tanimay qolibmiz, aks holda, Xudo haqqi, sira ham bunday qilmagan bo'lardik.

– Mana, qaytarib ola qoling, – dedi Danin, o'margan novdani uzatarkan.

– Men ham qaytarganim bo'lsin, – dedi Jojo istamaygina.

– Bir qultumdan samogon bersangiz bas, – dedi kutilmaganda Danin.

Qirol kutilmaganda qah-qah urib kula boshladi va ulovning jilovini qo'lga oldi.

– Yo'qol hammang, churvaqalar, – dedi u yasama po'pisa bilan. – Yo'qol deyapman senlarga, yalangoyoqlar! O'margan novdalarining ham o'zlaringga buyursin!

Bor aytgan gapi shu bo'ldi. Sakrab aravaga mindi-da, jo'nab ketdi. Biz esa hayrat bilan ortidan uzoq tikilib qoldik. Bir martagina o'girilib, qo'lidagi qamchi bilan hazilnamo po'pisa qilib jilmayganda oppoq tishlari kumushday tovlanib ketdi.

O'sha kuni to'rtta elektr lampochkani chil-chil sindirdik. Bundan xabar topgan otam meni aymay savaladi.

Ikkinci safar boshqacha vaziyatga duch keldim. Bu paytga kelib uzun shimplar kiyib yurar-

dik, boshimizga ishtiyoq bilan sochmoy surardik, har birimiz o'ziga xos xushbo'y atirni ham ayamay separdik. Atirlarning xush bo'yidan yonimizdan o'tgan odamning naqd boshi aylanib ketardi. Katta shahar ko'prigining silliq toshlarida o'tirib olgancha Solt-xill tomon yo'l olgan kamdan kam qizlarga shilqimlik qilardik. Lekin sira omadimiz chopmasdi. Nazarimda, engil-boshimiz chinniday toza ekaniga qaramay, qiyofamiz haminqadar edi. Binobarin, qizlar bizlarga bir bor nazar tashlab, burnini jiyirgancha ertakdagi shahzodani axtarib o'tib ketaverardi. Biz esa ularning ortidan so'kingancha qolaverardik.

– Jin ursin bu qizlarni! – dedi nihoyat Danin. – Yuringlar, yaxshisi Amerika kemasini tomosha qilamiz. Bunday oyimchalardan biri bilan yasha-gandan ko'ra umrbod bo'ydoq o'tganim bo'lsin! Sirkasi suv ko'tarmaydigan tegmanoziklarni ko'r-gani ko'zim yo'q! Ular manaman degan yigitning ham boshini yemaguncha tinchimaydi.

– Kamiga bor-budingni havogasovuradi, – uni qo'llab dedi Jojo. Holbuki, o'zi haligacha yirik pulni ushlab ham ko'rmagandi.

Men e'tiroz bildirmadim. Amerika kemalarini xush ko'rardim. O'shanda bahaybat bu kemalar bizning bandargohga kirib o'tar, qishloq yoshlari ularda Amerikaga yo'l olardi. Bandargohda ularni kuzatish voqealarini maroq bilan tomosha qilsa bolardi.

Kema turgan joyga o'tishning o'zi bo'lmasdi. Soqoldor, dengizchilar libosini kiyib olgan tullak darbon ruxsatnomasi bo'lmasa o'z onasini ham kema tomonga o'tkazmasdi. Biz oddiygina ayyor-

lik ishlatdik. Ilgari ham shunday qilardik. Olomon kirib ketayotir, ular orasida bir xotin o'z ruxsatnomasini ko'rsatadi, Jojo uning bolasiday ro'molidan ushlaydi, Danin esa bir qo'li bilan Jojoning kamzulini tutamlab, bir qo'li bilan esa meni yetaklab oladi. Ustiga ustak kaftlarimiz bilan ko'zlarimizni to'sib, yosh boladay big'illab yig'laymiz. Bizning rosmana yig'layotganimizni ko'rgan qari darbon bu safar o'zi ham yig'lab yuborishiga sal qoldi.

Muhojirlar bilan tirband kema jo'nashga tayyor. Jo'nab ketayotganlar kema panjaralariga suyanib olgan. Odamlarning qo'llarida dastro'molchalar hil-piraydi, hammaning ko'zi yig'idan qizarib ketgan. Sohildagi xotin-xalaj qo'llarini cho'zadi. Yelkalardan ro'mollari tushib ketganiga ham parvo qilmaydi, ularning yuzlarini ko'z yoshlari yuvadi. Egniga paxtalik nimcha kiyib, qo'liga shumtoldan qilingan qamchi ushlab olgan erkaklar burunlarini qo'llari bilan artadi, ko'zyoshi qilgani oriyati yo'l qo'ymaydi. Biz beg'am o'smirlarga esa ermak kerak – hammani baravariga masxaralab kulgimiz keladi.

Kema gudogi yangradi, langarlar ko'tarildi va kema joyidan qo'zg'aldi.

Shu payt Qirolni ko'rib qoldik.

U Iso Masihday qulochini kergancha yig'lardi. Uni arang tanidik. Qaribdi. Mo'ylovi butunlay oqarib ketgan, burni sholg'omday qizil, qo'llari-yu butun tanasi daraxt shoxlariday quruqshab qolganday. U bizni avvalgiday qiziqtirmas, biroq bolalik bilan bog'liq xotiralarni yana yodga solardi.

– Qaranglar, bu keksa Qirol-ku, – dedi Danin.

– Haqiqatan ham aynan uning o'zi, – tasdiqladi Jojo.

Hammamiz unga tikilib qoldik. U qaysidir ma'noda qirol edi. U o'zini shohlarday bemalol tutardi. Kemada o'g'li jo'nab ketayotganidan yuragi o'rtanib, faryod solib yig'lay boshladi. Odamlar nima deb o'ylaydi, degan fikr xayoliga ham kelmasdi. Yig'lash barobarida o'g'liga talpinib, mehr bilan yolvorardi. Irland tilida. Biz endilikda irland tilini ancha bilib olgandik. Maktabda majburan o'rgatishardi. U o'g'liga talpinib tavallo qilardi:

— Bolam, bolajonim, meni tashlab ketma! Qari otangga rahming kelsin! Yorug' dunyoda sendan bo'lak hech kimim yo'q. Sensiz aqldan ozaman. Yolg'iz o'zimni, uyasi buzilgan chumchuqday chirqillatib ketma! Ko'zimning oq-u qoras! Nahotki seni ortiq ko'rmasam?! Ortingga qayt! Mehribon otangning bag'rige qayt, o'g'lim!

U ko'zlaridan shashqator yosh oqizib, fig'on qilgancha yolvorardi. Kemada uning o'g'liga ham ko'zim tushdi: u ham kulfatzada qiyofada, oyog'i-ning tagida safar jomadoni. Barvasta, otasi ham yoshtagida ana shunday kelishgan edi.

Kema sohilni tark eta boshladi, Qirol o'g'lining kema panjarasi tutqichini mahkam changallaganiga ko'zim tushdi. Kemadan ham, sohildan ham shunday yig'i-sig'i, fig'on-u faryod ko'tarildiki, nazarimda, qiyomat-qoyim ro'y berganday bo'ldi. Hatto biz ham hazil-mazaxni unutib, qayg'u domida qoldik. Yon-atrofni hasrat ko'lankasi qoplab oldi. Kema sohildan chamasi besh qadamlar siljiganda Qirol qo'llarini cho'zgancha o'zini suvga tashladi.

Kemaga yeta olmay suvga g'arq bo'ldi. O'g'lining ko'zi qinidan chiqib ketayozdi. Sohil xizmatchilaridan biri qutqaruv chambarini suvga otdi, bosh-

qasi esa kamzulini yechib suvga sho'ng'idi. Qirol suv yuzasiga qalqib chiqdi, shapkasi ko'zini to'sib qo'ygandi. Qari bo'lgani uchun suv yuzasida o'zini arang tutib turardi. Endi unga baribir edi. Suv qa'riga cho'kishdan oldin olislab borayotgan kema tomon yana qo'l silkishga ulgurdi. Qutqaruvchi shu pallada unga yetib olib, qutqaruv chambarini kiydirdi.

Shalabbo bo'lgan Qirolni suvdan qanday olib chiqqanlarini tomosha qilish uchun boshqalar o'sha yerda qoldi. Kimlar uchun bu kulgili tekin tomosha bo'lganmish. Lekin men qolmadim. Men Qirolni baquvvat, barvasta odam sifatida qadrlardim, uning qiyofasiga raxna solishni istamasdim. Shu bois odamlar uni mayna qilishlariga chiday olmasdim.

Uchinchi marta keyingi kuni ko'rdir. Sohilning oxirida ko'm-ko'k suvni kuzatardim. Oqchorloqlar charx urib uchardi. Suv yuzida kemalardan tushgan neft va sohildan tushgan ko'mir changlari mavjlanardi. To'lqinlarda apelsin po'choqlari, sigaretalarning qutilari suzib yurar, allaqanday itning o'ligi chayqalardi.

Daf'atan eshkakli qayiqqa ko'zim tushdi. Bandargoh o'tasining shundoqqina ro'parasida odamlar ipga bog'langan mushukni tortishardi. Mushuk nimagadir yopishdi, zo'r berib torta boshladи, mushukni kuzatib turgan odamlarning qichqirgani eshitildi. Odamlar eshkaklarni qo'yib, mushukning ho'l arqonini torta boshlashdi, ayni shu palla suvdan Qirolning yuzi qalqib chiqdi.

Uning ko'zlari yumilgan, boshida shapkasi yo'q edi. Quyosh ko'rmagan manglayi oppoq ekanini

ko'rib ajablandim. Yakkam-dukkam sochlari ham qorday oqarib ketgandi. Yuzi kichrayib qolganday tuyuldi, oppoq qansharidagi momataloq dog' ham e'tiborimni tortdi.

Qayiqdagagi odamlar ko'kimir tiyg'anchoq zinalar tomon suza boshladilar. Bir odam Qirolning kamzulidan ushlab olgancha suv bo'ylab sudrab kelardi. Kecha yarim tunda kimdir uning suvgaga shaloplab yiqliganini eshitibdi.

Begona yurtga darbadar ketgan o'g'lini qo'msab sohilga chiqqan bo'lsa ajab emas. Aftidan, toyib ketib, boshi bilan sohildagi xarsangga urilgan va shundan keyin suvgaga g'arq bo'lgan. Yolg'iz o'g'lidan umid uzolmay yana bandargohga kelgan-da. Judolik dardiga chiday olmay anchagina ichgan ham bo'lsa kerak. Mast odamning oyoqda turishi esa qiyin. Hamma narsa bo'lishi mumkin. Buning ustiga qari odam. Ikki mamlakatning politsiyachilari bilan tap tortmay bellashadigan jasoratli, barvasta Qirol o'tmishda qolib ketgandi. U shu asno dunyodan ko'z yumdi. Balki, siz vahimali o'lim topibdi, dersiz. Bilmadim. Hammasini o'z ko'zi bilan ko'rgan kamina, u dunyodan shoirona bosh olib ketdi, degan bo'lardim.

Qirol vafot etdi, unday odam ortiq dunyoga kelmaydi. Undan shohona tojni meros qilib oladigan yolg'iz o'g'li ham, afsuski, begona yurtga bosh olib ketdi.

Qayiqdagilar taxta zinalar oldiga yetib kelganda, men boshimni ko'tara olmay uyga jo'nadim.

Dildora ARZIKULOVA tarjimasi

PARIPAYKAR

Men bilan Oksfordda birga o'qigan Jon Franklin bir gal uyiga, Markxemtonga, Markshirdagi ovchilar baliga taklif qildi. Aytishicha, xuddi shu munosabat bilan singlisi ikkovi kichkina oqshom tashkil etmoqchi ekan.

– Singlingni hech qachon ko'rmanmag'nan, – dedim men, – qanaqa u?

– Paripaykar, – jiddiy va oddiygina javob berdi u.

Yodimda, bu qanchalar almisoqdan qolgan ibora ekanligini o'ylagandim o'shanda, biroq u chin ma'noda haq bo'lib chiqdi. Debora Franklin behad suluv qiz edi. Kinoyulduz ham, manekenchi ham emas. Hatto bu sohalarda o'zini sinab ko'rishga ham urinmagan ediki, buni ham yaxshilikka yo'ydim; zero, u bilan taqqoslanganda o'zgalar haddan tashqari ahmoqona ko'rinishga ega bo'lib qolardi. Ehtimol, tashqi ko'rinishi – qad-di-qomati-yu boshqalar – juda ketvorgan emasdир, biroq chehrasiga qaragan zahoti yuraging to'xtab golardi.

Bu yanglig' latofat bilan birga yana aqlni ham kutish – juda ko'p narsani talab qilishni anglatardi, qolaversa g'oyat do'stona munosabatiga qaramay, u menga juda zerikarli tuyuldi. U o'zining go'zal ekanligini, albatta, yaxshi anglar va bo'yи

ikki metr keladigan erkak darozlikning ijobiy va salbiy jihatlari borasida qanday gapirsa, u ham o'z go'zalligi haqida, har qanday kibr-u havosiz mulohaza qilishga tayyor edi.

Aksariyat taklif qilinganlar Franklinlarning aza-liy do'stlari bo'lib chiqdi va ular Deboraning chirroyini mahalliy mo'jiza sifatida qabul qilardi, bi-roq kuni kecha mahalliy muzey qo'riqchisi etib tayinlangan Obri Melkomb ismli sersoqol bir yigit ular orasida ilk bor paydo bo'lgandi.

– Garchi avval uchrashmagan bo'sak-da, – birdaniga dedi u Deborani ko'riboq, – chehrangiz menga juda ham tanish.

Ko'rinishidan bu Debora uchun yangilik emasdi.

– Men hech qachon fotograflar qarshisida qiy-shanglamayman, – dedi u, – biroq odamlar ko'-chada suratga olaveradi. Bu juda asabimga tegadi.

– Bunga fotografiyaning nima daxli bor! – ran-jiganday dedi Obri. – Men portretingizni nazarda tutmoqdaman – bundan to'rt asr avval chizilgan suratni. Titsianning Uorbek-xolldagi ayol portretining tirik timsoli ekanligingiz haqida nahot hech kim aytmagan?

– Umrimda eshitmaganman, – dedi Debora va bu holat uning qadrini anchayin yerga urardi – zero, Uorbek-xoll Markxemptonga qo'shni hudud bo'lib, u yerdagi kartinalar ham ancha mashhur edi. Aytgancha, sayyoohlardan boshqa kim ham ularni borib ko'rardi!

– Ochig'i, buni sizga qanday isbotlashni ham bilmayman, – davom etdi Obri. – To'xtang-chi, bunga o'zingiz ishonch hosil qilishingiz mum-

kin, Lord Uorbek o'sha suratni biz cherkov fondi uchun tashkil qilayotgan ko'rgazmada namoyish qilishga rozi bo'ldi. Men ochilish marosimiga borishingiz uchun taklifnoma jo'nataman.

Shunday deb u Razumonda Klechch bilan raqs tushgani ketdi. Aytishlaricha, u Obrining qaylig'i ekan; chehrasida kishini jalb etuvchi alohida hech vaqo yo'q, ammo bu chehra bir soniyaga bo'lsa-da uning qaddi-qomatidan ko'z uzishingizga sabab bo'la olmasdi.

Obri va uning ma'shuqasi meni sira ham qiziqtirmas edi, biroq bir necha oy o'tib ko'rgazma ochilishiga kelgach, o'z ishlariga usta ekanliklari ga tan berdim. Ular mamlakatning ko'p muzeylaridagi barcha durdonalarni yig'gan va ajoyib tarzda joylashtirgan edi. Ko'rgazma durdonasi esa, albatta, Titsianning kartinasi. Uning uchun zal to'ridan alohida stend ajratishibdi. Debora kirib kelganida men kartinadan ko'z uzmay, turgan joyimda toshday qotib qolgandim.

O'xshashlik kishini lol qoldirardi. Lord Uorbek o'z kartinalarini sira yangilamas, shu bois Titsianning tillarang karminli bo'yog'i Deboraning qirmizi yonog'i va oppoq tanasidan yaqqol ajralib turardi. Shisha tagiga olingan matodagi surat boshqa barcha jihatlarda uning aniq-tiniq aksi edi. Baxtli tasodif tufayli u odmi qora ko'ylak kiygan ediki, bu narsa kartinadagi libos bilan ö'ta muvaffaqiyatli mushtaraklik kasb etgandi. Debora kartinaga yaqinlashib, ta'bir joiz bo'lsa, asrlar aro o'tib kelgan o'z egizagiga so'zsiz va vazmin tikilib qoldi. Qiziq, u nimani his etayotgan ekan, degan o'y ko'nglimdan o'tdi.

Reportyorning kamerasi charaqlab, sharaqlab ketdi. Odamlar birin-ketin bu o'xshashlikni payqay boshladi va tez orada galereyaning bir qismi bo'shab qoldi. Hamma Titsianning kartinasi ro'parasida yig'ilib, nigohini asl nusxadan portretga, portretdan asl nusxaga ko'chira boshladi. Deboraning atrofigina bo'sh edi. Uning profilini yaxshiroq ko'rishga urinib, Titsianning aynan profilda chizilgan kartinasini ko'zdan qochirmay, bir-birlarini turtishar, u joydan bu joyga o'tishardi. Debora esa ularni hatto payqamayotgan-dek edi. U o'z tasviriga butunlay mahliyo bo'lgancha kartinaga uzoq vaqt, sinchkovlik bilan tikilib turdi, so'ng burilib, tezda chiqib ketdi. Yonimdan o'tayotganida uning yig'layotganini payqadim - g'oyat xotirjam odamda tuyg'ularning kishini esankiratuvchi oshkora namoyishi.

O'n daqiqa o'tib Obri kartina ro'parasidagi stendan Deganing ikkita haykalchasi yo'qolganini payqab qoldi - kichik, ammo o'ta qimmat buyumlar! Politsiyaga odam yuborishdi, biroq hech balo topa olmadilar. Men imkonim boricha tezroq ketdim va Franklinlarnikiga yo'l oldim. Debora uyida ekan.

- Haykalchalar sizdami? - so'radim men.
- U sumkasidan haykalchalarni chiqardi.
- Qanday bildingiz?
- Sizning Titsian kartinasi ro'parasida paydo bo'lishingiz menga anchayin notabiiy ko'rindi, - tushuntirdim men. - Obrining maqsadi, o'g'irlik ro'y berayotganda zaldagi barchanining diqqatini chalg'itish bo'lgan.
- Ha-a... - o'ychan tan oldi Debora. - Obri barchasini o'ta mohirona uyushtirgan, to'g'rimi?

U barchasini o'ylab qo'ygandi. Bilasizmi, hatto mana bu ko'yakni tanlashda menga ko'mak ber-gandi – kartinadagi ko'yak rangiga mos.

– Reportyor-chi? Uni ham atayin taklif qilish-ganmi?

– O, albatta. Obri meni suratga olish uchun kimdir qo'l ostimizda bo'lishi g'amini yegandi. Uning aytishicha, bu narsa odamlarning bir joyda to'planishiga yordam berarkan. Ha-ya, odamlar to'xtab menga qarashlari uchun fotograf yordamiga suyanish, ochig'i, shart emasdi.

Uning xotirjamligi hayratga solardi. Mabodo, bu hodisaning qaysi bir muvaffaqiyatsizligidan alamzadalik ohangi sezilsa-da, vijdon qiyanalishidan asar ham yo'q edi. Chehrasidagi o'z-garmas husn xuddi avvalgidek qilt etmagandi. Ochiq-oydin ko'rinish turgan jinoyat belgisiga qaramay – ro'paramda haykalchalar turardi – o'g'ri bilan suhbatlashayotganimga ishonmayotgan edim.

– Umuman, barchasi o'ta o'tkir aql-zakovat bilan o'ylangan, – dedim men. – Obri bilan qanday ish olib borganingizni tasavvur qilyapman. U bilan shunchalar yaqinligingizni o'ylamagan ekan-man.

Buni men keskinroq shaklda aytgandim va qaysi bir soniyalarda uning aqlni lol qiladigan xotirjamligiga putur yetkazgandek ham bo'ldim.

– O, albatta, – javob qildi qiz va yonog'iga qizilik yugurdi, – so'nggi paytlarda u bilan tez-tez uchrashib turardik – ochig'i, o'sha baldan so'ng.

Aytadigan boshqa gapimiz qolmagan, hammasi joy-joyiga tushgandi. Biroq Debora kabi tengi

yo‘q xilqat nima uchun o‘scha tuban kimsani sevib qoldi ekan? Yo‘q, bu yerda boshqa gap bolsa kerak...

– Bir nimani tushunmayotirman, – dedim yana men. – To chiqib ketguningizcha odamlar sizni o‘rab turgandi, sizdan ko‘z uzishmayotgandi. Obri qanday qilib haykalchalarni sizga berib yuborishni epladi, yana deng, hech kimga sezdirmay?

Aynan shu yerda uning xotirjamligiga butunlay barham berdim.

– Haykalchalarni menga berib yubordi?! – e’tiroz bildirdi u chuqur hayrat va g‘azab ichida. – Ey Xudo! Siz ham haykalchalarni o‘g‘irlashda meni Obriga ko‘mak berdi, deb o‘layapsizmi?

U g‘azab otiga mingan sanamga o‘xshardi va yanada go‘zalroq ko‘rinardi.

– Ammo... agar siz bo‘lmasangiz... unda... kim...

– Razumonda, yana kim bo‘lardi. Kartina ro‘parasida o‘scha talato‘pda Obri haykalchalarni unga tiqishtirib yubordi. U esa shunchaki sumkasiga solib qo‘ydi va chiqib ketdi.

– Razumonda? – hayratlanish navbatni endi menga kelgandi. – Demak, bularning hammasini ikkalasi uyushtirdimi?

– Ha-da. Razumonda buni yashirishga ham urinmadi. Ular turmush qurmoqchi edilar, pullari esa yo‘q. Razumonda bir ishbilarmon bilan tanish bo‘lib, o‘scha odam bu kabi buyumlar uchun yomon haq to‘lamagan bo‘lardi, boz ustiga, hech bir ortiqcha savollarsiz maqsadga erishildi.

– Ammo siz buning barchasida qanday rol o‘ynadingiz? – so‘radim men.

Deboraning chehrasi salgina o'zgardi. Bir soniya ichida men uning keksaygach qay ko'rinishga ega bo'lishini tasavvur qildim – xuddi o'sha tengsiz, mumtoz sanam, biroq insoniyat nodonligini o'zida his ettirgan va bundan ancha horigan.

– Obrining aytishicha, mabodo meni Titsian kartinasining ro'parasida suratga olishsa, ko'r-gazma uchun yaxshigina reklama bo'larkan, shuning uchun ham rozi bo'ldim. – Qiz sharaqlab kulib yubordi. – Hozirgina esladim. Agar Obri ha-zillashishni istab qolsa, moda jurnallari zarvarag'i uchun mendan a'lo darajadagi model chiqishini aytardi. Mohiyatan, shunday bo'lib ham chiqdi – hamma menga ko'zini lo'q qilib qarab qoldi, men esa, aslida, u va Razumondaning qing'ir ishlarini berkitib turdim, xolos.

Qiz o'rnidan turdi va haykalchalarni qo'liga oldi.

– Bularni esa qaytarishga to'g'ri keladi, – dedi u. – Buni hech bir shovqinsiz amalga oshirsa bo'-ladimi? Bu kaminaning nazdida aqlga zid, albat-ta, biroq Obriga nisbatan mahkama ish ochishini istamayman.

Men uni tushunib xo'rsindim.

– Avvalo, – davom etdi u, – bu Razumondaning g'oyasi edi. Ishonchim komil. Obrining xayoliga bunaqa narsalarning kelishi amrimahol – bu darajada aqli emas u.

– Nihoyatda mohirona ishlab chiqilgan, – dedim men. – Biroq siz darrov payqabsiz. Qanday epladingiz?

Debora mahzun jilmaydi.

— O'zimni aqlli deb hisoblamayman. Ammo shisha tagidagi eski, qoraygan kartina ajoyib ko'zgu bo'lib xizmat qildi. Obri mendan kartina ro'para-sida turishni iltimos qildi va men buni bajardim. Biroq tasviriy san'at asarlari meni qiziqtirmaydi, bilasiz. Shunchaki o'zimni tomosha qilib turdim va, albatta, shundoqqina ortimda nelar ro'y berayotganini ko'rmay qolmasdim...

Abduhamid PARDAYEV tarjimasi

— Озимни ақли деб хисобламайман. Аммо шаша тагидаги ески, қорайған картина ажойиб көзгу бўлиб хизмат қилди. Обри мендан картина ро'пара-сіда туришни илтимос қильди ва мен буни баярдим. Бироқ тасвирій сан'ат асарлари мені қизиқтірмайди, биласиз. Шунчаки о'зимни томоша қилиб турдим ва, албатта, шундоққина ортимда нелар ро'й берайотганини көрмай қолмасдим...

NUSXA

Brauergassda bir zamonlar Sigler ismli kim-sa yashagan. U ko'chada har kuni ko'rganimizga qaramay qiyofasi sira ham esda qolmaydigan toi-fadan edi, zotan, bunday kimsalarning barchasi bir og'iz so'z bilan „olomon“ deb yuritiladi.

Olomonga mansub Sigler hamisha omi omma kabi ish tutardi. U xislatdan xoli emasdi, biroq aytishga arzirli iqtidori ham yo'q edi; pulni va ko'ngilxushlikni yaxshi ko'rар, jon deb oliftagar-chilik qilar, ayni paytda aksariyat odamlar kabi qo'rqoq edi; binobarin ehtiroslari va qalb tug'yon-lariga erk bermas, aksincha, taqiqlardan hadiksirab, jazolanishdan qo'rqib, ming bir andisha iskanjasida kun kechirardi. Qarangki, uning maqbul xislatlari ham bor edi, umuman, risoladagidek odam bo'lib, jamiyatda qadr-qimmatim deb tashvish tortadigan, o'ziga anchagina bino qo'ygan odam edi. Garchi sariq chaqaga ham arzimaydigan nusxa bo'lsa ham, har bir odam kabi o'zini nainki shaxs deb bilar, hattoki olamning ustuni hisoblardi. Har qanday shubhalardan olis bo'lgani uchun dunyoqarashiga zid dalillarga duch kelganda, norozilarcha ikkala ko'zini ham yumib olardi.

Barcha zamondoshlari kabi u ham puldan keyingi qudratli kuch – ilm-u fan qarshisida ta'zim

bajo keltirardi. U fanning mohiyatini sira ham tu-shuntirib bera olmagan bo'lardi, biroq uni hisobdonlik yoki hasharotshunoslik singari allaqanday narsa deya tasavvur qilar, lekin davlat ilm-u fanga qancha sarmoya sarflayotgani-yu olimlarni qanchalar e'zozlashini juda yaxshi bilardi. Saraton o's-malarini davolash bilan bog'liq tadqiqotlarga alohida ehtirom bilan qarardi, chunki otasi saraton xastaligidan vafot etgandi, binobarin o'shandan buyon misli ko'rilmagan marralarni qo'lga kiritgan tabobat fani Siglerning ham otasi kabi nobud bo'lishiga aslo yo'l qo'ymaydi, deya qat'iy ishonardi.

Sigler ko'rpga qarab oyoq uzatishni xayoliga ham keltirmas, so'nggi rusumdagи kiyim-kechaklarni jon deb xarid qilishni istardi. Biroq hamyoni ko'tarmagani bois yosh-yalanglarning modaga o'chligini oshkora masxaralardi. O'zini mag'rur ko'rsatishga zo'r berib urinar, yaqin do'st-u birodarlari yoki xoliroq joylarda boshliqlar sha'niga tap tortmay mag'zava ham ag'darardi. Darvoqe, barcha sir-asrorni birma-bir fosh qilib, sizlarni zeriktirmoqchi emasman. Biroq Sigler haqiqatan ham xushro'y yigit edi, binobarin undan ayrilish katta yo'qotish bo'ldi. Afsuski, o'z rejalarini va asosli orzu-umidlariga zid ravishda Sigler hayotiga juda tez va hayratlanarli nuqta qo'ydi.

Shahrimizga ko'chib kelgandan keyin ko'p o'tmay yakshanba kuni el qatori hordiq chiqarishga ahd qildi. Shu paytgacha hech kim bilan osh-qatiq bo'lмаган, qolaversa, o'ta qat'iyatsiz bo'lgani uchun biron-bir uyushmaga a'zo ham bo'lмаганди. Ehtimol, shu bois juvonmarg bo'lgandir. Hech kimsa so'qqabosh bo'lmasin.

Xullas, shaharning osori-atiqalari bilan kifoya-lanishga majbur bo'ldi, albatta, oldin yaxshilab so'rab-surishtirdi. Nihoyat, tarix muzeyi va hay-vonot bog'iga borishni ko'ngliga tugib qo'ydi. Mu-zeyni tomosha qilish yakshanba kuni tushgacha tekin, hayvonot bog'iga esa tushdan keyin chegir-mali chiptalar bilan kirilar ekan.

Sigler yakshanba kuni o'zi yoqtiradigan antiqa tugmali, yelkalari keng kamzulni kiyib, tarix muzeyiga yo'l oldi. Yana ham salobatli ko'rinish niyatida nafis hashamdar aso – laklangan qip-qizil chorqirra jez kaltakni ham qo'liga ushlab oldi, biroq muzey xodimasi zalga kiraverishda hafsalasini pir qilib hassani olib qo'ydi.

Baland shiftli xonalardagi ko'pdan ko'p noyob jihozlarni ko'rgan tomoshabinlar ilm-fan qudra-tiga beixtiyor tasannolar aytardi. Peshtaxtalarda-gi yozuvlarni ko'zdan kechirar ekan, Sigler bunga qayta-qayta imon keltirardi. Darvozalarning zang-lagan kalitlari, xira tortgan taqinchoqlar kabi ash-qol-dashqollar ayni ularga biriktirilgan yozuvlar sharofati bilan e'tiborni tortar va alohida ahami-yat kasb etardi. Hayratlanmay bo'ladimi axir: ilm-u fan shug'ullanmagan, sinchkovlik bilan o'z tasarrufiga olmagan sohaning o'zi yo'q, – ha-ya, hademay nainki saraton xastaligi ham davo topadi, umuman, odamzodga mangu hayot baxsh etsa ham ajab emas.

* Ikkinci zalda shisha shkafga duch keldi, uning ko'zguday tiniq oynasida go'yo butun olam jilva qilardi. Uning qarshisida beixtiyor mixlanib qoldi, bejirim kamzuli, silliq sochlari, ko'ylagining quyon qulog'iday yoqalari, erinmay dazmollangan

shimi hamda bo'yinbog'ining chiroyli tuguniga suqlanib tikilib qoldi. Nihoyat, quvonchi ichiga sig'may, yog'ochga o'yilgan ko'hna naqshlarga id-dao bilan nazar solgancha tomoshani davom et-tirdi. „O'ta sodda va go'l, lekin qo'li gul yigitlar“, – deb o'yladi bag'rikenglik bilan. Fil suyagidan yasalgan hamda har soatda raqs tushadigan o'yinchoqli qadimiy soatni ham maroq bilan tomosha qildi. Keyin tomoshadan zerikdi, dam-badam es-nab, cho'ntagidan soatini olib qaray boshladi, xolisona aytganda, ko'z-ko'z qilsa arziydigan, otasidan meros qolgan, quling o'rgilsin vazmin oltin soat-da o'ziyam!

Tushgacha hali ancha vaqt borligidan hafslasi pir bo'lgancha navbatdagi zalga kirdi-yu, yana qiziqishi ortdi. Bu yerdan jodugarlik kitoblari, tumorlar, jodugarlarning engil-boshi kabi jaholatli o'rta asrlarga oid ashyolar joy olgandi. Bir tomonda qorindor shisha idishlar, hovonchalar, puflanadigan charm idishlar, kaftday qozonchalar kabi kimyogarlarning lash-lushlari. Zalning ayni shu burchagi movut arqon bilan to'silgan bo'lib, ashyolarga tegib bo'lmasligi ham lavhachada qayd etilgandi. Lekin bunday ogohlantirishlarga kamdan kam tomoshabin e'tibor beradi, boz ustiga Sigler zalda yolg'iz o'zi edi.

U arqon uzra beixtiyor qo'lini cho'zib, g'alati narsalarni paypaslab ko'ra boshladi. O'rta asrlar va o'sha davrlardagi g'aroyib irim-sirimlar haqida o'qigandi; lekin bunday bolalarcha be-ma'nilik bilan o'shanda odamlar nima uchun zo'r berib shug'ullangani-yu bunday jodugarlik va qallobliklarni nima uchun butunlay taqiqlab

qo'yishmaganiga sira ham aqli yetmasdi. Kimyogarlikni-ku kechirsa bo'ladı, axir ayni shu hunar negizida keyinchalik, hozirgi zamonda nihoyatda zarur kimyo fani paydo bo'lgan. Bir zamonlar til-la eritish uchun zarur bo'lgan antiqa qozonchalar hamda bema'ni bu ashqol-dashqollarning bar-chasi payti kelib juda qo'l kelganiga ishonch hosil qilganda, hayratdan beixtiyor yoqangni ushlaysan, zotan, bugungi kunda bularsiz aspirin kabi dori-darmonlarni ham, gaz bombalarini ham yaratib bo'lmas edi!

U xabдорини eslatадиган, quruq, deyarli vazn-siz bo'lib qolgan qoramtir soqqani qo'lga olib, salmoqlab ko'rib, endi joyiga qo'ymoqchi edi, ortida qadam tovushlarini eshitdi. Sigler dovdirab qoldi, chunki soqqani hamon ushlab turar, buning ustiga lavhachadagi ogohlantirishni o'qigandi. Soqqani changallab, keyin esa cho'ntagiga solgancha keyingi zalga o'tdi.

Ko'chaga chiqqandan keyin yana soqqani esladi. Qo'liga olib uloqtirmoqchi bo'ldi, lekin qiziqib hidladi. Zaifgina qatron hidi Siglerga xush yoqdi va soqqani yana cho'ntagiga soldi.

Restoranga kirib, tushlik buyurdi, bir necha gazetalarga ko'z yogurtirdi, bo'yinbog'ini to'g'rila-gan bo'ldi, xo'randalarga egnidagi kiyimlariga mos ravishda goh lutfan, goh kalondimog'lik bilan nazar tashladi. Ofitsiant oshxonada ancha ushlanib qoldi va janob Sigler beixtiyor o'g'irlagan soqqani qo'lga olib, yana hidladi. So'ngra tirnab ko'rdi va nihoyat bolalarcha qiziquvchanlik bilan og'zi-ga soldi. Soqqa og'zida bir zumda eridi va Sigler uning hech qanday ta'mi yo'qligidan hayron

bo'lgancha bir ho'plam pivo bilan yutib yubordi.
Ayni shu palla tushlik keltirildi.

Yigitcha rappa-raso soat ikkida tramvaydan sakrab tushdi-da, hayvonot bog'iga kirish uchun chipta xarid qildi.

Og'zi qulog'ida, maymunlar katagi tomon yo'naldi va shimpanze saqlanayotgan kattakon katak oldida to'xtadi. Xirsday erkak shimpanze unga ko'zini qisdi, do'stona imo qildi va shivirlaganday dedi:

— Ahvollar qalay, og'aynichalish?

Ajablangan va haddan tashqari qo'rqb ketgan tomoshabin shosha-pisha nari ketarkan, shimpanzening zaharxandasini qulog'iga chalindi:

— Kekkayganiga o'laymi buning! Esini yegan maymoq!

Sigler uzun dumli makakalarni tomosha qila boshladi. Ular odatdagidek irg'ishlagancha unga dedi:

— Qand bersang-chi bizlarga, birodar, qand! — yonida qand yo'qligini bilib, g'azabga kelib, „Voy qurumsog'-ey!..“ deganday tishlarini g'ijirlatib g'a-shiga tega boshladilar. Bunga sira chiday olmay, ranjigancha, yaxshiroq munosabatda bo'lar degan umidda olachipor bug'ular tomon yurdi.

Yirik bug'u shundoqqina g'ovga tumshug'ini tiragancha chaqchayib tikilib turardi. Sigler qo'rqa qanidan yuragi naq yorilay dedi. Nihoyat, g'alati soqqani yutib yuborgandan buyon jonivorlarning tilini tushuna boshlaganini anglatdi. Bug'u esa yirik-yirik ko'm-ko'k ko'zlari vositasida u bilan suhbatlashardi. Bug'uning xotirjam nigohida ulug'vorlik, sadoqat va orziqish tuyg'ulari aks

etardi, tomoshabinga nisbatan esa nafrat, hat-toki jirkanch nafrat yolqinlanardi. Jonivor osuda va viqorli nigohi bilan Siglerga shlyapasi, qo'lida ushlagan aso-yu soati hamda kiroyi kamzuli bilan butun turish-turmushi masxaraomuz, o'zing esa sariq chaqaga ham arzimaydigan tasqarasan, deganday tuyuldi. Bug'uning ta'qibidan najot axtarib Sigler arxar sari, undan esa tog' kiyigi sari, qoplon, yovvoyi to'ng'izlar va ayiqlar tomon shoshildi. Hech biri uning nafsoniyatiga teggani yo'q, biroq hamma-hammasi undan oshkora nafratlanardi. Jonivorlarning gaplariga qulq tutib, ularning odamzod haqidagi fikrlarini bilib oldi. Bu dahshatli mulohazalar edi. Ularning barchasi, xususan, nima uchun jirkanch, sassiqdan sassiq, ayni galalashgan ikkiyoqlilarga, xuddi mana shu salt-u satanglarga ozodlik og'ushida emin-erkin davr-u davron surish nasib etgan-a, deya hayratga tushardi.

Ko'zlari cho'g'day yonayotgan qora silovsin o'g'liga aytganlarini o'z qulog'i bilan eshitdi. Bu odamlar orasida ham kamdan kam uchraydigan sermulohaza va omilkorona or-u nomus muloqoti edi. Yakshanba kuni keladigan nafratomuz tomoshabinlar haqida kalondimog' yo'llbars asilzodalarga xos bosiqlik bilan qanchalar lo'nda filr bildirganini eshitdi. Sigler oppoq paxmoq yoll sherning nigohiga nazar solib, kataklar-u odam-zoddan nom-nishon ham yo'q darrandalar olami naqadar bepoyon va g'aroyib ekaniga ishonch hosil qildi. Zarang shox uzra haykalday qotib qolgan qayg'uli, ayni paytda mardonavor kaklikni ko'rди, soykalar esa hamon qadr-qimmatiga zarracha

ham putur yetkazmay hazil-huzul bilan umrguzaronlik qilayotganining guvohi bo'ldi.

Olam to'g'risidagi jamiki tasavvurlaridan judo bo'lgan, gangigan Sigler alam va umid bilan odamlarga yuzlandi. U qo'rquv va xavotirlariga barham beradigan nigohni axtarar, taskin-u tasalli bo'ladi gan ezgu fikrlardan umidvor bo'lib, odamlarning suhbatlariga qulq tutdi, insoniy qadr-qimmat, odamoxunlik, oliyjanoblik va pinhona afzallik xislatlarini topish maqsadida hayvonot bog'ida to'da-to'da kezib yurganlarning imo-ishoralarini kuzatdi.

Biroq barcha umidlari puch bo'lib chiqdi. Odamlarning ovozlarini eshitar, xatti-harakatlari, imo-ishoralari va nigohlarini ko'rар, biroq endilikda bularning barchasiga darrandaning nigohi bilan nazar solgani bois hamma jonzot turlarining jirkanch umumlashmasidan iborat mazkur hayvonsifat mavjudotlarning soxta, munofiqona va sharmandali to'dasi timsolida tubanlikdan bo'lak hech vaqo topa olmadi.

Sigler hayvonot bog'i bo'ylab alam bilan go'yo charx urar, xijolatga botganidan yer yorilsa-yu, yerga kirib ketguday bo'lardi. Qo'lidagi chorqirra asoni allaqachon butalar ichiga uloqtirgandi, qo'l-qopni ham o'sha tomonga otdi. Biroq shlyapsini ham otib yuborib, poyabzalini ham yechib, bo'yinbog'ini ham yulqib olib, bug'u tumshug'ini tirab turgan g'ovga yopishgancha yig'lay boshlaganda, rosmana olag'ovur qo'pdi, uni oyoq-qo'liga kishan solib jinnixonaga jo'natishdi.

Abduhamid PARDADEV tarjimas

Yuxan FALKBERGET

QISMAT

Tun yarimlab borardi. Tog'lik yigit Ber Enason keksa shifokorning uyi oldida g'amga botib turardi. Sovuq qish osmonida yulduzlar ham tit-rayotgandek tuyulardi. Ayoz chorqirra derazalarni ham billur naqshlar bilan bezagan. Olisdan olis yo'lni bosib kelgan yigit sovqotganini nihoyat, endi angladi.

Shinam xonadon uni issiq bag'riga oldi. Qurruq qoraqarag'ay o'tinlari alanga olib, oftobday isitar, qizigan pechka esa affsonaviy farishta kabi nay chalayotganga o'xshardi. Biroq bu farishta ayni pallada hech qanday yaxshilikni va'da qilmasdi.

Uy haminqadar jihozlangandi. Devorga ilingan bir juft qilich ostidagi kartinada yozuv stoli ustida lipillaryotgan sham nurlari jilva qildi. Bu qilichlar bir paytlar portretdag'i siymoga tegishli bo'lgan. Aytishlaricha, bu bahodir o'z davrida ko'plab mamlakatlarning qiz-juvonlarini ishq o'tida kuydirgan. Bemorlar halovatini buzmagan kezlarda do'xtir qilichlarga tikilib xayol surishni xush ko'rardi.

Ber Enason o'tirgani botinmadi. Faqat tortinchoq bo'lgani uchun emas. Bug'ularning shoxlidan ko'z uzmay po'stak to'shalgan yalang cha-

nada uzoq yo'l bosib kelgan yigitchaga bejirim g'ilofli uch oyoqli stulga o'tirish noqulay tuyuldi. Keksa do'xtir buni payqamadi, u o'z ishiga shu qadar berilgandiki, yigitga iltifot ko'rsatish xayoliga ham kelmasdi.

Ber imkon boricha tez qaytib ketishi kerak: Sutoxaugen yaqinidagi olis kulbada sevgan ma'shuqasi Kletta og'ir xasta bo'lib yotibdi. Klettani tirik ko'rish nasib etarmikan, degan shubha uning bag'rini o'rtardi. Ko'z yoshlarini arang tutib turardi: Kettaning visoli nasib etadigan munavvar ayyom nahotki toabad armon bo'lib qolsa?! Bu nurli ayyomga ularning ikkovi ham juda-juda intiq edi. Alamdan o'kirib yubormasa bas. Chuqur-chuqur nafas olsa... Shimolda, tog'lar yonbag'rida nima uchundir hamisha shunday bo'lar, qishda kimdir vafot etardi. Bu muqarrar qismat tusini olgandi. Biron kimsaning kuni bitgani hamono cherkov qo'ng'iroqlarining sadolari samoga tutash tog'larni ham larzaga solardi. Bu gal, aftidan, ma'shuqasi Kettaning kuni bitadigan ko'rindi.

Do'xtir bemor uchun dori tayyorlay boshladi. Bu juda qo'li yengil do'xtir edi. Hech kimdan yordamini ayamas, shu bois butun o'lka ahlining mehrini qozongan yagona odam edi. Ko'plab odamlarning hayotini saqlab qolgan do'xtir keksaligiga qaramay, hamon yordamga oshiqar, bemorlarni sidqidildan parvarish qilardi. Katta-yu kichikni tug'ishganiday ko'rindi. Aholi ham mehribonchiligini munosib qadrlar, uning portretini istalgan paytda afsonaviy qahramon portreti yoniga ilishga tayyor turardi. Do'xtir, eng muhimi, kasb-u kori orqasidan mo'may daromad qilishni sira o'ylamasdi.

— Bemor xotiningmi, Ber Enason? — so'radi do'xtir.

Savol yigitning bag'rini o'rtab yubordi. Ber bo-shini quyi soldi.

— Shunday desa ham bo'ladi, — entikib dedi u.

Do'xtir o'ta o'tkir hidli suyuq malhamni tom-chilatib shisha idishchaga quyardi. Asta tomayot-gan tomchilarni erinmasdan birma-bir sanardi. Nihoyat, do'xtir shisha idishning og'zini yopdi. Malham tez yordam berishi uchun uni bemorga qanday ichirish kerakligini yigitga batafsil tu-shuntirdi.

— Umid qilamanki, ma'shuqang tuzalib ketadi, — deb qo'shimcha qildi.

— Rahmat!

Ber shisha idishni tez chontagiga joyladi. So'ng charm hamyonini olib, stolning ustiga bitta kumush tanga qo'ydi.

— Tezroq yo'lga tush! — dedi do'xtir va unga tangani qayta uzatdi.

— Roziman, olavering, — dedi Ber. U qirov qopla-gan eshik kesakisiga qo'li bilan suyanib turardi.

— Qaytarib ol deyapman senga! Nikoh to'yini o'tkazishning o'zi bo'lmaydi! — dedi do'xtir mehr bilan.

Ber hamon eshikka suyangancha turardi.

— Zora shu dori bilan tuzalib ketsa, — u shun-day deb do'xtirga savolomuz tikildi.

Uyda osoyishtalik hukm surardi. Derazalarda oy nurlari shu'lalanar, tashqaridagi sovuq ich-kariga ham asta-sekin kirib kelayotgandek edi.

Do'xtirni xayol olib qochdi. Ayni shunday qish tuni oqimtir-sarg'ish ulovdagi chavandozni xotini-

dan toabad judo qilganini esladi. Ha, ayni shunday kechada...

– Har daqqa g‘animat, bora qol, o‘g‘lim! – deya yigitga samimiy oq yo‘l tiladi ko‘zoynakli keksa do‘xtir.

Va Ber tun qo‘ynida arvoh kabi g‘oyib bo‘ldi.

* * *

U tog‘li voha bo‘ylab chanada yelib borardi. Oyning sovuq shu‘lalarida qor kumushday tovlaniadi. Yassi darani ayoz kishanlab olgandek. Kletta xastalanib yotgan kulba ayni daraning poyonida, Sutoxaugenning ortida bo‘lib, Ber Enason yonidagi malham bilan o‘scha tomon oshiqardi. Klettaning o‘pkasi shamollagandi. Yetti kundan buyon xastalik bilan olishardi. Xastalik kuchaygan yettinchi kecha.

Yigit avvaliga shamolday uchdi. Keyin bug‘u holdan toya boshladi. Chana bechora jonivorga ancha og‘irlik qilardi.

Bunday imillab ketishda faqat keyingi kungina manzilga yetib borishi mumkinligini Ber anglatdi. U qo‘lidagi kaltakni bug‘uga o‘qtalgancha bor ovozi bilan hayqirdi. Biroq hayqirig‘i osuda tog‘lar bag‘riga sassiz singib ketdi.

Tong bo‘zarganda u faqat Vargfelmannga yetib kela oldi. Nihoyat, qizg‘ish quyosh nurlari tog‘lar uzra yastandi. Kun boshlandi. Xira tortgan oy tog‘lar uzra inganday. Yulduzlar so‘nib, dara us-tida ertalabki yorug‘lik o‘ynay boshladi. Vargfelmann dan kulbagacha yarim kunlik yo‘l qolgandi. Biroq bug‘u holdan toydi. U chanani arang tortib borardi. Ber es-hushini tamomila yo‘qotdi. Qo‘li-

dagi kaltakni qahr bilan o'ynatar, bug'uga bor zahrini sochardi. Qo'qqisdan jonivorni ura ketdi. Bug'u har zarbadan hushyor tortar, biroq charchoqni yenga olmasdi.

Ber Enason arslonday na'ra tortib, bor kuchi bilan bug'uga zarba berdi. Uning qichqirig'i qanchalar dahshatli bo'lmasin, tong oldi g'ira-shirada ojizona yangradi. Faqat ro'paradagi tog' qoyasi och qolgan bo'rining uvullashiday sovuq aks sado qaytardi va yana sukunat cho'kdi.

Kletta esa o'z kulbasida to'shakda yo'lga ko'z tutar, xastalikning yettinchi kuni boshlangandi. Sutoxaugenda kun boshlanmasdan oldin u bechora o'z kulbasida jon taslim qiladi. Nozik jismidagi harorat so'nadi. Shundan keyingina oftob chiqadi...

– Hoy jonivor, ildamroq qadam tashlay qolsang-chi! – Bug'uga qichqirdi Ber. – Kletta men uchun qanchalar qimmatli ekanini bilasan-ku! Yolvoraman senga! Ma'shuqam o'lmasligi kerak! O'lmasligi kerak, eshityapsanmi?!

U kuchdan qolgan bug'u bilan shunday dardlashardi. Jonivor esa qorga yotib olgan, iztirob to'la ko'zлari bir juft baliq tangasi kabi yaltirardi.

Ber Enason shiddat bilan chanadan tushdi. Bug'uning qoshida tiz cho'kkancha bo'ynidan quchoqlab, shivirlay ketdi:

– Toychaday mitti bo'lgan kezlariningda Kletta seni qanday mehr bilan parvarish qilganini unutmagan bo'lsang kerak?

Jonivor boshini mardona ko'tardi, iliq oftob nurlari manglayida jilva qildi. O'rnidan turishga urindi, biroq katta boshini yana majolsiz yerga qo'ydi.

– Xudo haqqi...

Ber bug'uni shoxlaridan tutgancha ko'tarmoq-chi bo'ldi. Befoya. Yigit bug'uning yirik ko'zlari-ga bir nafas tikildi. Alamdan a'zoyi badani titrar, og'zi burishib ketardi. Ber pichoqni olib, bug'uga po'pisa qila boshladi:

– O'diraman, la'nati!

Lekin qo'rquvdan ilkis o'zini orqaga tashladi. Dahshatga tushdi. Yig'lagancha ortiga o'girildi. Bu jonivor xasta qaylig'iga yordam bera qolsa nima qilarkan-a! Qaylig'i hamisha muloyim va mehribon bo'lgan. Ber daf'atan qaylig'ini ko'rди. U o'rmon chetida turar va siyosidan nur yog'ilardi. Bir tutam yoz tuni poyoniga yetgan. Daraxtlarning yaproqlarida durday shoda-shoda shabnamalar. Sho'x jilg'alar shovullaydi. Bu shovqin-suronlar ostida qaylig'inining voha uzra yangrayotgan qo'shig'i eshitilmay qoldi.

– Klettani nahotki unutgan bo'lsang? – Ber yana bug'uning bo'yniga chang soldi.

Oftob esa cho'qqilar oralig'idan qilichday joy olib ulgurgandi...

Shunda Ber Enason keskin tizzalab joylashdi, ko'z ochib-yumguncha ham fursat o'tmay bug'uning baxmalday yungiga pichoq sanchildi. Yaralangan jonivor uzundan uzun xirillagancha o'rni-dan turishga urinib tipirchiladi. Biroq jarohatdan qon otilar – ortiq hech majoli qolmagandi. Faqat jon taslim qilishgina qolgandi.

Ber qaddini rostladi. U jarohatga yopishgan-cha issiq bug'u qonini simira boshladi. Oyoq-qo'li bir nafasda kuch-quvvatga to'ldi. Jonivordan nari ketib, tog'larga burgutday tikildi... Bu paytga ke-

lib quyosh o'z manziliga, Sutoxaugen ortiga ham nur socha boshlagandi... U yana jonivorning jarohatiga yopishdi, issiq qonni to'yib-to'yib simirdi. Daf'atan bug'uning so'nggi marta titraganini sezdi. Jonivor o'lgandi...

Ber timdalangan yuzi dokaday oqargan alfovza archa butalari bilan qoplangan o'nqir-cho'nqirlar bo'ylab yugurib borardi.

Nafasi bo'g'ziga tiqilib qolsa ham yugurishdan to'xtamadi. Sutoxaugen hali juda ham olisda! Nazarida, tog'lar har qachongidan ham g'amgin ko'rindi. Qora terga botdi. Biroq hamon chopgani chopgan edi... U shu tog'larda voyaga yetgandi, lekin ularni birinchi marta ko'rayotgandek edi.

Kun oxirladi. Quyosh ufqqa indi. Ber holdan toyib tiz cho'kkancha jilg'adan tashnaligini qondirdi. Botib borayotgan oftob nurlari suv mavjlarida jilvalandi.

Ber Enason boshini ko'targan edi, dastlabki yulduzga ko'zi tushdi.

Daf'atan qulog'i shuvulladi, oyoqlari chalishib ketdi:

– Tamom!

U cherkov qo'ng'irog'inining ovozini eshitgandi. Qo'ng'iroq sadosi olis-olislardan kelardi.

Bu – zavol sadosi edi. Kimdir vafot etgandagina shu asno qo'ng'iroq chalinardi. Shom ichra alamlı sadolar dara bo'ylab quzg'unday kezar, Ber Enason esa tayoqqa suyangancha tosh qotib tinglardi.

Dildora ARZIKULOVA tarjimasi

HUKM

Bahor faslining ajoyib dam olish kunlaridan biri, tong mahali edi. Yosh tadbirkor Georg Bendeman daryo yoqasidagi pastak uyining birinchi qavatidagi ish bo'lmasisida o'tirardi. Daryo bo'ylab qator qad rostlagan uylar ikki tomchi suvdek bir-biriga o'xshar, ular bir-biridan faqat rang-tusi va past-balandligi bilan farqlanardi, xolos. U xorijda yashovchi bolalik do'stiga jo'natmoqchi bo'lgan xatni yozib tugatdi, so'ng varaqni imirsilanib xatxaltaga joyladi va yozuv stoliga suyangancha derazadan ko'rini turgan daryoga, ko'prikkva va narigi sohil tomonlarda endi-endi ko'klanib kehayotgan adirga ko'z tashladi.

O'sha do'sti vatanida ishlari yurishavermagach, toqati toq bo'lgani, bir necha yil muqaddam Rossiyaga jo'navorib zap ish qilganini o'ylab ketdi. Hozir u Peterburgda tijoratchi, avvaliga uning ishlari rosa yurishdi, biroq do'sti ozib-yozib kelib qolgan kezлari keyingi paytda ishlari orqaga ketayotganidan shikoyat ham qilib qo'yardi. Xuldas, u musofirchilikda durustroq naf topayotgan bo'lmasa-da, o'sha besamar ishining etagini tutgan, bolalikdan tanish chehrasi, begona yurtda o'stirilgan soqoliga qaramay kasalmandlik alomati bo'lmish zahil basharasi undagi xastalikning

hamon barham topmaganidan dalolat berib turardi. Aytishiga qaraganda, o'sha tomondagi vatandoshlar bilan til topishib ketolmagan, ustiga ustak rus oilalaridan ham do'st-yor orttirolmagan, va shu tariqa so'qqaboshligicha qolgandi.

Boshdan oyoq boshi berk ko'chaga kirib qolgan bunday odamga nima deb ham xat yozarding? Achinsang-achinarsan-u, biroq yordam berishning mutlaqo iloji yo'q. Vatanga qaytgin, shu yerda ham yashagandek bo'lib yuraver, eski osh-na-og'aynilar bilan qayta topishib olsang – bunga hech kim monelik ko'rsatmaydi – qolganiga yor-do'stlar qo'llab yuborishar deb maslahat berish kerakmikan? Biroq buning boshqa tomoni ham bor, ya'ni qanchalik muloyimlik qilmagin, u so'zlariningni og'ir olishi muqarrar, – axir bunday gaplarni aytish, shuncha payt sarson-u sargardon sang'ib, yolchitib hemiri orttirolmading, endi havoyi yurishlaringni yig'ishtir-da, uyingga qayt, degandek gap-da, uyiga qaytgach esa odamlar uning noshudligini betiga solishadi, hech yoqqa sang'imay ham shu yerda ishini qoyillatib yurgan do'stlari uddaburon-u, u esa so'qimday, hech vaponi uddalolmaydi deganlaridek, u holda uning uchun yagona yo'l qoladi: bu yog'iga yor-do'stlari chizgan chiziqdandan chiqmay, kim nima desa o'shaning izmida yuraveradi. Qolaversa uni bu qadar iztirobga solmayman deyolmaysan ham. Hoynahoy, uni vatanga qaytishga ko'ndirish ham oson emasdir – bir safar bu yerdagi shart-sharoitlardan begonalashib ketdim degandi-ku – shunda u aqlan tushunib yetsa-da, musofirchilikni afzal bilaveradi, harchand ko'ndirishga urinish-

lar bil'aks uning qaysarligini oshiradi va ishlar chappasiga ketib, u sobiq do'stlaridan battar uzoqlashib ketishi hech gapmas. Basharti u maslahatlarga ko'nib, qaytsa-yu, bu yerda o'zini xo'rlangandek his qilsa – boshqalarning aybi bilan emas albatta, shart-sharoit yo'qligi tufayli shunday bo'lishi ehtimoldan xoli emas – va shuning oqibatida sobiq do'stlari bilan chiqishib ketolmasa, ularning ko'magisiz esa oyoqqa turib olishi amrimahol, o'zining ahvolidan isnodga qolib yursa va vatandan ham, do'stlaridan ham hafsalasi pir bo'lsa, shunday holatga tushganidan ko'ra, har qancha ishi yurishmagan taqdirda ham o'sha musofirchiligidagi yuravergani ma'qul emasmi? Ahvol shunday bo'lib turgan bir paytda u bu yerda yo'lini topib ketishiga umid bog'lashi mumkinmi?

Mana shu kabi mulohazalar bois unga xat yo'llagan taqdirda ham shunchaki tanish-bilishga yozayotgandek yozish kerak. Do'stining vatanga qadam bosmaganiga uch yildan oshib ketdi, buni u arzimagan vajlar bilan asoslamoqchi bo'lar, ya'ni Rossiyada siyosiy beqarorlik hukm surib turgan bir paytda, unga o'xshash mayda tadbirkorlar birrovga bo'lsa-da uyoq-buyoqlarga ketishining sira iloji yo'q emish. Vaholanki, yuz minglab ruslar butun dunyo bo'ylab emin-erkin sayr-u sayohat qilib yurishibdi. Bu yog'ini so'rasangiz, ayni shu uch yil mobaynida Georgning hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bundan ikki yil muqaddam onasi vafot etganidan, o'shandan buyon Georg keksa otasi bilan birga yashayotganidan do'sti boxabar, yozgan xatida sovuqqina hamdardlik izhor ham qilgan, chamasi,

musofirchilikda bunaqangi ayriliqlardan tug'ilajak qayg'u to'la idrok etilmas, ehtimol. O'shandan buyon Georg savdo-tijorat ishlariga, shu qatori boshqa ishlariga yanayam qattiqroq mukkasidan ketgandi. Hoynahoy, onasi hayotlik davrida ota-si uni bu qadar o'z holiga qo'ymas edi, zero xizmat borasida u yakka o'zinigina tan olar, garchi onasining vafotidan so'ng otasi hamon ishlayot-gan esa-da, burungi shashtidan tushgan, ehtimol – nazarida, bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas – shart-sharoitning ancha qulay kelib qolgani jiddiy ahamiyat kasb etdi – har qalay, keyingi ikki yil ichida Bendemannning firma-si kutilmaganda shu qadar gullab-yashnadiki, burungidan ikki baravar xizmatchilar yollandi, savdo aylanma mablag'i besh baravarga oshdi, shu ketishda kelgusidagi ishlar bundan-da a'llo bo'lishi muqarrar edi.

Biroq do'sti bunday o'zgarishlardan bexabar. Ilgari – chamasi, hamdardlik bildirgan o'sha xatida shekilli – Georgni Rossiyaga kelishga da'vat qilgan, asli nasli tijoratchi bo'lgan Georgdek odamlarga Peterburgda porloq istiqbollar kulib boqishini batafsil bayon etgan edi. Oshnasi xatida keltirgan raqamlar Georg bu yerda qo'lga kiritayotgan yutuqlar oldida hech narsaga arzimasdi. Biroq Georg tijorat sohasidagi muvaffaqiyatlarini do'stiga dos-ton qilgisi kelmadi, ular haqida endi yozguday bo'lsa do'stida g'alati taassurot qoldirishi mumkin. Shu bois ham Georg dam olish kuni xotirjam o'tirib olib xayolga nima kelsa bir boshdan erin-may yozayotgan edi. U faqat bir narsani – do'sti uzoq yillardan buyon musofirchilikda qadrdon

lar bil'aks uning qaysarligini oshiradi va ishlar chappasiga ketib, u sobiq do'stlaridan battar uzoqlashib ketishi hech gapmas. Basharti u maslahatlarga ko'nib, qaytsa-yu, bu yerda o'zini xo'rlangandek his qilsa – boshqalarning aybi bilan emas albatta, shart-sharoit yo'qligi tufayli shunday bo'lishi ehtimoldan xoli emas – va shuning oqibatida sobiq do'stlari bilan chiqishib ketolmasa, ularning ko'magisiz esa oyoqqa turib olishi amrimahol, o'zining ahvolidan isnodga qolib yursa va vatandan ham, do'stlaridan ham hafsalasi pir bo'lsa, shunday holatga tushganidan ko'ra, har qancha ishi yurishmagan taqdirda ham o'sha musofirchiligidagi yuravergani ma'qul emasmi? Ahvol shunday bo'lib turgan bir paytda u bu yerda yo'lini topib ketishiga umid bog'lashi mumkinmi?

Mana shu kabi mulohazalar bois unga xat yo'llagan taqdirda ham shunchaki tanish-bilishga yozayotgandek yozish kerak. Do'stining vatanga qadam bosmaganiga uch yildan oshib ketdi, buni u arzimagan vajlar bilan asoslamoqchi bo'lar, ya'ni Rossiyada siyosiy beqarorlik hukm surib turgan bir paytda, unga o'xshash mayda tadbirkorlar birrovga bo'lsa-da uyoq-buyoqlarga ketishining sira iloji yo'q emish. Vaholanki, yuz minglab ruslar butun dunyo bo'y lab emin-erkin sayr-u sayohat qilib yurishibdi. Bu yog'ini so'rasangiz, ayni shu uch yil mobaynida Georgning hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bundan ikki yil muqaddam onasi vafot etganidan, o'shandan buyon Georg keksa otasi bilan birga yashayotganidan do'sti boxabar, yozgan xatida sovuqqina hamdardlik izhor ham qilgan, chamasi,

musofirchilikda bunaqangi ayriliqlardan tug'ilajak qayg'u to'la idrok etilmas, ehtimol. O'shandan buyon Georg savdo-tijorat ishlariga, shu qatori boshqa ishlariga yanayam qattiqroq mukkasidan ketgandi. Hoynahoy, onasi hayotlik davrida ota-si uni bu qadar o'z holiga qo'ymas edi, zero xizmat borasida u yakka o'zinigina tan olar, garchi onasining vafotidan so'ng otasi hamon ishlayotgan esa-da, burungi shashtidan tushgan, ehtimol – nazarida, bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas – shart-sharoitning ancha qulay kelib qolgani jiddiy ahamiyat kasb etdi – har qalay, keyingi ikki yil ichida Bendemannning firma-si kutilmaganda shu qadar gullab-yashnadiki, burungidan ikki baravar xizmatchilar yollandi, savdo aylanma mablag'i besh baravarga oshdi, shu ketishda kelgusidagi ishlar bundan-da a'lo bo'lishi muqarrar edi.

Biroq do'sti bunday o'zgarishlardan bexabar. Ilgari – chamasi, hamdardlik bildirgan o'sha xatida shekilli – Georgni Rossiyaga kelishga da'vat qilgan, asli nasli tijoratchi bo'lgan Georgdek odamlarga Peterburgda porloq istiqbollar kulib boqishini bat afsil bayon etgan edi. Oshnasi xatida keltirgan raqamlar Georg bu yerda qo'lga kiritayotgan yutuqlar oldida hech narsaga arzimasdi. Biroq Georg tijorat sohasidagi muvaffaqiyatlarini do'stiga dos-ton qilgisi kelmadi, ular haqida endi yozguday bo'lsa do'stida g'alati taassurot qoldirishi mumkin. Shu bois ham Georg dam olish kuni xotirjam o'tirib olib xayolga nima kelsa bir boshdan erinmay yozayotgan edi. U faqat bir narsani – do'sti uzoq yillardan buyon musofirchilikda qadrdon

shahar haqidagi o'zgargan qarashlariga va bunga ko'nikishlariga putur yetkazishni istamayotgan edi. Shu kabi xayollarda Georg bir-biridan ancha uzoq vaqtarda yo'llagan uch xatida do'sti bilan o'zi uchun mutlaqo aloqasi bo'lmanan kishining yanayam mutlaqo begona bo'lgan qiziga unashtirilgani xususida yozgan, garchi Georgning o'zi istamasada, do'stini bunga qiziqtirib ulgurgandi.

Biroq Georg bir oy muqaddam anchagina bo'bro' oilaning qizi bo'lmish froybyn Frida Brandenfeld bilan unashtirilgani haqida yozish uning uchun ko'proq ma'qul tuyulayotgan edi. U bo'lg'usi kelin bilan do'sti va u bilan yozishmalarida tutgan uslubi xususida ko'p martalab suhbatlashdi.

– Bundan chiqdi, do'sting to'yimizda ishtirok etmaydimi? – deb so'radi qiz. – Lekin men sening barcha do'stlaring bilan tanishib olishim mumkin bo'lar.

– Uni bezovta qilgim kelmayapti, – javob qildi Georg. – Meni to'g'ri tushun: taklif qilsak, u albatta keladi, har qalay mening fikrim shunday, biroq u bizni ko'rib xijolat chekadi, hatto o'ksinishi ham mumkin, menga havasi keladi va turgan gapki, bundan unda qattiq norozilik paydo bo'ladi – noroziligiga chidolmay – yolg'iz o'zi qaytishiga to'g'ri keladi. Bir o'zi, yolg'iz qaytish nima ekanini tushunasammi?

– To'yimiz bo'lganini boshqalardan eshitib qolsa-chi?

– Eshitsa-eshtar, men buning oldini ololmayman, lekin uning hozirgi yashash tarzida qulog'iga yetmay qolishi ham hech gap emas.

- Hamon do'stlaring shunday odamlar ekan, Georg, sen ham uylanmaganing ma'qul edi.
 - Bu borada ikkovimiz ham aybdormiz. Lekin men iddao qilmoqchi emasman.
- Qiz uning qaynoq va tinimsiz o'pichlaridan behol nafas rostlab, dedi:

- Har qalay achinyapman-da.

Shundagina Georg do'stiga bor-yo'q gapni boricha yozishning hech qanday xavotirli joyi yo'q-ku, degan qarorga keldi. „Men qanday bo'lsam, bas, shundayligicha bo'lsin-da, – deya ahd qildi u. – Do'stligimiz deb men o'zimni o'zgartirolmayman, o'zimdan boshqa odam yasolmayman-ku“.

Shunday qilib, dam olish kuni ertalabdan yozishga kirishgan uzundan uzoq xatida o'zining unashtirilayotgani to'g'risidagi xabarni quyidagi-chá bayon qildi: „*Eng yaxshi xushxabarni men xatimning oxiriga saqlab qo'ygandim. Men ancha gina boobro' oila farzandi bo'lmish froylayn Frida Brandenfeld bilan unashtirildim, ularning oilasi sen bu yerlardan jo'nab ketgach, ancha keyin shahrimizga ko'chib kelishgan, shu bois sen uni tanimaysan. Keyingi xatlarimda qaylig'im to'g'-risida yozarman, bu safar men g'oyatda baxtiyorligimni, sen bilan oramizdagi munosabatlarda faqat bir narsa o'zgarganini – hozirga qadar sening oddiygina bir do'sting edim, endilikda esa judayam baxtiyor do'sting ekanligimni ta'kidlab qo'yishim kifoya. Qolaversa, kelinning o'zi ham senga xat yozar, hozircha u senga g'oyibona salom yo'llashimni iltimos qilmoqda, kelin bilan samimi y do'st tutinishing turgan gap, so'qqabosh yigit uchun shuning o'ziyoq katta gap. Sharoiting*

bu yoqlarga kelib, bizning to‘yga qatnashishingga monelik qilishini yaxshi bilaman, lekin mening niko‘h to‘yim sen uchun har qanday sabab-u vajlar dan ko‘z yumib, kelishingga arzimaydimi? Nima bo‘lgan taqdirda ham o‘zingga va ro‘y-hushingga qarab ish tut“.

Georg yozuv stoli yonida qimir etmay va xatni qo‘lidan qo‘ymay ancha vaqtgacha derazadan tashqariga termilib o‘tirdi. Ko‘chadan o‘tib bora-yotgan tanishi bosh irg‘ab salomlashganiga e’tiborsiz, tabassum bilan javob qaytardi.

Nihoyat, u xatni kissasiga soldi-da, bir necha oydan buyon boshini suqib qaramagan otasining yotoq bo‘lmasi qarshisidagi kaltagina yo‘lakka o‘tdi. Shu tobda otasining huzuriga kirish zaruriyati ham yo‘q edi, chunki ota-o‘g‘il hamisha do‘konda uchrashishadi, restoranda ovqatlanishadi: to‘g‘ri, kechki ovqatni har kim o‘zicha qilar, Georg o‘rtoqlari yoki keyingi paytda qaylig‘i bilan uchrashmagan taqdirdagina otasi bilan yarim soatcha umumiylar mehmonxonada o‘tirishar, bunday paytlarda ularning har ikkovi ham muk tushgancha gazetxonlikdan bosh ko‘tarishmasdi.

Georg ertalabki quyosh charaqlab turganiga qaramay, otasining yotog‘i qorong‘iligidan hayron bo‘ldi. Aftidan, kaftdakkina hovliga olib chiqadigan ro‘paradagi baland devor xonani quyoshdan to‘srandek ko‘rindi. Otasi onasini yodga soluvchi turfa buyumlar bilan to‘lib-toshgan burchakda xiralashib qolgan ko‘zlarini zo‘riqtirmaslik maqsadi da gazetani yorug‘likka solib, yonlamasiga o‘tirardi. Nonushtaga tortilgan yemaklarga qo‘l urilmagan, ular keltirib qo‘yilgan holida o‘shanday turardi.

— Ha, Georg, senmisan, — otasi shunday deb darhol o'rnidan qo'zg'alib, unga peshvoz yurdi. Qadam olishidan egnidagi xalatning serbag'ir etaklari yoyilib ketdi. „Otam hamon pahlavon kelbatli“ degan o'y kechdi Georgning xayolidan.

— Judayam qorong'i-ku, — dedi u.

— Ha, qorong'i, — javob berdi otasi.

— Derazalar ham yopiq.

— O'zim ochmadim, shunisi ma'qul.

— Tashqari iliqqina, — dedi Georg xuddi avval boshlagan gapini davom ettirayotgandek, va o'tirdi.

Otasi stoldan idishni olib, qutining ustiga qo'ydi.

— Men senga aytib qo'yimoqchi bo'lib kirgandim, — davom etdi Georg otasining harakatlarini e'tiborsiz kuzatib, — unashtirilganim haqida Peterburgga xat yozdim.

U kissasidagi xatni chiqarmoqchi bo'lib qo'l suqdi-yu, o'sha zahoti niyatidan qaytib, xatni olmadi.

— Peterburgga deysanmi? — so'radi otasi.

— Og'aynimga, — deb izoh berdi Georg va otasining ko'ziga razm soldi. „Do'konda mutlaqo boshqacha tutadi o'zini, — deb o'yladi Georg. — Bu yerda kresloda yastanib o'tiribdi, qollarini ko'ksi ustida chambarak qilib olibdi“.

— Ha. Do'stingga, — dedi otasi ta'kid aralash urg'u berib.

— Ota, men faqat u haqida qayg'urayotganim uchun uylanayotganim to'g'risida yozmayotgan edim, boshqa sababi yo'q. Bilasan-ku, do'stim juda murakkab, mujmal odam. Uylanganimni mendan eshitmay qo'ya qolsin, boshqalardan eshitsa-eshitar deb o'ylagandim, uning hozirgi yashash

tarzida bitta-yarimtadan qulog'iga yetishi ham qiyin. Ishqilib, mendan eshitmasin, degan niyatda edim-da.

– Niyatingdan qaytdingmi? – deb savol qotdi otasi, so'ng gazetani deraza raxiga, ko'zoynagini esa gazeta ustiga qo'ydi va ularni kafti bilan to'sdi.

– Ha, niyatimdan qaytdim. Hamon u mening jonajon do'stim ekan, quvonchimga u ham sherik bo'lishi kerak, degan xayolga bordim. Shu niyatda sira ikkilanib o'tirmay yozishga qaror qildim. Yozishga yozdim-u, xatni jo'natishdan avval sening oldingdan o'tib qo'yay degandim.

– Georg, – dedi otasi va kemshik tishlarini ko'r-satib, og'zini lang ochdi, – qulq sol! Men bilan maslahatlashishga kiribsan. Bu, sening sha'ningga durust albatta. Lekin sen menga bor gapni ochiq-oydin aytmasang, bu durustliging hech va-qoga arzimaydi, hech vaqodan o'n karra battarroq yomon narsa bu. Shu tobda bunga daxlsiz narsalar haqida og'iz ochmoqchi emasman. Mehribon onamizning vafotidan so'ng noxushdan noxush hodisalar ro'y beryapti. Ularning qulog'iga yetib borishi hech gapmas, hatto biz o'ylagan-dan ko'ra tezroq yetib qolishi ham mumkin. Men savdo tashkilotimizda yuz berayotgan qandaydir voqealardan bexabar qolayotganga o'xshayapman, ehtimol, mendan hech nimani yashirishmayot-gandir – shu tobda mendan nimalarnidir yashiri-shayotgandir degan xayolga borgim kelmayapti – mening burungi holim yo'q, xotira zaiflashmoqda, hamma narsadan boxabar bo'lib yurishga qur-bim yetmay qolyapti. Birinchidan, bu juda tabiiy hol, ikkinchidan esa onangni vafoti sendan ko'ra

menga og'irroq ta'sir qildi. Hozir sening xating tufayli gap ochildimi, Georg, iltimos, meni laqil-latma. Juda mayda, sariq chaqaga arzimaydigan narsa-ku, aldama meni. To'g'risini ayt, chindan ham Peterburgda o'rtog'ing bormi?

Georg hayron bo'lib o'rnidan qo'zg'aldi.

— Mening do'stlarimni o'z holiga qo'yaylik. Minta do'st bitta otamning o'rnini bosolmaydi, bilasanmi, men nimadan xavotirdaman? Sen o'zingni ehtiyot qilmayapsan. Axir yosh o'tgani sayin tu-shunishi kerak-ku odam. Ishimizda sen bo'lmasang, mening qo'limdan hech narsa kelmaydi, sen buni juda yaxshi bilasan, biroq, bordi-yu ishimiz sening sog'lig'ingga ziyon yetkazayotgan bo'lsa, ertaning o'zidayoq do'konni yopaman-u, ikki dunyodayam qaytib ochmayman. Bunaqasi ketmaydi. Sen turmush tarzingni o'zgartirishing kerak. Zinhor kechiktirmay o'zgartirishing kerak. Mehmonxona charaqlab yotibdi-yu, bu yerda qorong'ida o'tirishingni qara. Ertalabdan yaxshilab qorinni to'ydirish o'rniga, nonushtaga qo'l ham urmabsan. Ochiq havo qanchalik foydali ekanini bilasan-u, bu yerda dimiqib o'tirishing nimasi. Yo'q, ota! Men vrachni chaqiraman-da, u nima desa shuni qilamiz. Yotoq bo'lmalarmizni almashtiramiz, sen derazasi ko'chaga qaragan xo-nada yotasan, men bu yoqqa ko'chaman. Xavotir olma, hech narsangga tegmaymiz, joylarini o'zgartirmaymiz ham, narsalar qanday turgan bo'lsa, shundayligicha ko'chirib o'tkazamiz. Mayli, hozir joyingga yot-da, dampingni ol. Kel, men yechintirib qo'yaman, qarab turgin, shunday boplayki. Yoki hoziroq ko'chirishga kirishaymi? U holda hozir-

cha mening karavotimda yota turgin. Shunday qilganimiz ma'qul ekan.

Georg oppoq sochli boshini solintirib olgan otasiga yaqin keldi.

– Georg, – otasi xam qilgan boshini ko'tarmay ohista ovozda chaqirdi.

Georg shu zahoti tiz cho'kdi-yu, otasining hor-g'in chehrasini, qorachiqlari g'ayritabiiy ravishda kengayib ketgan ko'zlarini unga qadab turganini ko'rди.

– Peterburgda sening hech qanday do'sting yo'q. Sen hamisha maynabozchilik qilib kelgansan, endi shu qilig'ingni menga ham qilyapsan. Qayoqdan Peterburgda o'rtog'ing bo'larkan! Mut-laqa ishonmayman.

– Eslagin, ota, – otasini suyab kreslodan turg'azdi va uning behol turganini ko'rib egnidagi xalatni yechdi. – Uch yil burun o'rtog'im meh-monga kelgandi. Uni unchalik xushlamaganding. O'shanda kamida ikki marta u ketdi dedim, lekin u ketmagan, mening xonamda o'tirgandi. Uni yoqtirmaganingni tushunaman, o'zi og'aynim g'alaatiroq. Lekin u bilan juda ochilib suhbatlashgan ham eding. Uning gaplariga qulq solib, undan nimalarnidir so'rab-surishtirib o'tirganingni ko'rib sevingandim ham. Eslab ko'rgin, yodingdan ko'tarilmagan. O'shanda u rus inqilobi haqidagi ajabtovur narsalarni gapirib bergandi. O'zining yumushlari bilan Kiyevga borganida, g'alayonlar chog'i bir ruhoniyl balkonga chiqib kaftini tilib xoch shaklini o'yib yozgan va qonga botgan qo'llini ko'tarib olomonga murojaat qilgan. Duch kelgan odamga shu haqda gapirib yurgan eding-ku.

Shu asnoda Georg otasini joyiga o'tqazdi-da, uning chitdan tikilgan ichki kiyimlari ustidan kiyilgan sun'iy gazlama kiyimlarini, paypoqlarini yechdi. Ichki kiyimlar ancha urinib qolganini ko'rib, otasini qarovsiz qoldirgani uchun o'zidan no-rozi bo'ldi. Otasi ichki ko'yylaklarini vaqtida al-mashtiryaptimi-yo'qmi, shulardan ko'z-qulq bo'lib turish ham uning vazifasi-da. U bo'lajak qaylig'i bilan otasining kelgusi hayoti haqida gaplashib ham olmadi, balki sukut saqlagan otasini o'z uyidan jildirmaslikka qaror qildi. Lekin Georg shu tobda otasini bu ahvolda qoldirib bo'lmaydi, bo'lajak uyiga uni ham ko'chirib o'tkazish kerak degan qat'iy qarorga keldi. Axir obdan o'ylab ko'rsa, kelgusida otasiga ko'rsatishga chog'lanayotgan meh-ribonchiliklari armonga aylanishi ham hech gap emasga o'xshab qoldi.

Georg otasini ikki qo'llab ko'tarib oldi-da, uni o'rniغا olib borib yotqizdi. Ko'tarib bora turib, to'satdan otasi betini o'g'lining ko'ksiga bosgan-chá uning bo'ynidagi soat zanjirini o'ynayotganini ko'rib, qo'rqib ketdi. Otasi zanjirni shu qadar qat-tiq changallab olgandiki, azbaroyi u otasini dar-hol o'rniغا yotqiza olmadı.

Biroq otasi o'rniغا yotgan zahoti yana hushini yig'di. Ko'rpani dahaniga qadar tortib, yopindi. So'ng tantig'lanib Georgga qaradi.

– Uni eslading-a, ota, to'g'rimi? – so'radi Georg va' otasiga dalda berib unga ishora qildi.

– Hamma yog'imni yopdingmi? – xuddi u o'z oyog'ini ko'rmayotgandek savol qotdi.

– Yotganing yoqdimi? – dedi Georg ko'rpani tu-zatib qo'yarkan.

– Ustimni yaxshilab yopdingmi? – takror so‘radi otasi, javobni jiddiy kutib.

– Xotirjam bo‘l, yaxshilab yopdim.

– Yo‘q! – birdan baqirib yubordi otasi. U usti-dagi ko‘rpani shu qadar shiddat bilan irg‘itib tashladiki, ko‘rpa havoda bir muddat yoyilib turdi-da, otasi karavotda azot qad rostladi. Faqat bir qo‘li bilan karnizni tutib olgandi. – Sen meni qaytib qo‘zg‘almaydigan qilib yopib qo‘ymoqchi eding, bilib turibman, ha, o‘g‘lingdan top ekan-da! Illo hali-veri sen meni yopib, yotqizib qo‘yolmaysan. Kuchdan qolsam qolayotgandirman, lekin shuni bir bilib qo‘y, senga kuchim yetadi, bemalol yetadi. Sening oshnangni juda yaxshi bilaman. Agar o‘g‘lim o‘shangan o‘xshagan bo‘lganda boshqa gap edi, xuddi shuning uchun ham shuncha vaqtdan beri sen uni aldab kelyapsan. Nega boshqasini aldamayotganiningni bilib turibman! Nima, men undan qayg‘urib, g‘ussaga bot-maganmanmi? Shuning uchun ham idorangda biqinib olasan – xo‘jayin bandlar, qabul qilolmaydilar deyishadi-yu, bu kishim maynabozchilik qilib Rossiyaga xat jo‘natishdan qo‘llari bo‘shamaydi. Biroq, baxtimizga, ota o‘g‘ilning ich-ichidagisini ko‘rib-bilib turibdi, bu borada u hech kimga qarab qolgan emas, uning aqli butun. Endi sen otamni ostingga bosib oldim, u churq etmay yotaveradi deb xomtama bo‘lyapsan, va qarabsizki, mening marhamatli o‘g‘lim uylanishga qaror qilibdilar!

Georg ola-kula bo‘lib ketgan ko‘zlarini otasi-dan uzolmadi. Otasi to‘satdan eslab qolgan peterburglik oshnasining siymosi Georgni tamom

ishg'ol qilgandi. Nazarida, u olis Rossiyada butkul adashib ketgandek tuyuldi. U tunab ketilgan bo'm-bo'sh do'konning eshigi yonida turardi. Ana, u temir armatura tayoq bilan parcha-purcha qilib tashlangan rastalar, ochilgan-sochilgan oziq-ovqat mahsulotlari orasida garangsib turibdi. Nima qilib u shu qadar olislarga ketib qoldi!

– Yo'q, sen menga qara! – baqirdi otasi unga va Georg beixtiyor karavot tomon yugurdi, yugurdi-yu, yarim yo'lda taqqa to'xtadi.

– Xonim etagini ko'tardi, – deya xonish qilib yubordi otasi, – xonim etagini ko'tardi, manjalaqi xonim shunday ko'tardiki, – otasi shunday deb turib, ko'ylagini shu qadar yuqori ko'targanidan otasining biqinidagi urush yillarida orttirgan yarasining chandig'i ko'rinish ketdi, – xonim etagini mana bunday, va mana bunday ko'tardiki, va sen o'z hirsingni qondirish ilinjida xonimning etagi ostiga tumshug'ingni suqib ola qolding, sen onangning ruhini chirqiratding, do'stingni sotding, otangni ko'rpa-to'shakka mixlab qo'yding, niyating aniq – otang boshini ko'tarmay yotsin-u, qaytib nafasi chiqmasin! Qalay, ko'rib qo'y, qimirlashga holi-joni bormi-yo'qmi?

Otasi shunday deb hech narsani tutmay oyoqlarini dirillatgancha g'oz turardi. U o'zining ziyarakligidan ichki bir faxlanish tuyg'usi bilan, chehrasidan nur taralib turardi. Georg otasidan mumkin qadar nariroqdagi xona burchagida turardi. U otasi kutilmaganda – orqadan yoki tepadan hamla qilib qoladi degan xavotirda hushyor bo'lib turgandi. Shu tobda shuni esladi-yu, go'yo

uzoq urinishlardan so'ng ignaning teshigidan ip o'tkazib olgan odamdek birdan yengil tortib, uni unutdi.

— Illo do'sting sadoqatli emas! — deya qichqirdi otasi va so'zlarining tasdig'i uchun ko'rsatkich barmog'ini havoda o'ynatib qo'ydi. — Men uni shu yerda, shahrimizda o'z qanotim ostiga olgan edim.

— Maynabozchilik! — Georg og'ziga kelgan so'zni aytib yubordi-yu, tilini tishladi, biroq bo'lar ish bo'lganidan, u shu qadar tilini qattiq tishladiki, ko'zları kosasidan otilib chiqib ketayozdi, og'riqning zo'ridan o'tirib qoldi.

— Ha, to'g'ri aytding, men maynabozchilik qilyapman! Maynabozchilik! Rosa topib aytding! Beva qolgan sho'rlik ota shundan bo'lak yana qanday ermak topardi? Ayt — mening suyukli o'g'lim bo'lib ayt, — yovuz xizmatchilari yuz o'girgan munkillagan chol mana shu zimiston sichqon kovagida nima ham qillardim? Mening o'g'lim esa emin-erkin, men kelishib qo'yan shartnomalarga imzo chekish xayolida o'ynab-kulib yuribdi, ota-sining ko'ziga juda boodob odamdek ko'rinishi yuribdi! Nima, seningcha, men seni yaxshi ko'rishni istamaymanmi? Axir seni men dunyoga keltirgaman-ku!

„Hozir u engashadi, — ko'nglidan o'tkazdi Georg. — Shu turishida yiqilib shikastlanarmidi!“ Shu so'zlar uning xayolidan yelib o'tdi.

Otasi bir enkaydi-yu, o'zini tutib qoldi. Kutilganidek Georg uni tutib-suyab qolish uchun yugurib bormadi, otasi yana qad rostladi.

— Turgan joyingdan jilma! Sening menga keraging yo'q. Yonimga kelishga o'zingda kuch topa

olarmiding, bunga xohishing yo'qligi uchun ham yonimga kelolmaysan-da? Adashma! Hamon men sendan ko'ra baquvvaturoqman. Basharti men yolg'iz bo'lganimda, hoynahoy yon bergan bo'lardim, lekin onang o'z kuch-qudratini menga qoldirib ketgan, sening oshnang bilan ham obdan keli-shib olganmiz, sening barcha mijozlaring mana bu yerda – cho'ntagimda!

„Buni qara-ya, ichki ko'ylagi ham cho'ntakli ekan“, – deb o'yladi Georg, bir og'iz so'z bilan otasini boshqalar oldida sharmanda qilishi mumkinligini xayoliga keltirib. U xayoliga kelgan fikrni shu zahoti unutib ulgurdi.

– Xonimchang bilan ko'zimga ko'ringin-chi! Shunday gaplar aytayki, bi-ir ko'zi ochilsin!

Georg otasiga ishonmayotgandek og'zi qiy-shayib qoldi. Otasi esa u turgan burchakdan ko'zini uzmay qarab turar, bu bilan o'zining maynabozchilik qilmayotganini tasdiqlayotgan-dek edi.

– Huzurimga kirib oshnamga xat yozsammi-kan-yo'qmi deb so'rab rosa meni kalaka qilmoqchi bo'lding-a! Tentak, og'ayning allaqachonoq hammasidan xabardor, hammasidan boxabar! Qalam-qog'ozlarni yashirib qo'yishni unutibsan-ku, men allaqachon jo'natdim. Shuning uchun ham u shuncha yildan beri bu yerga qadam bosmayti, u hammasidan sendan ko'ra ko'proq boxabar, sening xatlaringni o'qimaydi ham, tashlab yuboradi, menikini esa bitta qo'ymay, kerak bo'lsa, qayta-qayta o'qiydi!

U shu qadar ehtirosga berildiki, azbaroyi ikki qolini boshi uzra havolatib javrashga tushdi.

– Sendan ming marotaba yaxshiroq biladi hammasini! – deya qichqirdi u.

– O'n ming marta! – dedi Georg, otasining ji-g'iga tegish niyatida, biroq bu so'zlar og'zidan chiqib ulgurmasidanoq jiddiy jarangladi.

– Shu haqda gap ochilishini necha yildan beri kutaman! Bundan boshqa narsalarga qiziqadi deb o'ylaysanmi, nima, seningcha, men gazeta o'qib o'tirarmidim? Ma! – U shunday deb turib kara-votga tasodifan kelib qolgan gazetani Georgning betiga uloqtirdi. Bir paytlar nashr etilgan gazeta-ning nomini Georg eslolmadi ham. – Alal-oqibat es-hushing to'lishmaguncha shunga jur'at etolmading-a! Onang ham dunyodan o'tib ketdi sho'rlik, o'g'lidan bir ro'shnolik ko'rmadi, do'sting esa topgan Rossiyasida paymonasini kutyapti, uch yil burun shu qadar sarg'ayib ketgandiki, chiqindixonaga uloqtirib yuborsang ham haqing qolmasdi, men esa... ahvolimni ko'rib turibsan. Ko'zing ochiq, ko'rib turibsan-ku!

– Bundan chiqdi, ketimda ayg'oqchi bo'lib yur-gan ekansan-da! – qichqirdi Georg.

– Buni sen ilgariroq aytmoqchi eding, to'g'rimi. Endi kechikding, endi foydasi yo'q, – o'ziga o'zi gapirgandek afsuslanib dedi otasi.

Va tovushini balandlatib ilova qildi:

– Xullas, endi bilib olgandirsan – faqat sen harakat qilmagansan, shu paytgacha o'zingdan o'zga bilan ishing bo'lmadi! Aslini olganda, sen bokira – begunoh go'dak eding, yanayam anig'ini aytganda, sen borib turgan iblisning o'zisan! Shuning uchun ham bilib qo'y, men seni o'limga mahkum etaman – suvga g'arq etib o'ldirishga.

Georgga nimadir o'zini xonadan quvib chiqayotgandek tuyuldi, qulog'i ostidan otasining kara-votga gursullab qulagandagi shovqin ketmadi.

U zinapoyalardan hovliqib tushayotib, xonani tozalash uchun kelayotgan oqsoch ayolga urilib ketdi.

– Xudoyim-ey! – deya chinqirib yubordi oqsoch ayol va etakchasi bilan betini yopib ulgurmay Georg ko'zdan g'oyib bo'ldi.

U uy eshididan chiqqa solib, ko'chani kesib o'tdi-da, daryo tomon oshiqdi. Va xuddi qorni behad ochiqqan odamdek shiddat bilan to'siqqa tarmashdi, yoshlik kezlarini gimnastika sohasidagi yutuqlaridan ota-onasi mag'rurlanib yurishardi, u o'sha chapdastlik bilan to'siqdan oshib o'tdi. Bo'shashib borayotgan qo'llari bilan to'siqqa tarmashib, katta yo'ldan avtobus o'tishini kutdi, u o'zini suvgaga tashlaganda chiqadigan shovqin eshitilmasligini mo'ljalga olib shipshidi: „Otajon! Onajon! Men sizlarni sevardim“ – u shunday dedi-yu, qo'lini qo'yib yubordi.

Ko'priq uzra ayni qatnov ko'paygan payt edi.

Rus tilidan Abbas SAIDOV tarjimasi

SAK

Shaharga kelgan dastlabki kunlarim edi. Ratusha oldidagi kichik maydondan o'tib borayotgandim, to'planib turgan odamlarga ko'zim tushdi. Ular eski, juldur kiyim kiygan, qattiq ovoz bilan Tavrotdan nimalarnidir o'qib berayotgan bir kimsani o'rab olishgandi. Uning oyoqlari ostida bir it cho'zilib yotardi. Shunday ulkan va dahshatli hayvonni nega avvalroq payqamaganimga o'zim ham hayron bo'ldim, chunki uning rangi tim qora bo'lib, ter bosgan junlari mayin edi. Ko'zlari oltingugurt kabi sap-sariq, ulkan og'zini ochgan paytda ko'rinish ketgan qo'rqinchli tishlari ham xuddi shu tusda, gavdasi esa shunday ediki, uni hech qaysi bir jonzot bilan qiyoslay olmasdim. Bahaybat jonivorga uzoq qarab turolmadim, nigohim beixtiyor va'z o'qiyotgan kishiga qadaldi, u to'ladan kelgan, miqti gavdasi uzra yirtiq kiyim parchalari osilib turar, yoriqlar orasidan yiltirab ko'rinish turgan badani toza, juldur libosi ham pok-pokiza edi. Va'zgo'y qo'lidagi muqovasi oltin hamda olmos bilan zarhallangan Tavrot noyob va qimmatbaho kitobdek tuyular, ovozi esa vazmin, sokin, qat'iy va dadil jaranglardi. Uning so'zlarida favqulodda bir tiniqlik mujassam, nutqi sodda, biroq shunday ishonchli

va ta'sirchan ediki, uni hech bir muqoyasa bilan ifodalab bo'lmasdi. U Tavrot oyatlarini vazminlik bilan, nomutaassiblarcha tafsirlab berar, bordi-yu kalomi kimsadir ishonch uyg'otmayotgan bo'lsa, bunga sabab uning oyoqlari ostida qimir etmay, tinglovchilarni sariq ko'zlar bilan kuzatib yotgan itning vajohati edi. Shunday qilib, voiz bilan jonivor o'rtasidagi g'alati, g'aroyib bog'lanish meni butkul o'ziga jalb etdi va kamina uni har doim shahardan qidirib topadigan bo'ldim. U har kuni shahar maydonlarida va ko'chalarda va'z o'qir, biroq uni topish, garchi u bu ish bilan kech tunga qadar mashg'ul bo'lsa-da, oson bo'lmasdi, chunki shahar oddiy va qulay qurilgan bo'lishiga qaramasdan, unda adashib qolish ham hech gap emasdi. Aftidan, u uydan turli xil vaqtda chiqar va mashg'ulotini hech qanday rejasiz olib borar, chunki uning chiqishlarida qoida-poida degan narsaning o'zi yo'q edi. Ba'zan bir maydonning o'zida butun kun bo'yи ma'ruza qilsa, gohida esa har chorak soatda joyini o'zgartirib turguvchi edi. Ko'chalar bo'ylab yurarkan, unga har doim iti hamrohlik qilar, u va'z boshladi deguncha ulkan va qop-qora bu jonivor yerga og'ir cho'kib yotvolardi. Odatda, uning tinglovchilari uncha ko'p bo'lmas, ko'pincha u o'zi yolg'iz qolar, biroq o'zim kuzatganimdek, bunga parvo qilmas, aksincha, maydonni tark etmasdan, so'zida davom etardi. Ko'pincha uning kichkinagina ko'cha o'rtasida turgan ko'yi qattiq ovoz bilan ibodat qilayotganiga, sal narida, kengroq ko'cha bo'ylab esa odamlar unga e'tibor ham bermay o'tib borishayotganiga ko'zim tushardi. Uni qidirib topishning bi-

ron ishonchliroq yo'lini topolmasdan, buni men hamisha tasodifga yo'yardim, nihoyat, uning yashash manzilini bilvolishga urinib ko'rdim, biroq bu haqda menga hech kim ma'lumot berolmadi. Shu bois bir kuni uning ortidan izma-iz yurdim, shu tarzda yana bir necha kun ovora bo'llishimga to'g'ri keldi, chunki kech tushdi deguncha har gal uni ko'zdan yo'qotib qo'yaverardim, negaki o'zimni sezdirib qo'ymaslik uchun undan yashirinib yurishga majbur edim. Nihoyat, kunlardan bir kun kech oqshom payti uning bir uyga kirib ketayotganini ko'rib qoldim. Bu joy, bilishimcha, shaharning boy-badavlat xonadonlar joylashgan qismi edi, bundan o'zimcha taajjubga ham tushdim. Shundan e'tiboran, unga bo'lgan munosabatim o'zgardi, endi undan ortiq yashirinmaydigan bo'ldim. Menga ko'zi tushsin, deb atay shundoq yonginasida paydo bo'ldim, ammo u bunga e'tibor bermas, faqat yaqin borganimda it har gal menga qarab irillab qo'yardi. Shu yo'sinda oradan haftalar o'tdi. Bir kuni, o'shanda yoz oxirlab qolgan paytlar edi, voiz Yohannes Injili tafsirini tugatgandan so'ng, menga yaqin kelib, uyiga oborib qo'yishimni so'radi; biroq bir qancha ko'chalar dan o'tib, to uyiga yetgunimizcha ham u menga bir og'iz gapirmadi. Biz kirib borgan uy qorong'i, katta xonani chiroq yoritib turardi. Xona ko'cha sathidan pastroq joylashgan, shuning uchunmi, bir necha zina quyi tushib bordik, hatto devorlari ham ko'rinas, ular kitoblar bilan to'sib tashlangandi. Chiroq turgan qoraqarag'ay yog'ochidan yasalgan kattagina, oddiy stol atrofida bir qiz kitob o'qib o'tirardi. Egnida to'q havorang ko'ylak.

U qizcha biz kirganda burilib ham qaramadi. Yerto'laning pardalar bilan to'silgan ikki darchasidan biri ostida matras, ro'paradagi devor tagida karovot va stol atrofida ikkita stul bor edi. Eshik yonida esa pechka. Qizga yaqinlashgandik, boshini ko'tarib qaradi, shunda uning yuzini ko'rdir. Qiz menga qo'l uzatdi va stulga ishora qildi, shundagina hamrohim to'shakka cho'zilganini payqadim; uning oyoqlari ostida it ham muk tushib yotardi.

– Bu mening otam, – dedi qiz menga, – u endi uxlayapti, gaplashsak ham eshitmaydi. Anavi yotgan katta qora it esa nomsiz. Otam va'zgo'ylikni boshlagan kezlar edi, bir kuni oqshom, eshikni tambalamagan edik, shu bois oyoq panjalari bilan tutqichni surib, uyimizga o'zi kirib kelgan.

Men qiz oldida hayron bo'lib turib qoldim va sekingga otasining kimligini so'radim.

– U boy odam bo'lgan, ko'plab fabrikalari bor edi, – dedi qiz va boshini quyi soldi. – Odamlarga haqiqatni aytish uchun onam bilan akalarimni tashlab keldi.

– Otang aytayotgan narsaning haqiqat ekanligiga o'zing ishonasanmi? – so'radim men qizdan.

– Ha, men buning haqiqat ekanligini bilaman, – dedi qiz. – Shuning uchun ham u bilan birga yurib, mana shu yerto'lada yashab kelmoqdaman. Biroq men haqiqat so'zlar aytila boshlagach, itning ham kirib kelishini aslo kutmagandim.

Qiz jim bo'lib qoldi, so'ng bir nimani aytishga jur'at qilolmayotgandek, uzrxohlik bilan menga qaradi.

– Itni haydab yuborsang bo'lmaydimi?

— Yo‘q, bo‘lmaydi, chunki u nomsiz, — dedi qiz boshini sarak-sarak qilib.

Mening nima deyishni bilmay, hardamxayol turib qolganimni ko‘rib, qiz stol atrofidagi stullardan biriga cho‘kdi, men ham o‘tirdim.

— Nima, itdan qo‘rqasanmi? — so‘radim men.

— Men undan har doim qo‘rqaman, — javob qildi qiz. — Bundan bir yil oldin onam va akalarim advokat bilan kelib, otamni olib ketishmoqchi bo‘lishganda, ular ham mana shu nomsiz itimizdan qo‘rqishgan, chunki u otam oldiga yotvolib, irillab bergen. Karavotda yotgan paytimda ham undan qo‘rqib turaman. Endi esa yo‘q, chunki mana sen kelding va men endi jonivor ustidan faqat kulishim mumkin. Men bilardim, axiyri bir kun kelishingni. Albatta, tashqi qiyofang qandayligini bilmasdim, lekin kunlardan bir kun, ko‘chalarga sokin oqshom cho‘kib, chiroqlar yongach, uymizga otam bilan birga kirib kelishingni bilardim. Mana endi, shu yarim yerto‘la xonamizda, ko‘plab kitoblar yonida turgan karavotimda yonma-yon yotib, er-xotin bo‘lib, birga to‘y oqshomini o‘tkazsak ham ajabmas. Narigi tarafda, hov anov to‘shakda, qorong‘ilik qa’rida otam bola misol uxbab yotadi, ulkan qora it esa bizning oddiy muhabbatimizni qo‘riqlab chiqadi.

O‘shal muhabbatli visol oqshomini unutib bo‘larmidi! Xonaning allaqayerida derazalar torgina to‘g‘ri burchak shaklida qorayib ko‘rinar, bir yostiqqa qo‘ygan boshlarimiz uzra oy o‘z nurlarini sochib turardi. Bizlar yonma-yon yotardik, ko‘cha shovqini quvonchimizning xomush, pariszon sadosi-la qorishib ketgan, dam-badam ten-

tirab yurgan mast-alastlarning bo'g'iq ovozlari, fohishalarning mayda qadam tashlab, pildirab yurishlari, saf-saf bo'lib, birday odimlab borayotgan askarlarning qadam tovushlari eshitilar, gohida esa arava gildiraklarining taraq-turugi, ot tuyoqlarining jarangdor ovozlari bilan almashinib turardi. Biz qorong'i, biroq iliq haroratga cho'mgan yerto'lada yotarkanmiz, hech narsadan qo'rmasdik. Xonaning bir burchida, qariya o'likdek tosh qotib uxlayotgan joyda, it bir juft oynadek yaltiragan, oltingugurtsimon sarg'imtir ko'zлari bilan bizlarni kuzatib, muhabbatimizni poylab yotardi.

Yondiradigan issiq kuz boshlandi. Hamma yoq sariq va qizg'ish rangga bo'yangan. Bu yil kechikibroq kelgan qish ham iliq, oldingi yillardagi qattiq sovuqlardan asar ham yo'q edi. Biroq shunday bolsa ham, qizni kulbasidan tashqariga olib chiqish qo'limdan kelmadı; men uni do'stlarim bilan tanishtirmoqni istardim, uni teatrlargacha olib tushmoqchiydim yoki bo'lmasam tepaliklar uzra cho'zilib ketgan, shaharni to'lqinsimon tarzda gir aylana o'rab olgan g'ira-shira, nimqorong'i o'rmonlar bo'ylab u bilan birga sayr qilmoqchi edim: u esa doim uyda, qoraqarag'ay yog'ochidan ishlangan o'sha eski stol atrofida uzzukun o'tirgani-o'tirgan edi. Otasi kattakon it bilan kirib kelgandan so'nggina, u meni derazalar osha tushib turgan sarg'ish nurlar og'ushida o'z bag'riga chorlardi.

Ko'klam yaqinlashib qolgan bo'lishiga qaramasdan, shaharda qor ko'p edi, ayniqsa, oftob nurlari tushmaydigan soya joylarda kir va namchil qor hamon uyulib yotardi. Shunday kunlarning bi-

rida, qiz kutilmaganda bir o'zi xonamga kirib keldi. Derazadan quyosh nurlari qiya tushib turardi. Kech kirib qolayozgan, pechkaga o'tin tashlab qo'ygandim. Qizning rangi oqarib ketgan, sovqotgan bo'lsa kerak, tinimsiz qaltirar, chunki paltosiz, egnida hamishagidek o'sha to'q havorang ko'ylak bor edi. Poyabzalini esa sira ko'rмаган еканман, ular qizil rangda, ichiga mo'ynali astar qoplangandi.

— Sen itni o'ldirishing kerak, — dedi qiz nafasi ichiga tiqilib, hali ostona hatlab ulgurmasdanoq. Uning sochlari yoyilgan, katta ochilgan ko'zлари g'alati boqar, sharpa yanglig' gavdasini ko'rib, unga qo'l tegizishga ham jur'at qilolmadim. Javon oldiga borib, to'pponchamni qidirib topdim.

— Bilardim, bir kunmas-bir kun shunday iltimos bilan kelishingni, — dedim unga, — shuning uchun qurol sotib olgandim. Xo'sh, qachon?

— Hoziroq, — dedi qiz ohista ovozda. — Otam ham qo'rqb o'tiribdi, o'zi undan har doim qo'rqb kelgan, buni bilaman.

Men qurolimni ko'zдан kechirib, paltomni kiydim.

— Ular yerto'lada, — dedi qiz boshini quyi solib. — Otam qo'rqqanidan kun bo'yi to'shakda qimirlamay yotibdi, ibodat ham qilolgani yo'q, it esa eshik oldiga muk tushib yotib olgan.

Biz daryo tomon quyi tushib bordik va toshko'prikdan ham o'tdik. Osmonni xuddi yong'in paytidagi kabi quyuq, tahlikali qizg'ish rang qoplab olgan. Hozirgina quyosh botdi. Shahar odadagidan ko'ra gavjum, odamlar va ulovlar bilan to'lib-toshgan, ular go'yo qon dengizi uzra suzib

borayotgandek, uylarning derazalari va devorlari ham shom yog'dusiga cho'mgan edi. Biz tirkib olomon va tobora tig'izlashayotgan qatnov orasidan shoshilib o'tib borardik. Yon-atrofimizda avtomobillar chiyillab tormoz berar, avtobuslar xira, tussiz, yovuz ko'zli bahaybat maxluqlar singari chayqalar, kulrang dubulg'a kiyvolgan politsiyachilar asabiy qo'l silkitishardi. Men ancha ilgarilab, qiz orqada qolib ketdi; paltomning bari ochiq, hansirab, halloslab, borgan sayin gunafsharang tus olayotgan, tobora kuch-qudrat kasb etayotgan g'ira-shira qorong'ilik tomon, ni-hoyat, ko'chadan yuqori chiqib bordim: biroq assuski, kechikkan edim. Qo'limda qurol, eshikni tepib ochib, yerto'лага sakrab tushishim hamon qo'rqinchli hayvonning ulkan soyasini ilg'ab qoldim, u oynani chil-chil sindirib, derazadan tushib qochib qoldi. Yerda esa, qop-qora ko'lmaq uzra katta gavda oqarib ko'rindi, u qariya edi, it uni shunaqayam burdalab tashlagandiki, aft-angorini tanib bo'lmas edi.

Qaltirab devorga, kitoblarga behol suyanib qoldim, tashqarida motor tovushlari eshitildi. Nosilka olib kelishdi. Murda oldida soyaga o'xshab turgan shifokorga, ranglari oqarib ketgan, tish-tirnog'igacha qurollangan politsiyachilarga, odamlarga ko'zim tushdi. Qizni chaqirdim, javob bo'lma-di. Yana shaharga, toshko'prik osha xonamga shos'hildim, u yerda ham yo'q edi. Ma'yus, umidsiz bir alfozda, tuz ham totmay, tinim bilmay qizni qidirishga tushdim. Ulkan hayvon xatarli edi, shuning uchun politsiya ham oyoqqa turdi, kazarmadagi askarlar ham turnaqator tizilishib,

o'rmonlarni kezib chiqdilar. Odamlar qayiqlarga o'tirib, iflos, sariq suvli daryoni uzun tayoqlar bilan tit-pit qilib, tekshirib ko'rdilar. Bahor boshlanib, qattiq sel, jala quygan, ko'p narsalarni oqizib ketgandi, shu bois odamlar mash'ala yoqib, baqir-chaqir qilib, tosh konlaridagi karyer (ochiq sayoz kon)larning g'orlariga ham bosh suqib chiqdilar. Hatto kanalizatsiya (chiqindi suvlarni oqizish tarmog'i) quvurlari-yu, kafedral soborning chordog'ini ham ko'zdan kechirishdi, biroq na qiz topildi, na it.

Uch kun deganda horib-charchab, yarim kechasi xonamga qaytib keldim. Uni topishdan umidimni uzgan edim. Ko'ylagimni ham yechmay, o'zimni o'ringa tashladim. Shu payt nogoh ko'cha tarafdan qadam tovushlari eshitildi. O'rnimdan sapchib turib, derazani ochdim, boshimni chiqarib, tashqariga tikildim. Tun yarmiga qadar yog'gan yomg'irda yo'l qop-qora tasma yanglig' yarqirab ko'rinar, ko'cha chiroqlarining aksi u yer-bu yerda jilva qilardi. Shunda bexosdan... qizni ko'rib qoldim, u daraxtlar oralab asta borar, egnida qoramtirtus ko'yak, oyog'ida qizil rangli poyabzal, uzun patila-patila sochlari tun yog'dusida yaltirardi. Yonida esa sharpa yanglig' qo'zichoq-dek yuvosh va unsiz qora ko'lanka, yumaloq, sariq ko'zlari yiltirab, it ohista qadam tashlardi...

Nemis tilidan

Mirzaali AKBAROV tarjimasi

IKKI KISHILIK STOL

– Ikki kishilik dasturxonmi? Qani, mana bu yoqqa marhamat qilsinlar, janob. O‘, xonimingiz nihoyatda latofatli ekan! Siz uchun ataylab devara oldidagi joyni tanladik, ko‘rfaz manzarasidan bahra olib o‘tirasizlar-da! Qalay, ma‘qulmi? – deya mulozamat ko‘rsatdi ofitsiant.

Alisa xursand bo‘lib eriga qaradi:

– Ha, albatta! Bo‘imasam-chi! – dedi quvonchdan ko‘zлari chaqnab. – Mark, azizim, bu yerda biz o‘zimizni xuddi dengizda, qayiq ichida tushlik qilayotganday his etamiz! O, qanday ajoyib! Bu yerni...

Ayolning gapi og‘zida qolib ketdi. Eri xotining qo‘lini qattiq qisdi.

– U yerdan sal beriroqdagi joy ancha tuzukroq ko‘rinadi, chamamda.

– Anavi yoqdagi, deysanmi? Naq odamlarning o‘rtasida-ya? Lekin menga ko‘proq...

– Alisa, jonginam, iltimos.

Mark ayolining qo‘llarini yanayam mahkamroq qisdi. Bu gal u shunday harakat qildiki, Alisa beixtiyor eriga o‘girilib qaradi.

– Nima gap? Senga nima bo‘ldi?

– Tss..., – dedi Mark barmog‘ini labiga ohista bosib. U xotiniga bor vujudi bilan tikilib tu-

rardi. Alisani tamaddixona o'rtasidagi stol tomon boshladi.

– Nima gap, Mark? Tinchlikmi? – xavotirlanib so'radi Alisa yana.

– Keyin aytib beraman, azizam. Kel, avval taom buyurtiraylik. Xo'sh, nima yeymiz? Mayda dengiz qisqichbaqasiga tobing qalay? Yo qovurilgan tuxum xohlaysanmi?

– Istaganing, azizim, menga farqi yo'q.

Ikki yosh bir-biriga mehr bilan jilmayib qo'yishdi. Keyin yonlarida tinmay raqsga tushayotgan bir to'da odamlarni maroq bilan kuzatib o'tirdilar.

– Unday bo'lsa, birinchisiga mayda qisqichbaqadan bo'la qolsin, – dedi Mark. – Keyin tuxum va tuzlangan cho'chqa go'shti ham yeymiz. Yana jo'ja kabob bilan italyancha salat olsak. Bugun bir maza qilib o'tiraylik, a, Alisa? Shoshmang, – dedi u shunda ofitsiantga yuzlanib. – Yodimdan ko'tarilayozibdi, yana ikki finjon qora qahvadan ham olib kelsangiz.

Shunday dedi-da, u yana Alisaga qarab gapi-da davom etdi:

– Haydovchimiz ham tushlik qilayotgandir hozir. Demak, taxminan ikki soatlardan so'ng ket-sak ham bo'ladi. Bu yog'idan tashvishlanma. Ikki soat davomida bemalol dam olsak bo'ladi.

Bir muddat shunday gaplar bilan o'zini nima-dandir chalg'itgan Mark, nihoyat, yengil xo'rsinib, go'yo ichidagi og'ir bir toshni sal bo'lsa-da qo'zg'at-gandek biroz yengil tortdi. So'ngra u hayotining mazmuniga aylangan, chiroyli shlyapasi ustidan ro'molini nafis tang'ib olgan go'zal xilqat – umr yo'ldoshiga nigohlarini qadadi.

– Sen juda dilbarsan, jonim! – dedi u rafiqasining nurli chehrasidan ko'zini ololmay.

– Manavi dengiz suvi esa sening jozibali ko'zlaringga ajib zangorilik bag'ishlab, husningni yanayam oshirgan. O'zing ham bir ko'rgin-a, Alisa! Buning ustiga, sayohatma-sayohat yuraverib ancha vazn tashlagansan. Faqatgina... Sen o'zing ham shu malohatni qalbing bilan xuddi menday his qila olishing kerak, Alisa, eshityapsanmi?!

Ayol erining so'zlarini butun vujudi bilan tinglar, unga bo'lgan mehri yanada oshardi.

Mark to'satdan jiddiy tortib, ayolga sinchkov ko'zlarini tikdi.

– Alisa, bilasanmi, hozir bu yerda senga notanish, ammo menga judayam tanish bo'lgan odam bilan bitta tamaddixonada o'tirbsan.

– Menga notanish bo'lgan odam?

– Ha... Ya'ni, o'sha odam – mening sobiq xotinim.

Shu payt ayolning ko'zlari hayratdan kattakatta ochilib ketdi, u qanday so'z bilan ayni damda ichida kechayotgan kuchli g'alayonni ifodalashni bilolmay, qotib qoldi.

– Xo'sh, nima qipti?.. – deb og'iz ochdi u nihoyat. – Uning bu yerdaligini bizga nima ahamiyati bor? Axir... u sen uchun muhim inson emas-ku, Mark... – Alisa shunday deb o'zini biroz chalg'itgani bilan, baribir barcha ayollarga xos qiziquvchanlik ila erini qator savollarga ko'mib tashladi:

– Uning o'zi seni ko'rdimi? Yo sening unga qaraganingni payqab qolmadimi? Qani, qayerda turibdi? Mark, o'shani menga ko'rsatib yuborolmaysanmi?

– Hozir emas, iltimos. U bizni kuzatayotgan bo‘lishi mumkin... Zimdan nazar tashla: Huv ana – jigarrang sochli, boshida shlyapasi yo‘q, yalang-bosh ayol. Ko‘rdingmi? U shu mehmonxonada turgan bo‘lsa kerak.

– Hmm, tushunarli.

Alisa ko‘pgina ayollar orasidan, axiyri, uni ko‘rib olishga erishdi. U ayol erining o‘n besh oy muqaddam turmush o‘rtog‘i bo‘lgandi.

– Bema’nilik, – dedi Mark g‘ashi kelib. – Menga bu hol umuman yoqmayapti... Turgan-bitgani bema’nilik! To‘g‘ri, biz madaniyatli kishilarday jimgina, janjalsiz ajralishdik. Keyin mening hayotimga farishta misol sen kirib kelding. Men seni sevib qoldim va sen ham men bilan bir umraga baxtiyor bo‘lishni istading. Bizning baxtimiz atrofdagi har qanday g‘alamislar ig‘vosi-yu hasadgo‘ylar hiylasidan omon qoladi! Menga ishon, azi-zam!

O‘sha boshyalang, jigarrang sochlari yelkasini qoplab, to‘zg‘itib yotgan ayol hech kim bilan ishi yo‘q, parvoysi falak, ko‘zlarini yarim yumgancha sigara tortib o‘tirardi. Alisa undan ko‘zlarini oлdi-da, eri tarafga o‘girildi.

Dasturxonidagi qovurilgan qisqichbaqaga titroq qo‘llarini uzatdi-da, shoshilmay yeya boshladi. Oraga bir necha soniyalik sukunat cho‘mdi. Oxiri Alisa chidolmay so‘radi:

– Nega sen menga uning ko‘zlari ko‘k ekanini aytmaganding?

– Buni aytish sira xayolimga kelmagan ekan!

Mark xotinining nonga uzatgan qo‘llarini olib, ohista o‘pdi, Alisa xotirjam qiyofaga kirdi.

Asta-sekin tamaddixonani oqshom pardasi chulg'ay boshladi, atrof tobora qorong'ilik bag'rige singib, devorlarga uzun-qisqa ko'lankalar soya tashladi. Alisaning ham ko'nglini qandaydir notinchlik bosib borar, nimadandir tashvishlanar, joyida tinch o'tirolmasdi. Uning ko'zlarini hadeb odamlar orasidan jigarrang sochli, sigara tutatib o'tirgan ayolni qidirardi.

Mark turmush qurbanlaridan buyon xotiniga qildek ham yomonlik qilmagan, bor-budi bilan Alisani xursand qilishga urinardi.

Ular ancha payt gaplashmasdan ovqatlanishdi, miriqib o'tirganday bo'lishdi, ammo har ikkisining ham xayoli o'sha „jigarrang sochli“da edi. Ora-orada Alisa qattiq kulib yuborar, Mark bo'lsa uning har bir xatti-harakatidan hushyor o'tirar, Alisaning bosh burishlari-yu, qayerga ko'z tashlashlarigacha nazaridan qochirmasdi. Ular buyurtma qilgan qahvalarini uzoq vaqt kutib qolishdi. Ufq shu'lesi ostida yotgan poyonsiz dengiz sathiga uzoq tikilishdi. Dengiz ko'zni qamashtirguday yal-yal tovlanib turardi.

— Mark, — dedi Alisa eriga biroz sarosima aralash. — U haliyam shu yerda.

— Bu seni bezovta qilyaptimi? — dedi Mark xotinining vahimasini pisand qilmaslikka urinib. — Qahvamizni boshqa biron xoliroq yerga borib ichaylikmi? Nima deysan?

— Yo'q, yo'q! Aslo! U menga nega xalal bersin? Menimcha, u bu yerda yomon dam olmayotgan ko'rindi, raftorini ko'ryapsan-ku o'zing! Nima, endi uni deb shunday shirin o'tirishimizni buzishimiz kerakmi? Hecham-da!

Mark sigarasini olib tutatdi-da, xuddi ayni damda sobiq xotini chekayotgani singari burnidan pag'a-pag'a tutun chiqardi.

So'ng Mark jiddiy qiyofaga kirdi. U endi hech narsani yashirmay, bor jinoyatini fosh qilish fursati yetganini anglagan aybdor kabi so'zlay ketdi:

– Yo'q... Yo'q, – dedi u o'ychan bosh chay-qab. – To'g'risini aytganda, u men bilan sirayam baxtli bo'lolmadi. Ehtimol, men o'zim u kutgan baxtni berolmagandirman? Ehtimol, u men tufayli baxtsizdir...

– E, sen uning yurish-turishiga bir qara. G'irt takasaltang-ku! Nega sen o'zingni gunohkor hisoblapping kerak, azizim?

Mark yuzlari kuchli hayajondan qizarib, nozik barmoqlari asabiy titrayotgan xotinining butun vujudiga mehr-muhabbat to'la ko'zlarini qadadi.

– Mening butun fikr-u xayolimni o'g'irlagan jinoyatchi bu – sensan, jonim... Sen... Sen naq farishtaning o'zginasisan... Sening sevging... Sening ishq to'la nigohlaringni har on ko'rGANIMDA, beixtiyor entikib ketaman. Sening nigohlaring bo'lakcha, Alisa. Uni men qanday qilib sendek mas'ud qilishni bilolmadim, bor-yo'g'i shu, xolos.

– Uning o'zi shunga munosib ekan!

Alisa yana asabiylashib, yengil qaltiray boshladi, yana o'sha jigarrang sochli tannoz xonimga tez-tez alamnok qaradi. U ayol bo'lsa hamon hech kim bilan ishi yo'q, parvoyi falak, baland kursisi orqasiga boshini tashlagancha haliyam sigara tortib o'tirardi. Uning nigohlarida horg'inlik, loqaydlik va alam aks etardi.

— Sen haqsan, — deb iqror bo'ldi Mark Alisaga yuzlanib. — Nimayam derdim? Baxtiqaro odamlarga faqat achinish kerak, xolos. — Keyin esa o'z-gacha bir g'urur bilan xotiniga baland ovozda xitob qildi:

— Biz baxtiqaro emasmiz! Biz juda-juda baxtlimiz! Shunday emasmi, azizam?

Alisa indamadi. U erining yuziga sinchkov tikilib qolgandi. U Markning chehrasidan o'zi uchun xufiya bir belgini, nosamimiy biron alomatni qidirar, erining qalin, qora sochlari-yu oppoq, uzun-uzun barmoqlariga ziyraklik bilan boqar ekan, ich-ichini ayovsiz qyynoq timdalardi. U ilk marotaba shuncha vaqt ardoqlagan, ishongan eridan shubha qildi. Qandaydir xavf borday hushyor tortdi. Xayolidan „Ehtimol, birinchi xotini haliyam Markning ko'yida yurgandir?..“ degan fikr o'tdi.

...Nihoyat, ular ko'ngilsizliklarga makon bo'lgan tamaddixonani tark etishdi. Mark hisobni to'lagan zahoti haydovchisini chaqirdi. U go'yo hech nima yuz bermaganday yo'l bo'yи haydovchisi bilan chaqchaqlashib ketdi. Alisaning xayolidan esa o'sha sigara tortib o'tirgan Markning shirakayf sobiq xotini ketmas, u har nafas „Balki, u erimni qidirib, ortimizdan quvib kelayotgandir“, degan vahima bilan ortiga qarar, tashvishdan yuragi taka-puka urardi.

*Ingliz tilidan
Qandilat YUSUPOVA tarjimasi*

ONAIZORIM

Men doimo borliqni oq va qora ranglarda ko‘raman. Boshqa hech qanday xira tuslar bu tasavvurimni berkitolmaydi. Tiriklik bulog‘i oqib turar ekan, insonlar chirkin ranglar bilan umrlarini bulg‘amasliklari kerak. Sizga bir ajoyib umr bayonini aytib beray.

Bu gapim bilan hamma shunday yashashi kerak demayapman. Ammo men hayotga hamisha ana shunday nazar bilan boqib kelganman. Birroq mening onam doimo hayotni o‘zining o‘sha qadrdon atirgul rangli ko‘zoynaklari orqali kuza-tardi. Nurijahonim har qanday jiddiy muammo yoki yoqimsiz insondan ham bir yaxshilik qidirardi. Hayot qozoni mehribonim uchun hamma vaqt yarim to‘la bo‘lgan, yarim bo‘sh emas. U har doim xushchaqchaq yashagandi.

Bunday ko‘tarinkilik insondagi tug‘ma bir qobiliyatmi yoki boshqa – buni men hech qachon bilolmaganman. Ehtimol, validamdan so‘rashim kerak bo‘lgan yagona savolim ham shu bo‘lgandir.

– Carpe diem (inson yashash uchun yaratilgan) butun hayotga tatiydi, – balki u shunday deb javob bergan bo‘lardi.

Onam shunday naqlarga ishqiboz edi. Bolaligimda uning so'zlariga maftun bo'lganimni, „Onam o'tkir aql sohibasi“, deya o'ylaganimni ko'p eslayman.

Hatto yomg'ir yog'ayotganda ham onam bizlarni hamon dengiz bo'yida olib yurardi. Qumsaroylarimiz xandaqlari esa oqayotgan suvdan ko'ra ko'proq yomg'ir suvlari bilan to'lib qolardi.

– Bolalar, kelinglar, – derdi mehribonim. – Buterbrodlaringiz ho'l bo'lmasidan burun yeya qolninglar.

Hech qanday yomg'ir uning tabassumini yuvolmasdi. Bizning oqayotgan burunlarimiz bo'lsa goho qattiq qaynagan tuxum oqlariday qotib qolardi. Onam uchun esa bularning bari baxtiyorlik nashidasi edi.

Hatto hozir ham men onamni soyabon tagida, suv chetida eshkak eshib o'tirganini tasvirlab berolaman. Cho'milayotganimizda, u yoqdan bu yoqqa sakrab, unga suv sachratayotgan paytimiz onam yubkasini bel tasmasiga tiqib olardi.

Endi bu haqda o'ylasam, qanday qilib o'shanda shamollab qolmaganimizga taajjublanaman. Bu hol o'zimda sodir bo'lganida men qizlarimga hech qanday davo topolmagandim. Menda sabr-toqat, balki jasorat yetishmagandir. Bunga ishona olasizmi? Bir marta onam, uning yopiqligini bila turib ham, bizni hayvonot bog'iga olib borgandi. U bizga devor osha ham ayrim hayvonlarni ko'rish imkoniyatimiz borligini aytgandi. Qasam ichib aytamaniki, bu rost edi. Hayratlanarlisi shundaki, biz bir lahzaga bo'lsa-da, jirafaning boshini ko'rib qoldik. Yana ham to'g'rirog'i, uni ko'rgan onam bo'ldi.

Endi esa ko'nglim o'ksinadi, o'sha nurijahonim qani? Nechun men o'z onamni umrim bo'yи asrab qololmadim?

Maktab kunlarimga xayolan qaytsam, sira o'yin-larga aralashmagan ekanman. Onam aytardiki, maktabdagilar jamoada menga o'xshagan yaxshi olqishlovchi qarsakchiga muhtoj bo'lishgan ekan. Unga ishonaman.

Boshqa onalar majlislarda faol edilar. Ular maktab uchrashuvlarida muntazam qatnashishar yoki sport kuni bebosh jo'jalarga o'xshab shunchaki aylanib yurishardi. Ular bolalari uchun qo'shimcha o'qitishni bir umr munozara qilgan bo'lishardi. Mening mehribonim bo'lsa dunyodagi bedavo dardlardan meni asrashi haqidagi o'yłari ichiga g'arq bo'lib, uyda mazali kekslar va limonad tayyorlash bilan ovora bo'lardi. Onam o'zgachaligidan ogoh bo'lganimda o'n bir yoshda edim. Bir kuni boshqa onalar onamni shunday atashganini eshitib qoldim. Bu so'z nimani anglatishini bilmasdim, biroq „o'zgacha“ so'zi men uchun betakror so'z bo'lib qoldi.

Onam chinakam ona edi. Biz uni dunyolarga alishmasdik. Goho zerikib, uy ichida haddan ortiq shovqin-suron ko'tarardik. U esa bizlarga televizor ko'rishni taklif qilardi.

– Hech narsa bo'lmayapti-ku! – deya baqirardik biz.

– Mana, bo'lyapti! – derdi onam ham qichqirib, televizorni yoqarkan. – Bu ajoyib ranglarga qarang.

Ajablanarlisi, biz onamning so'ziga ishonardik-da, o'tirib test kartasini tomosha qilardik.

Takror o'zimdan so'rayman, o'sha mehribonim qani endi? Nechun men onamni umrim bo'yи asrab qololmadim?

O'n yetti yoshida onam menga homilador bo'lgan ekan. Yillar o'tib, hech qachon men validamdan uni o'smirlik yillaridan judo qilganligim to'g'risidagi arz-dodini sira eshitmadim.

Yigirma yoshida o'gay otamga turmushga chiqdi va ikki nafar farzand ko'rdi. Dadam ham, ya'ni men shunday deb bilishim kerak bo'lgan odam, hayotga juda xush nazar bilan qarardi. Ular bir-biriga munosib edi. „Ikkalasi janjallahganida biz – bolalar uchun rosa qiziqarli bo'lib chiqadi“, deb o'ylardik.

– Agar turmushimiz o'zgarmasa, shundayligicha qolib ketaveradi, – der edi onam.

– Agar turmushimiz yaxshilansa, demak, bu yaxshiroq bo'ldi, degani, – javob berardi dadam.

Hammamiz kulib yuborardik. Aytishadiki: „Ko'p yoshlar ota-onalaridan uyalib o'sishadi. Ular uyga do'stlarini olib kelishdan qochishadi“. Menda esa butunlay buning aksi bo'lgan. Do'stlarim mening devona onamni yaxshi ko'rishar va biznikiga kelishni yoqtirishardi. Onam uchun esa baland challenging musiqa gilamlarning to'kilgan kola bilan bo'kishini anglatardi. Yotar paytimizgacha shunday to's-to'polon davom etardi.

Meni, ayniqsa, onamning ta'biri bilan aytganda „jononlar to'g'risidagi suhbat“imiz ko'proq qizqfirardi.

– Ona, meni kutayotganingizni sezganingizda nimani his etgansiz? – deb so'ragandim bir paytlar.

Men onamdan qo'rquvlari haqida gapirib berishini, o'sha paytlarda turmushga chiqmagan

onam uchun uyat bo'lgani to'g'risidagi gaplarni kutgandim.

– Eh! – degandi onam javoban, ovozi titrab. – Men qizaloq bo'lishingga umid qilganman. Ulg'a-yib, shifokor bo'lishingni hech kutmagandim.

– Unda men sizda umidsizlik tug'dirgan bo'l-sam kerak, ona, – deya xo'rsingandim men.

– Umidsizlik? Hech qachon!

Keyin validam atirgul rangiga bo'yalgan ko'z-oynaklarini to'g'rilib qo'ymasa, boshqa hech narsani qo'shimcha qilmagandi.

O'shanda u rostini gapirganmidi yoki bu o'z umidsizliklarini yashirishning g'ayrioddiy yo'li bo'lganmidi?

Attang, o'sha narsa men hech qachon bilolma-gan sir bo'lib qoldi. Afsuski, hozir onam xayolim-dagina yashayotganiga bir necha yillar bo'ldi. So'nggi safari yaqinlashganda ham onam mening qo'llimdan ushlagandi, men onamnikini emas. Agar validam menga so'nggi orzusini taqdim eta olganida edi, balki onamni qaysidir ma'noda saq-lab qololgan bo'larmidim...

Bugun esa onam haqida o'ylab men o'zimni topdim, chunki o'tgan tunda qizim sim qoqib, hafta oxirida tibbiyot maktabidan uuga kelayotga-nini aytdi.

– U, mabodo yomg'ir yog'sa ham, buvim xokini dengiz bo'yiga olib borolamizmi? – deb so'radi.

Men qizimdan juda faxrlanib ketdim. O'ylay-manki: onam ham, albatta, undan mamnun bo'l-gan bo'lardi.

SO'QIRNING QISMATI

Quyosh bizga naqadar zavq berishini bilasizmi?! U asta uyqudan bosh ko'tarishi bilan odamlarda yashashga bo'lgan ishtiyoq uyg'ona boshlaydi! Osmon butunlay ko'm-ko'k, keng dalalar yam-yashil, uylarimiz esa oppoq. Ko'zlarimiz ana shu kamalak ranglardan suv ichib atrofga teran nazar tashlaydi. Yuragingizda bahor barq urib, raqs tushgingiz, yugurgingiz, kuylagingiz keladi... Bularning hammasi quyosh tufayli.

Ko'zi ojiz odamlar chiqish eshigi yonida o'zining o'rganib qolgan qorong'i hayoti ichida tinchgina o'tirar, atrof bilan ishlari yo'q, nimalar so-dir bo'layotgani bilan qiziqmas ham edilar. Kun adog'iga yetgach, ko'rlar yosh ukalari yoki mitti singillari tomonidan ergashtirilgancha olib ketilardi. Agar bolakaylar „Bugun qanday chiroyli kun bo'ldi-ya“, deb aytsalar, ko'zi ojizlar, „Men ham buni his qildim, Loulo hech tinch o'tirmadi“, deb javob qaytarardilar. Men ulardan birining hayoti g'oyat azob va qiyinchilikda o'tganini billardim, buni hatto tasavvur qilish ham qiyin.

U past tabaqa – dehqonlar toifasidan chiqqan, otasi esa oddiy norman fermeri edi. Bolaga otanasi tomonidan ozmi-ko'pmi g'amxo'rlik qilinar, u o'zining azobli ojizligini shu tufayli biroz unutar

edi. Ular dunyodan o'tib ketishgach, qo'rquvning ayanchli chinqirig'i uni ta'qib qila boshladi. Endi u singlisining qo'liga qarab qoldi. Fermadagilar unga boshqalarning nonini yeydigan gadoydek ijirg'anib qarashardi. Ovqatlanish payti yeyotgan har bir luqmasi unga minglab ta'nali boqishlar keltirar edi. Uni „tekinxo'r“, „masxaraboz“ deb atashar, hatto singlisining eri ham unga istamaygina sho'rva berar, ochdan o'lmasligiga yetarli bo'lsa bo'ldi, derdi. So'qirning yuzi bechorahol, bir juft katta ko'zları esa muhrni eslatardi. Uni qancha yerga ursalar ham miq etmas, odamlar ko'rning nimani his qilishi bilan ishlari yo'q edi. Shunday qilib, u hayotda birovdan mehr ko'rmadi. Singlisi unga doim bemehrlik bilan boqar, deyarli parvarish qilmas edi. Qishloq joyda qo'lidan ish kelmaydiganlarga keraksiz odam sifatida qaralardi, dehqonlar orasida bunday odamlar yo'q bo'lib ketsa, ular bundan, albatta, mammun bo'lishardi.

Nihoyat, ko'r sho'rvasini ichib bo'lgach, eshik ostonasiga borib o'tirdi. Yozda u shu yerda, qishda esa kamin yonida o'tirardi. Har kungidek u qimir etmasdi. Uning biror yeri ham qimirlamasdi, faqat ko'zining qovoqlari ba'zan biror asabiy harakatdan uchib tushar, ojiz ko'zlarini yumib olardi. Unda biror narsaga layoqat, qiziqish, ehtimolki, iqtidor bor edimi? Buni hech kim so'ramagan. Lekin uning ishga bo'lgan uquvsizligi qarindoshlari tomonidan ko'rga oddiy buyum sifatida qaralishiga sabab bo'lardi: xuddi katta bochka yoki yovvoyi biror jonzot kabi. Uning so'qirligi haqidada bo'ladigan achchiq latifalarni-ku qo'yavering. Ular biroz miriqish ilinjida ovqatlanish paytida ko'r-

ning ovqatini birma-bir xontaxta bo'ylab soatlab aylantirib chiqishardi. Qo'shni uylardagi ba'zi dehqonlar ham bu „tomosha“ni ko'rgani moralab o'tishar, bu qiziq voqeа eshikma-eshik kezib yurardi, shuning uchun oshxona har kuni yemakxo'rлardan ham ko'ra, tomoshabinlarga to'la bolardi. Ba'zan odamlar u ovqatlanishidan oldin tovog'iga biror kuchuk yoki mushukni solib qo'yishardi. Jonivor ham ichki sezgisi bilan qarshisidagi odamning nogironlarni sezar va beozorlik bilan qochib qolardi. Odamlar esa atayin chapilatib ovqatlarini yejishga tushishardi. Devorga tizilishgan tomoshabinlar esa bundan maroqlanib, bir-birlarini tirsaklari bilan turtib kulishar, oyoqlari bilan yernidepsishardi. Ko'r bo'lsa indamay taomini o'ng qo'li bilan yejishga tutinar, chap qo'li bilan esa tovog'ini begonalardan „himoya qilardi“. Boshqa payt esa ular ko'rni po'kak, daraxt po'stlog'i, barg yoki loy yejishga majbur qilishar, chunki u bularning farqiga bormasdi. Nihoyat, dehqonlar bu kabi qiliqlardan zerikishar, pochchasi ham unga qarashdan bezib borardi.

Shunday qilib, dehqonlar, xizmatchi qizlar, hatto duch kelgan notanish ham uni turtib o'tadigan bo'lgan, bunday payt ko'rning kipriklari nozik titrab ketardi. Ko'r o'zini qayerga yashirishni bilmas, odamlar unga yaqinlashmasligi uchun qollari bilan o'zini to'sardi. Bular ish bermagach, u yolvorishga o'tardi.

So'qir bugun katta ko'chaning bir yeridan joy oldi. Qadam tovushlarini yoki transportning shovqinini eshitgach, shlyapasini qo'liga oldi va duduqlangancha so'z qotdi:

– Menga ehson qilinglar, o'tinaman...

Biroq yo'lovchi dehqon saxovatli emasdi, buning ustiga ko'r hali u bergan su¹ni qaytarmagandi.

Bu qish hamma yoq qor bilan qoplandi, sovuqning zahri qattiq bo'ldi. Pochchasi ko'rni katta ko'chadan uzoqroqqa olib chiqdi: u bu yerda bemalol tilanchilik qilishi mumkin edi. U ko'chada kun bo'yи qolib ketdi. Tun kirkach, pochchasi uyidagilarga ko'rni yo'qotib qo'yanini aytib, qo'shimcha qildi:

– Uf, yaxshisi, undan xavotirlanmaylik! Uni kimdir topib olgandir. Siqilmanglar, u yo'qolmagan. Ertaga ovqat yeish uchun ham qaytib keladi.

Lekin ko'r ertasiga qaytmadi. U o'sha kuni saatlab kutdi, ichigacha muzlab ketdi. O'zini hozir o'lib qolsam kerak, deb o'yladi, isinish uchun yura boshladi. Ming urinmasin, kelgan yo'lini topa olmadi. Majburan yo'g'on sumalakni ermak qilgancha tavakkaliga ketaverdi. Chuqurchalarga tushib ketar, lekin o'rnidan turgancha sas chiqarmay olg'a intilaverardi. Umidi – yo'lidan biror boshpana chiqib qolishi edi. Borgan sari qor kuchayib uni qotirib qo'ydi, ko'r tanasini sezmay qolgan, oyoqlari uni ko'tarolmay qiynalardi. Shuning uchun u o'tirib qoldi va qaytib turmadni. Pag'alab yog'ayotgan qor uning yotishiga bir enlik ham joy qoldirmasdi. Ko'rning qarindoshlari uning topilishiga umid qilib, bir haftacha izlashdi. Natijada, uning qadam izlarini topishdi. Qish uzoq davom etdi, qorlar ham eriy demasdi. Nihoyat, yakshanba kuni

¹Su – fransuz chaqasi.

dehqonlar nariyoqdagi ochiq dalada quzg'unlar gala bo'lib aylanayotganligiga e'tibor berishdi. Keyin sharros yomg'ir quyди. Kelasi hafta ham qushlar o'sha yerdan ketishmadи. Ular ufq tomondan uchib kelgan turli-tuman qushlar bo'lib, uzoqdan xuddi oppoq matodagi qora yamoqni eslatardilar. Bunga qiziqqan bir guruh odamlar o'sha joyga yo'l olishdi. Va u yerdan yarmi qarg'alarga yem bo'lgan jasad topishdi. Ko'zlari ham o'yib yeyilgan bu jonsiz tana, ko'rniki edi.

Shundan so'ng men quyoshning nurlaridan zavq olmay qo'ydim, chunki quyoshga intilgan so'qirning xotiralari meni tinch qo'ymasdi. Uni taniganlar biladi: inson uchun, u kim bo'lishidan qat'i nazar bu – dahshatli yakun edi.

Nodirabegim IBROHIMOVA tarjimasi

TINCHLIKPARVAR

Ajabtovur odamlar bilan uchrashib, zap omdim kelyapti-da. Bu kamdan kam uchraydigan holat, nega desangiz, oddiy odamlarni har kuni uchratamiz. Masalan, kecha o'zini Iso Masih deb biladigan odam bilan tanishdim. Ammo bunga sira hayron bo'l mang, axir, dunyoda o'zini Napoleon deb o'ylaydigan odamlar son mingta, minglab o'quvchi qizlar ko'zguga qarab Greta Garbo ning aksini ko'radi, sochini uzun o'stirib olgan bir gala yosh-yalang o'zlarini mashhur estrada qo'shiqchilariday tutadi.

Xullas, kechagi tanishuvim bundoq bo'ldi.

„Lukull“ restoraniga tushlik qilgani yo'naldim...

– Nega restoranga? – deya og'zimga uradi besabr o'quvchi. – Uyingizda ovqatlansangiz bo'lmaydimi?

Ma'zur tutgaysiz, davom etaman. Kecha oqshom xotinim ketib qolganini batafsil aytishim bilanoq, nega u birdan ketib qolganini, kim bilan va qayoqqa gumdon bo'lganini, safarda qancha fursat bo'lishini, o'rtamizza qo'ydi-chiqdi bo'lganmidi, o'zi nima sababdan xotinimsovutkichda menga ovqat-povqat qoldirmaganini ijikilanib so'rab-surishtirishingiz turgan gap.

Modomiki menga birinchi bo'lib so'z berilgan ekan, odamni aybsitaveradigan o'quvchining bar-

cha savollariga ham javob bermayman. Shunday qilib, „Lukull“ga yo'l oldim. Eshik tagida uzunsoch yoshlar uymalanib turgan ekan. Bo'yinbog'-lari bo'lmagani sabab ichkariga qo'yishmayotgan ekan ularni. Gapning po'stkallasini aytsam, ularning cho'ntaklarida hemiri ham yo'q edi. Yigitlar norozilik bildirmoqchi bo'lishib, bir-birining sochidan yulqilay boshlashdi. Bittasining qo'liga yasama soch tushib qoldi, shunda ma'lum bo'lidi, yigitlarning orasiga qiz bola suqilib kirgan ekan, chunki yigitlar ulamasoch taqishmaydi-da. O'rtada ixtilof kelib chiqib, ikki guruhga bo'linishdi: bir tomon – ulamasoch uchun, ikkinchi tomon – unga qarshi. Ur-yiqit boshlandi. Odadagi mushtlashuv. Bahona ham tappa-tayyor: to'qlikka sho'xlik.

Ta'bir joiz bo'lsa, jangovor tulporlarning yollarini singari savatsochlar hilpiray boshladи. Mushtlashuv ayni avjiga chiqqandi hamki, yonimga halloslagancha o'rta yoshli bir taqsir kelib qoldi. Ko'cha tomondan chopib kelgan shekilli, yutoqib hars-hars nafas olardi.

– Nima gap, nima bo'lyapti bu yerda? – so'radi u inglizchalab. Antiqa talaffuzidan bildimki, u Texasdan – huuv, o'sha, shoxdor qoramol yetishtiriladigan, kuppa-kunduzi prezidentlarga o'q uzeladigan Amerika shtati.

– Ser, nima bo'lyapti o'zi? – oyoq tirab so'radi u tag'in. – Yigitlar urishishyaptimi?

– Ha, shunaqaroq.

– Qurolsiz-a?

– Finlyandiyada kichik ko'ngilsizliklar musht yordamida hal qilinadi.

– Dahshat-ku!

- Aynan nima?
- Odamlar bir-birining go'shtini yesa-yu, birov aralashmasa. Afu etgaysiz, o'zimni tanishtiray. Kebot.
- E... kechirasiz, harfma-harf aytolmaysizmi?
- Si-ey-bi-ou-ti – Kebot. Anglamadingizmi? Bundoq: Karolina, Alabama, Boston, Oklaxoma va Texas – Kebot. Endi uqdingizmi?
- Ha, rahmat.
- Juda soz! O! Qarang, qarang! Anavi yigit birodarining yuziga musht tushirdi-ya. Yo Bibi Maryam! Menga yordam berolmaysizmi, ser?
- Qanday qilib, janobi Kebot?
- Tilmoch sifatida. Bu odamyovvoyilar bilan bir gaplashsam devdim. Men, bilsangiz, nasroniyman, tinchlikparvarman. Odamlarning yoqalashishini ko'rishga ko'zim yo'q. Janjalni to'xtatishning bir yo'li bor.
- U holda to'xtating. Haytovur, men bu ur-yi-qitga aralashgim yo'q. Qolaversa vaqtim ziq.
- Shoshmang, ketmay turing, – deya elangancha janob Kebot qo'lidan oldi. – Rostdan ham menga yordam berolmaysizmi? Yopiray! Endi anavilar bir-birini tepkilashga o'tishdimi? Agar hozirning o'zidayoq yoqalashayotganlarni yarashtirmasam, o'zimni dunyodagi eng gunohkor banda deb bilaman. Yo'qsa, osmondagи otamizning siy-mosiga qay yuz bilan boqurmen, uning farzandi ekanimni qay til bilan ayturmen...
- Janobi Kebot, o'zi nima istaysiz? – so'radim jiddiyashib.
- Nizoni bartaraf etmoqlikni. Bu odamlar tinchlik va bahamjihatlikda yashashlarini istayman.

Shu bois ham sizga iltimos ila murojat etmoqdamان. Urishqoqlardan so'rab ko'ring-chi, o'qotar qurol sotib olishmasmikin?

– Kechirasiz-u, janobi Kebot, men sizni tushunmay turibman. Tinchlik tarafdoriman, tinchlik-parvarman, deyapsiz-u, shuning barobarida qurol sotmoqchi bo'lyapsiz.

– Buning nimasiga ajablanyapsiz? Qurolsiz tinchlik o'rnatib bo'larkanmi?! Rabbimning ham samoviy lashkari mavjud. Zaminda esa cherik deganlari tinchlik nomi ila harakat qilur. O muqaddas ruh! Xudo xayringizni bersin, ko'maklash-sangiz-chi! Mehmonxonadagi hujramda bir talay to'pponchalar bor, arzon-garovga beraman.

– Quloq soling, janobi Kebot. Miyangizni hech tekshirtirib ko'rganmisiz: istasangiz, bir yaxshi shifokor-mutaxassisning qabuliga olib boraman.

– Siz meni haqorat qilyapsiz. Nima, meni jinnipinni deb o'ylayapsizmi? Yurtimda meni elma-el yurib, xalqlar o'tasida tinchlik o'rnatishga yo'l ko'rsatguvchi yangi zamon payg'ambari deb atashadi.

Janob Kebot birdan pichirlashga o'tdi:

– Menda yana gaz-to'pponchalar ham bor, uch soniyada raqibni behush qiladi. Axir, ser, tinchlikni oddiy gaz bilan ham o'rnatса bo'ladi, ajoyib emasmi?! Siz bu aqldan ozganlarga bir qarang! Bittasining hatto bosh terisini ham shilib olishibdi!

– Xotiringiz jam bo'sin, janobi Kebot. Bu boryo'gi ulamasoch. Aytgancha, o'zi siz kimsiz? Chog'imda, qurol-yarog' kontrabandasi bilan shug'ullanasisz, shekilli?

— Birgina quroq emas. Yonimda doim bir jomadon nyu-yorkcha jargonga o'girilgan arzon Bibliyalarini ham olib yuraman. Ammo o'qotar qurollarni jon deb pullayman, chunki samarasini ko'proq. Bibliya oniy xotirjamlik bersa, to'pponcha bata-mom osoyishtalik o'rnatadi. Yana bir bor ma'zur tutgaysiz, ser, sizga orqa qilsam bo'ladimi? Salpal toshbag'ir bo'lsangiz ham halol odamga o'xshayapsiz. Siz, masalan, bu qonli olishuvga kiprik qoqmasdan qarab turaverasiz, vaholanki bu to's-topolонни mening maslahatim ila osongina hal etish mumkin. Shunaqa, ser. Sizga ishonsam bo'ladimi? Bilsangiz, cho'ntaklarimda bir nechta namuna bor. Reklama uchun bittasini judayam arzonga beraman. Agar qo'lingizda to'qqizta o'qli to'pponcha bo'lsa, bir o'q bilan janjalga barham berasiz.

— Bitta-yarimtasi o'lib-netib qolsa-chi?

— Agar tinchlik va tartib o'rnatmoqchi bo'lsang, shunday bo'lishi turgan gap. Jasad qancha ko'p bo'lsa, tinchlik ham shunchalik barqaror bo'ladi. Agar adolatli tinchlik borasida gap ketayotgan bo'lsa, raqibni miyasidan otish kerak. Ko'ryapsizmi, ser, urush dushman borligi tufayli qo'zg'aladi. Lekin g'animni paydo bo'lishi bilanoq o'ldirsang, abadiy tinchlik hukm suradi. Hayotga bo'lgan qarashlarim shunaqa mening. Bu qarashlar Bibliyaga tayanadi. Menda yana bundan ham puxtarloqlari bor.

— Aftidan, siz quroq-yarog' fabrikasi egasisiz, shekilli-a, janobi Kebot?

— Bekorlarning beshtasini yebsiz! Menkim ezbilik elchisi, amerikacha sulhparvarlikning alo-

hida vakiliman. To'g'ri, yo'l-yo'lakay quroq ishlab chiqaruvchi bir nechta zavodlarning yangi mahsulotlarini ham reklama qilaman. Axir, bo'sh qop tik turmaydi, lekin... E Xudoyim!.. Politsiya qayoq-dan paydo bo'la qoldi? O'zim ham shunaqa deb o'ylagandim. Ular mening tinchlikka qaratilgan tashabbusimni barbod qilishlarini bilgandim o'zi. Endi qarang, bu nimasi-a: ular yigitlarni furgonga tiqishyapti. Bu borib turgan vahshiylilik... Naq yig'laging keladi-ya. Ko'rmaysizmi, ziyraktabiatman. Men tinchlik va ozodlikni sevaman. Barcha odamlar erkinlik va yashash huquqiga ega bo'lishlari lozim. Dushmanlardan tashqari, albat-ta. Ularga shafqat qilib bo'lmaydi... Aybga buyur-maysiz, ser, sizning ham dushmanlaringiz bormi?

– Bo'lishi mumkin. Dadil ishonch bilan aytol-mayman.

– Unday bo'lsa, har ehtimolga qarshi mendan to'pponcha sotib oling.

– Aslo. Fahmimcha, meni ko'rolmaydiganlar to'pponchasiz ham ishini bitiradi.

– Unda bejirim qilib ishlangan qo'l granatalarini taklif qilaman – cho'ntakda olib yurish uchun maxsus ishlangan.

– Keragi yo'q. Yo'qsa men dushmanimning portfeli plastik bombaga to'la, deb o'layman...

Janob Kebot o'y surib menga qarab qoldi, so'ngra pichirladi:

* – Men sizga optik mo'ljallagichli zamонавијав-автоматик милиқ топиб беришмумкин. У давлат arboblarini o'ldirishga mo'ljallangan. Basharti dushmaningizda ham shunaqa miliq bo'lsa, men sizga bir yo'la o'qo'tmas kostyum ham sotishim

mumkin. Innaykeyin, men sizga atom... Siz meni eshityapsizmi?

– Yo‘q. Tushlikka shoshyapman. Tinchlik yo‘li-dagi faoliyatingizda muvaffaqiyat tilayman.

Restoranga yo‘naldim, ammo janob Kebot o‘chakishganday ortimdan ergashdi.

– Men siz kabi odamlarni yoqtiraman, – dedi u. – Sizni grog¹ bilan siylashga izn bergaysiz.

Men xushmuomalalik ila uning manziratini rad etdim, lekin janob Kebot tiryg‘alib kelgancha restoranga birlashib kirdi va yonimga o‘tirdi. Pi-yoz to‘g‘ralgan bifshteks buyurtirganimda, u vahimaga tushdi. U o‘zini sobitqadam go‘shtyemasligini ma‘lum qildi va faqat johillargina nafsin qondirish uchun begunoh jonivorlarni o‘ldirishga qodir ekanligini aytdi.

– Etxo‘rlik odamni dag‘allashtiradi, – dedi u. – Men har borada nasroniylikning ezgu so‘zlariga amal qilishga intilaman.

– Men esa yo‘q, – dedim kesatib. – Aksincha, odam o‘ldirgim keladi, chunki baribir odam go‘shtini yemayman.

Janob Kebot cho‘qinib oldi va xitob qildi:

– Siz beshafqatning bunday deyishga qanday tilingiz bordi?! Kasbingiz nima o‘zi?

– Kasbim yo‘q. Men kitob yozaman. Sizning nozik ko‘nglingiz esa ur-sur bo‘layotgan, inson qoni to‘kilayotgan yerga intiladimi deyman-a?

– Tinchlik o‘rnatish uchun.

– Qurol sotibmi?

– Bu – eng samarali yo‘l.

¹ Grog – sharob, rom yoki konyakka sharbat qo‘sib tayyorlangan issiq ichimlik (tarj.).

– Nega siz qovoqxonalarda, cherkovlarda, maktablarda, ko'chalarda jiqqamusht bo'layotgan yurdoshlariningizga qurol sotmaysiz?

Janob Kebot bosh chayqadi.

– O'zingizni yozuvchiman deya tanishtirdingiz. Adashmasam, yozuvchilar tijoriy sezgirlikdan mahrum bo'lishadi.

– Hozir gap tijorat haqida emas, tinchlik uchun kurash haqida ketyapti.

– Ikki o'n besh – bir o'ttiz. Keling, men sizga tushuntiraman. Hozir mening yurtimda birgina ichki savdo bilan kun ko'rib bo'lmaydi. Mahsulotni o'tkazish kerak, molni esa qon to'kilayotgan, qurol talab qilinayotgan yerga yo'naltirish lozim. Shu tariqa bandlik ta'minlanadi, birvarakayiga ulug'vor tinchlik g'oyasi ham joriy qilinadi. Chin nasroniy kabi biz xalqlarni g'animplardan xalos etamiz.

– Siz alomat odam ekansiz, janobi Kebot. Ajabtovursiz! Sizning sharafingizga ikkinchi bifshteksni va bir qadah sharobni buyurtiraman.

Janob Kebot tong qotib, endi og'iz juftlashga chog'langandi, e'tiborini ko'cha mojarosi tortdi. Ikkita yuk mashinasini to'qnashib ketdi, haydovchilar kabinadan tushib, „iltifot“ ila musht o'qtalib, odatdagi „navozish“ so'zlar bilan bir-birlarini siyladilar. Janob Kebot cho'ntagidan lug'at olib ko'chaga chopdi. Haydovchilar bir-birining yoqasi pishiqligini tekshirib ko'rishga endi o'tishmoqchi bo'lishgandi hamki, janob Kebot bittasining qo'lidan tutib, chetga tortdi-da, qulog'iga allambalolarni shivirlay ketdi. Ko'p ham topag'on emasman-u, lekin bu samimiy tinchlikparvar

haydovchiga imtiyozli reklama narxida to'pponcha taklif etganini fahmladim.

Restorandan qaytgach, o'zimni so'roq-savolga tutdim. Tan olishim kerakki, janob Kebot haq edi: tijoriy sezgirlik yetishmaydi menga. Yo'qsa undan imtiyozli narxda to'pponcha sotib olib, kreditorlarim bilan osongina orani ochiq qilgan bo'lardim, keyin esa davlat tomonidan to'la xizmat ko'rsatish bilan umrbod beriladigan nafaqa va ijodiy tinchlik bilan ta'minlangan bo'lardim. Lekin o'zingizdan qolar gap yo'q, do'stlarim, yozuvchi ijodiy tinchlik uchun o'z o'quvchilarini otib tashlolmaydi. Shuning uchun ham u tijorat bobida uquvsiz.

Rus tilidan

Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi

UNUTILGAN KITOBLAR QABRISTONI

Dadam meni ilk marotaba Unutilgan Kitoblar Qabristoniga olib borgan kunni hali-hanuz yaxshi eslayman. 1945-yilning ilk yoz kunlari edi va biz kulrang osmon ostida yastanib yotgan Barcelona ko'chalari bo'ylab yurib borardik. Tong esa Ramla de Santa Monikani mis gulchambarlariga o'rab qo'ygandek edi, go'yo.

„Daniyel, bugun ko'radigan narsangni nimaligini hech kimga aytmasliging kerak, dadam meni ogohlantirdi. – Hattoki yaqin do'sting Tomasga ham. Hech kimga“.

– Hatto oyimga hammi?

Dadam chuqur tin oldi va butun hayotiga soya solib turgan alamni g'amgin bir tabassum ortiga berkitishga urinarkan, og'ir xo'rsinib qo'ydi.

– Albatta, unga aytishing mumkin, javob berdi u juda g'amgin holda. Biz undan sir yashirmaymiz. Sen unga hamma narsani aytishing mumkin.

Fuqarolar urushidan qisqa vaqt o'tib, mudhish vabo meni oyimdan judo qildi. Biz uni mening to'r-tinchi tug'ilgan kunimda Montjuikka dafn qildik. O'sha mash'um kunda yodimda qolgan yagona narsa shuki, o'sha kuni butun kun-u tun yomg'ir yog'ishdan tinmadi, dadamdan jannat yig'layaptimi, dada, deb so'raganimda esa u javob bera olmadi.

Oradan olti yil o'tib, oyimning yo'qligi men hali ham ko'nika olmagan juda qattiq sukunatga aylanib ketdi. Dadam bilan biz Kelli Santa Amada-da, cherkov tuyulishidan uncha uzoq bo'lma-gan kamtargina bir kulgada yashardik. Uyimiz bobomdan qolgan kolleksionerlarning noyob asar-lari va ikkinchi qo'l kitoblari sotiladigan kitob do'koni – mo'jizakor do'konning shundoqqina te-pasida joylashgan bo'lib, dadam bir kun kelib uni meniki bo'lishiga umid qilardi.

Men kitoblar bilan voyaga yetdim, sahifalardan ko'rinas do'stlar orttirdim va bu bugungacha davom etmoqda. Bolalikdan qorong'i yotog'imda uyquga ketishdan avval onam bilan „suhbat qu-rishga“, unga kunning voqealarini, mакtabdagи sarguzashtlarimni va unda o'rganganlarimni so'z-lab berishga odatlanib qoldim. To'g'ri, uning ovo-zini eshita olmas edim, biroq uning tafti va nafasi uyning har bir burchagida mavjud va o'z yoshini nozik barmoqchalari bilan sanab aytadiganlar-ning begunohligi haqi, ishonardimki, agar hozir ko'zlarimni yumsam, u qayerda bo'lmasin, meni eshitadi.

Ba'zan shunday xayollar og'ushidaligimda, da-dam meni oshxonadan tinglab, jimgina yig'la-gan...

O'sha iyun tongida saharga yaqin qichqirib uy-g'onib ketdim. Ko'ksimdagi yuragim go'yo chiqib ketgudek urardi. Dadam darhol xonamga shoshil-di va meni qo'llariga olib, tinchlantirishga urindi.

– Men... Men uning yuzini eslay olmayapman... Oyimning yuzini eslay olmayapman... – Nafas ol-may qaytarardim men.

Dadam meni mahkam bag'riga bosdi.

– Xavotir olma, Daniyel. Men ikkimiz uchun ham eslayman.

Biz tong yorishguncha bir-birimizga biror so'z topolmay qarab qoldik. Dadamning keksayib qolayotganini birinchi marta ana o'shanda payqadim. U o'rnidan turib, tongning shu'lasi kirib turishi uchun pardalarni surib qo'ydi.

– Daniyel, kiyin. Senga bir narsa ko'rsatmoq-chiman.

– Hozirmi? Tonggi soat beshda-ya?

– Ba'zi narsalarni faqatgina qorong'ida ko'rish mumkin, – dedi dadam o'zgacha bir sirli tabassum bilan (ehtimol, buni u Aleksandr Dyumaning biror romanidan o'qigandir).

Biz old eshikdan chiqqanimizda, qorovul hanuz qorong'i ko'chada sanqib yurardi. Tongning g'ira-shirasida Ramblas bo'ylab ko'chalarni yoritgan chiroqlar shaharning uyg'onganidan darak edi, bu go'yo jozibador akvarelning hayotga sekin kirib kelishiga o'xshaydi.

Kalli Arko del Teatroga yetib bordik va ustunlar bo'ylab Raval tomon yurishda davom etdik. Men dadamning izidan to ortimizdagি Ramblasning xira chiroqlari g'oyib bo'lguniga qadar ergashib boraverdim. Tong yorug'i usqdan balkonlarga va yerga yetmay erib ketayotgan qiya nurlar ichidagi devorlarga tarqaldi. Nihoyat, dadam vaqt va namlik qoraytirgan, yog'ochdan ishlangan ulkan o'yma eshik oldida to'xtadi. Bizlardan oldin ko'zimga sharpasi ko'ringan narsa bu qasrning jonsiz jasadi bo'lib, u menga aks sadolar va ko'lankalar makoni bo'lib tuyuldi.

„Daniyel, bugun sen ko‘radigan narsaning nima ekanini hech kimga aytmasliging kerak. Hatto eng yaqin do‘sting Tomasga ham. Hech kimga“.

Kichikdan kelgan, siyrak, kulrang sochli tas-qara bir kishi eshikni ochdi. Uning dosh berib bo‘lmas burgut qarashi menga qadalgan edi.

„Xayrli tong, Isaak. Bu mening o‘g‘lim, Daniyel“, ta’kidladi dadam. „U yaqinda o‘n bir yoshga to‘ladi va kun kelib do‘kon uniki bo‘ladi. Uning bu joy haqida biladigan vaqtি keldi“.

Isaak nomli kishi boshini sarak-sarak qildi va bizni ichkariga taklif etdi. Ko‘k rangli kishining ta‘bini xira qilguvchi qorong‘ilikdan marmar zina-ning burilishlariga va u yerdan farishtalar bilan o‘ralgan odamlar va turli g‘aroyib mavjudotlar freskolari bilan bezatilgan galereyaga o‘tdik. Mez-bonning ortidan yuqori yo‘lka tomon yurdik va tepamizdagи ulkan shisha gumbazdan yorug‘lik tushib turuvchi ko‘lankalar bazilkasi joylashgan aylana zalga yetib bordik. Yo‘laklar labirinti va liq to‘la kitobjavonlardan xuddi asalari uyasiga o‘xhash gumbazning yuqori qismiga ko‘tarildik, tunnellardan, zinapoyalardan, platformalardan, ko‘priklardan o‘tib, imkoniy yo‘q geometriya bo‘lib ko‘ringan ulkan kutubxonaga yetib bordik. Men toshday qotib, dadamga qaradim. U menga jilmayar ekan, ko‘zini qisib qo‘ydi.

„Unutilgan Kitoblar Qabristoniga xush kelibs-san, Daniyel“.

*Ingliz tilidan
Maftuna RAIMQULOVA tarjimasi*

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
Dino Butssati. Maoshga qo'shimcha.	
<i>Dildora Arzikulova tarjimasi.....</i>	5
Ulf Malmgren. Olma haqida ertak.	
<i>Abduhamid Pardayev tarjimasi</i>	12
Alberto Moravia. Qiyomat-qoyim.	
<i>Dildora Arzikulova tarjimasi.....</i>	20
Yozef Rot. Bir muhabbat tarixi.	
<i>Dildora Arzikulova tarjimasi.....</i>	30
Marta Kouk. Buyurmagan boylik.	
<i>Abduhamid Pardayev tarjimasi.....</i>	52
Genrix Byoll. Nimadir sodir bo'lishi kerak!	
<i>Abduhamid Pardayev tarjimasi.....</i>	59
Ulter Mekkin. Qirol.	
<i>Dildora Arzikulova tarjimasi.....</i>	68
Sirel Xayr. Paripaykar.	
<i>Abduhamid Pardayev tarjimasi.....</i>	77
Herman Hesse. Nusxa.	
<i>Abduhamid Pardayev tarjimasi</i>	85
Yúxan Falkberget. Qismat.	
<i>Dildora Arzikulova tarjimasi.....</i>	93
Frans Kafka. Hukm.	
<i>Rus tilidan Abbos Saidov tarjimasi.....</i>	100

Fridrix Dyurrenmatt. Sak.	
<i>Nemis tilidan Mirzaali Akbarov tarjimasi</i>	118
Sidoni Gabriel Kollet. Ikki kishilik stol.	
<i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i>	127
Anjela Kaflan. Onaizorim.	
<i>Qandilat Yusupova tarjimasi</i>	134
Gi de Mopassan. So'qirning qismati.	
<i>Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i>	139
Martti Larni. Tinchlikparvar.	
<i>Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>	144
Karlos Ruiz Zafon. Unutilgan Kitoblar Qabristoni.	
<i>Ingliz tilidan Maftuna Raimqulova tarjimasi</i>	153

Adabiy-badiiy nashr

BIR MUHABBAT TARIXI

Hikoyalar

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

*Malika Kamolova
Bahodir Ibragimov
Zikrilla Mamatov
Surayyo Sunnatullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
09.09.2022-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi
84x108¹/₃₂. Ofset qog'ozи. „Bookman Old Style“ garniturasida
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 8,4.

Adadi 1000. Sharhnomha № 25-22.
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodи“
bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ, Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Cho'ponota ko'chasi, 28-a uy.

„Yangi asr avlodи“ MCHJ Toshkent shahar, Chilonzor tumani,
Qatortol ko'chasi, 60-uy.

Rot, Yozef.

R 79 **Bir muhabbat tarixi.** [Matn]: hikoyalar /
Yozef Rot; tarjimonlar: D. Arzikulova va b. – T.:
„Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 160 b.

ISBN 978-9943-8520-8-2

UO'K: 821(436)-32

KBK 84(4Yuga)-445

Bir *muhabbat* tarixi

Hikayalar toplamı



ZIYO NASHR



fb.com/zizo.nashr



ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-8520-8-2



9 789943 852082